2-son, 2025

AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

ISSN: 3030-3273

AL-BUKHARI

Scientific journal

AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

AL-BUKHARI

Scientific journal



ORIENTAL
UNIVERSITETI

AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

(Ikkinchi son)

Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qaroriga muvofiq tarix va filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga “Al-Buxoriy” ilmiy jurnali kiritilgan.

Toshkent – 2025

Bosh muharrir:

Farhod Maksudov, tarix fanlari doktori (DSc)

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Malika Nasirova, filologiya fanlari nomzodi, professor

Mas’ul muharrir:

Govhar Rahmatova, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

“Al-Buxoriy”

ilmiy jurnalining tahrir hay’ati:

1. Azamat Ziyo	**t.f.d., akademik, professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
2. Zohidjon Islomov	**f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
3. Shorustam Shomusarov	**f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
4. Durdona Lutfullayeva	**f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
5. Komiljon Rahimov	**t.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
6. Shamsiddin Kamoliddinov	**t.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
7. Xolida Alimova	**f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
8. Aftondil Erkinov	**f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
9. Albert Burxanov	**t.f.d., akademik (Tatariston) – tahrir hay’ati a’zosi;**
10. Samal Tuleubaeva	**f.f.d., professor (Qozog‘iston) – tahrir hay’ati a’zosi;**
11. Sayfullo Mullodjanov	**t.f.d., professor (Tojikiston) – tahrir hay’ati a’zosi;**
12. Zilola Xudoyberganova	**f.f.d., professor (Turkiya) – tahrir hay’ati a’zosi;**
13. Akram Habibullayev	**t.f.d., professor (AQSh) – tahrir hay’ati a’zosi;**
14. Ashirbek Mo‘minov	**t.f.d., dotsent (Qozog‘iston) – tahrir hay’ati a’zosi;**
15. Murtazo Saidumarov	**f.f.n., professor (Saudiya Arabistoni) – tahrir hay’ati a’zosi.**

MUNDARIJA

FILOLOGIYA

Zaripova Dilfuza Baxtiyorovna
Huvaydo ijodida iqtibos san'ati 4

Nasirova Dildora Talibjonovna
Solih ibn Muhammadning "Ash-Shuzur az-Zahabiyya" lug'atida berilgan fe'llar qismining tuzilish prinsiplari 13

Abdullayeva Shaxnoza Baxodir qizi
Arab maqol va matallarining o'rganilish tarixi 24

Isakov Abdulahad Abdulvahobovich
O'zbek va ingliz tillaridagi unlilarda fonologik interferensiya omillari 36

Мусаджанова Гулчехра Абдуманаповна, Якубова Ферузахон Аскаровна
Лингвистический анализ формирования навыков устной речи при обучении русскому языку как иностранному 47

Исраилов Жахонгирхон Джамшидхонович, Исраилова Илона Халитовна
Когнитивно-дискурсивный анализ формирования профессиональной иноязычной компетенции у студентов медицинских вузов: Англоязычный медицинский дискурс 58

TARIX

Mamataxunov Nozimjon Azizovich
Abu Hanifa hayoti va uning ilmiy faoliyatiga doir ayrim mulohazalar 71

Axmedov Muzaffar Boriyevich, Azimbayeva Nargiza Tuxtamuradovna
Movarounnahrda Islom sivilizatsiyasining shakllanishi (VIII–XI asrlar) 79

Bobojonov Islombek Usmonaliyevich
O'zbekistonliklar va Misrliklar o'rtasidagi hamkorlik aloqalarining tarixiy ildizlari ... 92

Nasirillayeva Nodirabegim Furqat qizi
Abdulla Nosirov daftarlari asosida haj guvohnomalari tahlili 101

Jo'rayev Sherzod Norovich
Sulton Husayn Mirzo: Hokimiyat uchun kurash va Xurosonda davlat boshqaruvi ... 112

Asqarov Akbar Asadovich
Amir Temur merosi va Uchinchi renessans: Tarixiy tajribaning bugungi ahamiyati .. 122

HUVAYDO IJODIDA IQTIBOS SAN'ATI
THE ART OF QUOTATION IN HUVAYDO'S CREATION
ИСКУССТВО ЦИТИРОВАНИЯ В ТВОРЧЕСТВЕ ХУВАЙДО

Zaripova Dilfuza Baxtiyorovna
Ichki ishlar vazirligi
Buxoro akademik litseyi dotsenti,
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tel.: +998 91 415-82-64
E-mail: dilfuzabaxtiyorovna010@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Huvaydoning o'zbek mumtoz adabiyotida tutgan o'rni, ijodkorning g'oyaviy yo'nalishi, badiiy mahorati, ilohiy ishq tasviridagi o'ziga xosligi haqida fikr yuritilgan. Uning ijodida didaktikaning o'rni haqida asosli fikrlar keltirilgan. Adib ijodida iqtibos san'atining qo'llanilishi lirik janrlar misolida tahlil qilingan. Hamd g'azalidagi o'ziga xosliklar ochib berilgan. Shoir ijodida Qur'on va hadisning ta'siri yetarlicha asoslangan. Adibning diniy mavzudagi g'azallarida nido, tazod, iqtibos, didaktik mavzudagi g'azallarida intiboh, irsoli masal, tazod, talmeh, tashbeh, ishqiy mavzudagi g'azallarida esa mubolag'a, nido, tanosib, tashbeh, takrir, ta'did san'atlaridan mohirona foydalanganini ko'rish mumkin. Bu Huvaydoning badiiy mahoratining o'ziga xos yo'lidir. Huvaydoning o'zbek mumtoz adabiyotida Ahmad Yassaviy, Boborahim Mashrab, So'fi Olloyorlar yo'lidan borib, she'rlarida ilohiy ishq, oliyjanob insoniy fazilatlarni ulug'laganligi, ma'naviy kamolotga erishishda diniy qadriyatlarning katta ahamiyatga ega ekanligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: *Ilohiy ishq, g'azal, Qur'on, hadis, didaktika, iqtibos, ezgulik, yaxshilik, ma'naviy kamolot, hamd.*

Annotation: This article examines the place of Khuvaydo in Uzbek classical literature, the ideological orientation of the poet's work, his artistic mastery, and his distinctive approach to depicting divine love. Well-founded reflections are provided on the role of didactics in his creative output. The use of the art of citation in the poet's works is analyzed through examples from lyrical genres. The peculiarities of the hamd ghazal are elucidated. The influence of the Quran and hadiths on the poet's creativity is convincingly substantiated. In Khuvaydo's ghazals on religious themes, one can observe the skillful use of such techniques as exclamation (nido), contrast (tazod), and citation (iqtibos); in didactic ghazals — awakening (intiboh), parable (irsoli masal), contrast (tazod), allusion (talmeh), and simile (tashbeh); and in love-themed ghazals — exaggeration (mubolagha), exclamation (nido), proportion (tanosib), simile (tashbeh), repetition (takrir), and amplification (ta'did). This constitutes the unique path of

Khuvaydo's artistic mastery. The article argues that Khuvaydo, in the context of Uzbek classical literature, followed the traditions of Ahmad Yasavi, Boborahim Mashrab, and Sufi Allayar, glorifying divine love and noble human virtues in his poetry, while emphasizing the significant role of religious values in achieving spiritual perfection.

Keywords: *Divine love, ghazal, Quran, hadith, didactics, quotation, righteousness, good, spiritual perfection, praise.*

Аннотация: В данной статье рассматривается место Хувайдо в узбекской классической литературе, идейная направленность творчества поэта, его художественное мастерство и своеобразие в изображении божественной любви. Обоснованно излагаются мысли о роли дидактики в его творчестве. Применение искусства цитации в произведениях автора анализируется на примерах лирических жанров. Раскрываются особенности хамд газель. Влияние Корана и хадисов на творчество поэта убедительно обосновано. В газелях Хувайдо на религиозные темы можно наблюдать искусное использование таких приемов, как восклицание (нидо), контраст (тазод), цитация (иктибас), в дидактических газелях — пробуждение (интибох), притча (ирсоли масал), контраст (тазод), намёк (талмех), сравнение (ташбех), а в любовных газелях — преувеличение (муболага), восклицание (нидо), соразмерность (таносиб), сравнение (ташбех), повтор (такрир) и усиление (таъдид). Это представляет собой уникальный путь художественного мастерства Хувайдо. В статье подчеркивается, что Хувайдо в узбекской классической литературе следовал традициям Ахмада Ясави, Бабарахима Машраба, Суфи Аллаяра, прославляя в своих стихах божественную любовь и возвышенные человеческие добродетели, а также отмечается значимость религиозных ценностей в достижении духовного совершенства.

Ключевые слова: *Божественная любовь, газель, Коран, хадис, дидактика, цитата, благо, добро, духовное совершенство, хвала.*

KIRISH

Xo‘janazar Huvaydo (1704–1780/81) – o‘zbek mumtoz adabiyotidagi muhim shoirlardan biri bo‘lib, tasavvuf she’riyatining yirik vakillaridan sanaladi. O‘sh shahrida tug‘ilib, Farg‘ona vodiysidagi Chimyon qishlog‘ida umrining so‘nggi yillarini o‘tkazgan Huvaydo o‘zbek lirik she’riyatida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Uning ijodi diniy-axloqiy, tasavvufiy va oshiqona mavzularning boy uyg‘unligi bilan ajralib turadi. Huvaydo she’rlarida iqtibos san’ati, ya’ni Qur’on, hadis va klassik adabiyotdan olingan iboralar yoki mazmunlarni o‘ziga xos uslubda qo‘llash muhim o‘rin tutadi. Bu san’at uning asarlarida nafaqat badiiy mahorat, balki chuqur diniy va falsafiy dunyoqarashning ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu maqolada Huvaydoning lirik ijodida iqtibos san’ati qanday qo‘llanilgani, uning she’riy uslubiga ta’siri va o‘zbek adabiyotidagi o‘rni tahlil qilinadi.

Huvaydo ijodiy merosi XIX asr boshlaridan boshlab o‘rganila boshlagan. Turkiston Rossiya tomonidan bosib olinganidan so‘ng rus olimlari tomonidan yerlik xalq madaniyati, ilm-fani, etnografiyasini o‘rganishga qiziqish kuchaygan. Rus sharqshunoslari V.V.Bartold, A.N.Samoylovich, M.F.Gavrilov, G.R.Andreyev, V.P.Nalivkin va boshqa tadqiqotchilarning Turkiston xalqlari madaniyatini o‘rganishga bag‘ishlangan maqolalari chop etilgan.

O‘zbek olimlari, tadqiqotchilari tomonidan Huvaydo ijodini o‘rganish asr o‘rtalaridan boshlanganini ko‘rishimiz mumkin. Sabab sifatida ungacha bo‘lgan davrda islom dini qattiq qoralanib, diniy, tasavvufiy asarlarni o‘rganish taqiqlanganini aytish mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Akademik V.Zohidov, adabiyotshunos T.Jalolovning Huvaydo ijodiga bag‘ishlangan maqolalari paydo bo‘ldi. Shundan so‘ng shoir ijodi haqida S.G‘aniyeva, R.Nosirov, S.Hasan, A.Qayumov, Sh.Turdiyev, Q.Ro‘zmatzoda, A.Xudoyberdiyev, N.Jumaxo‘ja, I.Suvonqulov o‘z maqola va tadqiqotlarida ma’lumotlar berishgan. Huvaydo ijodini o‘rganish adabiyotshunoslar tomonidan 1959-yildan boshlandi. Xususan, M. Afzalov “Huvaydo va Mashrab ijodini atroflicha o‘rganaylik” sarlavhali maqolasida Huvaydo ijodi chuqur o‘rganilmaganligini ma’lum qildi (Afzalov M., 1959: 49).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Biz ushbu maqolada Huvaydo lirikasida iqtibos san’ati qanday qo‘llanganligi, uning hamd g‘azali tahlili orqali uning badiiy mahoratini ochib berishni maqsad qildik. Tahlil jarayonida hamd g‘azalidagi misralar Qur’on va hadislar asosida tahlil qilindi. Adibning o‘ziga xos badiiy mahorati yetarlicha asoslandi.

Huvaydo o‘z ijodida lirik qahramon obrazi, uning kechinmalari, ichki his-tuyg‘ularini ifodalashda g‘azalning kompozitsion yaxlitligini, baytlar misralarining mantiqiy va uzviy bog‘lanishi uchun tasvirlanayotgan mazmunni chuqurlashtirishda ko‘plab badiiy san’atlardan foydalangan. Huvaydo g‘azallaridagi asosiy badiiy san’at iqtibos san’atidir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mumtoz adabiyotda Qur’on, Hadis va ilohiyotga bag‘ishlangan boshqa asarlarda Ollohning sifatlari, payg‘ambarlarning dinni targ‘ib qilish va mustahkamlash jarayonidagi harakatlari, valiylar hayotidan olingan rivoyatlarga, shuningdek, tarixiy sanalarga ishoralar va diniy asarlar qahramonlari ko‘plab uchraydi. Bundan maqsad lirik qahramon obrazini yorqinroq tasvirlash va qahramonning ichki tuyg‘ularini aniq ifodalashdir. Bu usul badiiy adabiyotda “iqtibos” deb yuritiladi. “Iqtibos” so‘zining lug‘aviy ma’nosi “ilm o‘zlashtirmoq” ma’nosini bildiradi. Sharq shoirlari bu san’atga murojaat qilib, lirik va liro-epik asarlarda oyatlar va hadislarni keltirganlar. Hadislar

asosida yozilgan “Arbain”lar ham iqtibos usulida yaratilgan (Hojiahmedov A., 1998: 62). Bu san’at turi haqida adabiyotshunos olim Yoqubjon Is’hoqov shunday yozadi: “Iqtibos – mushtarak (ham lafziy, ham ma’noviy) san’atlar jumlasidan bo‘lib, nasr yoki nazmda bayonning yorqin va go‘zal ifodasi uchun oyat va hadislar keltirish usuli. Ayrim olimlar (Masalan, Atoulloh Husayniy) fikricha, iqtibos sifatida olingan oyat va hadislar to‘g‘ridan to‘g‘ri, ya’ni ularning oyat va hadis ekaniga ishora qilinmagan holda keltirilishi lozim.

Iqtibos ikki xil ko‘rinishda bo‘lishi mumkin:

1. Oyat yoki hadis aynan keltirilgan iqtibos “darj” deyiladi. …Ular ifoda, bayon uchun oddiy bezak, ziynat emas, balki quvvatlab, kuchaytirishga xizmat qiluvchi muhim vosita hisoblanadi. Hatto ayrim she’riy va nasriy parchalar mohiyatan oyat yoki hadisning mazmuni bilan aloqador bo‘lishi mumkin.

2. Agar oyat va hadisning tarjimasi yoki mazmuni keltirilsa, bunday iqtibosni Doyiy Javod “hal” usuli deb ataydi. Lekin Atoulloh Husayniy “hal” deb nazmning mazmunini nasrda chiroyli bayon qilishni ataydi. …Atoulloh Husayniy faqat ishorasiz – to‘g‘ridan to‘g‘ri keltirilgan oyat va hadislarni iqtibos, deb ataydi (Is’hoqov Y., 2006: 26). Qur’oni Karimning bir necha oyatlarida “sahro” – do‘zax dahshatlari bayon qilingan. 77-sura – “Balmursalot” surasining 24 va 40-oyatlarida jahannam va jahannam ahli tasvirlangan. 78-sura – “Naba’” surasining 21-22-oyatlari yuqoridagi oyat mazmunini to‘ldiradi: “Albatta, tug‘yonga tushguvchilarning borar joylari bo‘lgan jahannam ko‘z tutib turibdi.” 24-oyatda bu fikr davom ettiriladi: “Ular u joyda biror salqinni va biron ichimlikni topmaslar!” (Qur’oni Karim, 1992: 450).

Munojotning 3-baytida:

“Kelur nayza bo‘yi xurshidi tobon farqi sar uzra,
O‘shal kun boshimg‘a chodari rahmatni qil paydo” (Huvaydo, 1990: 1).

(Nur taratayotgan quyosh bosh uzra nayza uzunligida keladi, o‘sha kun mehribonlik chodaringni boshimiz uzra yaratgin.)

Ikkinchi misradagi “chodari rahmat” so‘zini qo‘llash iqtibos san’atini yuzaga keltirgan. Bunda Qur’ondagi oyatlarga ishoralar bor. Jumladan, 77-suraning 41-42-oyatlarida shunday marhamat qilingan: “Taqvodor zotlar esa albatta, soya-salqinlarda, chashmalar va ko‘ngillari tusagan meva-chevalar ustidadurlar.” 44-oyatda esa: “Albatta, biz chiroyli amal qilguvchilarni mana shunday mukofotlarmiz” (Qur’oni Karim, 1992: 448).

Munojotning 4-baytida:

“Qurulsa ul famay-ya’mal da mezonim sabuk qilma,
Gunohimdin savobimni ayo sattori ma’budo”. (Huvaydo, 1990:1).

(Qilgan savoblarimni mahshar kuni gunohlarimdan yengil qilib qo‘ymagin, ey, gunohkorlar gunohlarini yashirguvchi” deb nola qiladi.)

Birinchi misrada qo‘llangan “Famay-ya’mal” – Qur’ondagi “Az-Zalzala” (Zilzila) deb nomlangan 99-suraning 7-8-oyatlari qisqartmasi bo‘lib, “Kimki nima qilsa” deb nomlanadi. To‘liq shakli: “Famay ya’mal misqola zarrotin xoyroy yaro. Vamay ya’mal misqola zarrotin sharroy yaro. – “Bas, kim (hayoti–dunyodalik paytida) zarra misolichalik yaxshilik qilgan bo‘lsa, (qiyomat kunida) o‘shani ko‘rur. Kim zarra misolichalik yomonlik qilgan bo‘lsa, uni ham ko‘rur” (Qur’oni Karim, 1992: 448).

Demak, bu baytda iqtibos san’atining ajoyib namunasi yaratilgan.

Munojotning 5-baytida:

“Qadam qo‘ysam yiqitmog‘il sirotal mustaqim uzra,
Giriftori jahiym aylab ilohi qilmag‘il rasvo”. (Huvaydo, 1990:1).

(Sirot ko‘prigiga qadam qo‘yganda, o‘ta olmay, ilohim, meni rasvo qilma.)

“Sirot al-mustaqim” – insonning narigi dunyodagi darajasini belgilashda uning ahamiyati shundaki, sirot ko‘prigidan o‘tolmaganlarning joyi 7 do‘zax “egalari” sanalgan. Qur’onda shunday deyiladi: “Kofir bo‘lgan va bizning oyatlarimizni yolg‘on degan kimsalar – do‘zax egalari bo‘lib, o‘sha joyda mangu qoluvchilardir”.

Jahiym – do‘zax. Shoir o‘zini gunohkorlardan sanab, gunohkorlarning borar joyi do‘zaxligini “bilib”, ana shu borar joyi – jahiymdan saqlashni Ollohdan so‘ragan.

Munojotning 6-baytida:

“Hama ish bizga mushkuldur saning oldingda osondur,
Ki sansan barchaning parvardigori halli mushkulho”. (Huvaydo, 1990:1).

Shoir bu baytda ham Yaratgandan panoh so‘rab iltijo qilgan. Qur’onning “Va-n-najm” surasi quyidagi oyatlarga ishora qilgan. 25-oyat: “Zero, oxirat ham, dunyo ham yolg‘iz Ollohnikidir.” 31-oyat: “Osmonlardagi va yerdagi bor narsalar yolg‘iz Ollohnikidir. U zotning O‘zi yomonlik-gunoh qilib o‘tgan kimsalarni qilgan amallari bilan jazolagay va chiroyli amal qilgan zotlarni jannat bilan mukofotlagay.” 32-oyat: “Albatta, Parvardigoringiz mag‘firati keng zotdir” (Qur’oni Karim, 1992: 385).

Munojotning 7-baytida:

“Umidim ko‘pdur la taqnatuv min rahmatillah din,
Agar chandeki noshoyista ishni aylasam barpo”. (Huvaydo, 1990:1).

“la taqnatuv min rahmatillah – Ollohning marhamatidan umid uzmangiz”.

Ushbu so‘zlar Qur’oniy kalom sanaladi. Qur’oni Karimning 53-oyatida shunday deyilgan: “(Ey Muhammad) Mening o‘z jonlariga jabr qilgan bandalarimga ayting: Allohning Rahmat-marhamatidan noumid bo‘lmangiz! Albatta, Alloh uning barcha gunohlarini mag‘firat qilur. Albatta, uning O‘zigina mag‘firatli, mehribondir”. (Qur’oni Karim, 1992: 329). Huvaydo baytga aynan shu ma’noni singdirgan. Ikkinchi misradagi “chandeki”, “noshoyista” kabi forsiy so‘zlar misralar ohangdoshligini ta’minlagan. Sakkizinchi baytda Rosulullohning buyukligi e’tirof qilingan:

“O‘shal ro‘zi qiyomatni Iloho, aylag‘il oson,
Bahaqqi sayyidil kavnayn subhanal lazi asro”

Birinchi misrada Ollohning muslimlarga “Olloh taqvo qilgan zotlarni (jannatga) erishganlari sababli (jahannam azobidan) qutqarur – ularga biror yomonlik ham yetmas va ular g‘amgin ham bo‘lmaslar” degan va’dasiga ishora qilingan bo‘lsa, ikkinchi misrada to‘laligicha arabiy jumla qo‘llangani baytning shir-u shakar usulida ekanligidan darak bermoqda. Ikkinchi misraning ma’nosi: “Ikki dunyo sayyidi Muhammad alayhissalom hurmatidan” bo‘lib, bunda Ollohning Muhammad alayhissalom hurmatidan insoniyatning gunohlaridan o‘tishi uchun mahsharda Payg‘ambar (s.a.v)ning shafoat qilishiga ishoradir.

To‘qqizinchi baytda Muhammad (s.a.v)ning payg‘ambarlik darajasi bilan insonlarga qiladigan mehribonligi va shu bilan birga qahriga ishora qilinadi:

“Nechuk baxt-saodatdur Muhammad ummatim desa,

Seningdek ummatim yo‘q, desalar faryod-u vovaylo”. (Huvaydo, 1990: 1)

“Yunus” surasining 49-oyatida esa bu fikr davom ettirilgan: “Ayting (Ey Muhammad), “men agar Olloh xohlamasa, (o‘zgalar u yoqda tursin), o‘zimga ham biron ziyon yoki foyda yetkazishga qodir emasman. (Binobarin, kelajak, g‘ayb ilmlaridan ham xabardor emasman, lekin) har bir millat avlod uchun bir ajal bordur.”

Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) ham atigi 63 yil umr ko‘rdi. Insonlar, dev-u parilar, parranda-yu darrandalar ustidan hukmronlik qilgan Sulaymon Payg‘ambar ham Ollohning hukmiga itoat qilib, uning huzuriga qaytgan. Shu kabi lavhalarni qalamga olgan Huvaydo kishi bu dunyodagi hayoti davomida ezgu ishlar qilib, narigi dunyodagi hayoti uchun savob to‘plashi lozimligini eslatgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Huvaydo hamd g‘azallarining quyidagi xususiyatlari mavjudligini aniqladik:

1. Ilohiy mavzu. Hamd g‘azali bevosita Ollohni madh qilish, uning buyukligini, rahmatini, qudratini tasvirlashga bag‘ishlangan bo‘lib, Ollohning go‘zal sifatlarini alohida ta’kidlaydi;

2. Tasavvufiy yo‘nalish. Huvaydo tasavvufga oid g‘oyalarni hamd g‘azallariga singdirib, ilohiy ishq, ruhiy poklanish, haqqa yaqinlik kabi tushunchalarni ilgari suradi;

3. Balog‘at va obrazlilik. Adib o‘z asarlarida ramziy va badiiy ifoda vositalaridan mahorat bilan foydalanadi. U Ollohning qudratini turli badiiy tasvirlar orqali ifodalaydi. Masalan, munojot g‘azalning 3-baytida quyosh nurlarining nur sochish ifodasi orqali fikr yorqinroq tasvirlangan;

4. Qur’on va hadis ta’siri. Shoirning hamd g‘azallarida Qur’on oyatlari va hadislar mazmuni o‘z aksini topgan. U ilohiy kalomdan ilhom olib, Ollohning ishlarini, sifatlarini madh etishga e’tibor qaratgan;

5. Mumtoz adabiyot an’analari. G‘azalning shakl va uslub jihatidan an’anaviyligi seziladi. Unda nido, tanosib, tazod, tashbeh, talmeh kabi she’riy san’atlardan foydalangan.

Huvaydo g‘azallarining aksariyatida Olloh zikr qilinadi. Insonlarni qalb pokligiga, Ollohni eslashga chaqiradi. Biz yuqorida keltirgan fikrlarning mazmun-mohiyati adib lirikasi mohiyatini ochishga xizmat qiladi. Huvaydoning hamd g‘azallari o‘z davrining diniy-ma’rifiy va tasavvufiy qarashlarini o‘zida mujassam etgani bilan o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Hasan Basriy rahimahulloh: “Kimki Olloh taoloni eslasa, Olloh taolo ham uni eslaydi. Kim unga shukr qilsa, u ham ne’matlarini ziyoda qiladi. Kimda-kim noshukrlik qilsa, uni azoblaydi”, - dedilar (Abdusattor I., 2024: 10).

Abu Abdulloh Muhammad ibn Havayziy “Ahkomul Qur’on” nomli kitobida quyidagi voqeani keltiradi: “Bir kishi: “Men shunday vaqtni bilamanki, u vaqt Olloh bizni eslaydi”, - dedi (Abdusattor I., 2024: 10). Odamlar qayerdan o‘rganganini so‘rashdi, u Olloh taoloning “Meni eslanglar, men ham sizlarni eslayman” oyatini o‘qidi. Olloh taoloning bizni eslashini xohlasak, unda U zotni eslaylik, shunda Robbimiz bizni ham eslaydi. Tafakkur qilib ko‘raylik, yuqoriroq lavozimdagi kishi yoki sevib, hurmat qilib yurgan ustozimiz bizni eslasa, qanday baxt! Endi Robbimizning eslashi... Banda uchun bundan ortiq baxt bormi?

Mu’oz ibn Jabal roziyallohu anhu aytadi: “Odamzodning shunday amali borki, u sabab azobdan najot topadi. U Ollohning zikridir” (Abdusattor I., 2024: 10). Ollohni zikr qilish Uning azobidan saqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, adib lirikasida badiiy san’atlarning mohirona qo‘llanganligini ko‘rish mumkin. Yuqorida tahlilga tortilgan g‘azalning Ollohga hamdligi tufayli unda iqtibos va talmeh san’atlaridan foydalanilgan. Mazkur san’atlar o‘tmish adabiyotimizda barcha ijodkorlar tomonidan qo‘llangan. Shoir har bir muslim bilishi va amal qilishi lozim bo‘lgan islomiy vazifalarni badiiy san’atlar yordamida o‘ziga xos dars uslubida o‘z muridlariga yetkazish niyatida bo‘lgan. Qur’oni Karim oyatlarining mazmun va mohiyatini ochib berish san’atiga e’tibor qilinsa, shoirdagi vatan va millat oldidagi yuksak ma’naviy va ma’rifiy mas’uliyatni va shuning bilan birga nozik badiiy-estetik ta’bni sezish mumkin.

Shoir she’riyatining tili sodda, xalq og‘zaki ijodiga xos ifodalar ko‘p qo‘llangan. “Devon”dagi she’rlarning aksariyati mumtoz adabiyotda keng tarqalgan va “turkiy” deb yuritilgan o‘zbek xalq qo‘shiqlari yaratilgan ramali musammani maqsur bahrida yozilgani buning dalilidir. “Devon”da arabcha va forscha so‘zlar nisbatan kam, so‘zlashuv uslubidagi oddiy so‘z va jumlalar, xalq maqollari va iboralar ishlatilgan. Ifodadagi soddalik va bayondagi ixchamlik shoir asarlari tilini xalq jonli tiliga juda yaqinlashtirgan. Huvaydoning tafakkuri va g‘oyaviy fikrlari payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) Ahmad Yassaviy, So‘fi Olloyor, Mashrab, Navoiy, Bobur g‘oyalari ta’sirida shakllandi.

So‘fi Olloyor va Mashrab bir davrda yashagan va har biri o‘z maslagi va qarashlariga ega bo‘lgan. Mashrab faoliyatida shariat qonun-qoidalariga rioya

qilishdan ko‘ra Ollohni sevish va Uning o‘gitlariga qalb bilan beriyo itoat etish ustuvor bo‘lsa, So‘fi Olloyor faoliyatida shariat qonun-qoidalariga qat’iy itoat etish, Ollohdan qo‘rqish va islom farzlariga beriyo amal qilish g‘oyasi bo‘rtib ko‘rinadi. Har ikkalasi birdek jamiyat tarbiyasi bilan shug‘ullangan bo‘lsalar-da, ikki qutbga mansub turli maslak targ‘ibotchilari edilar. Ular bir-birlarini chuqur hurmat qilsalar-da, maslak jihatidan kelisha olmaganlar. Huvaydo ular qoldirgan ijodiy namunalardan bahramand bo‘ldi, ularning ilgari surgan ta’limot va g‘oyalaridan ilhom oldi, uni rivojlantirishga hissa qo‘shdi. Dilorom Salohiy ta’kidicha, sharq ma’naviy tafakkuri buloqlari, adabiyoti an’analarini XV asrda Navoiy, XVI asrda Bobur, XVII-XVIII asrlarda esa Boborahim Mashrab davom ettirdi. Uning tadrijiy-tarixiy davomiyligini Huvaydo “Rohati dil”, Ibrohim Adham” kabi tasavvufiy asarlari bilan davom ettirdi.

Huvaydo she’rlariga nazar solib, ular tasavvufona, Ollohga hamd, payg‘ambarlarga na’t va insoniyat uchun foydali bo‘lgan didaktik g‘oyalarni ijodiy merosida davom ettirganligiga guvoh bo‘ldik. Uning tariqat yo‘lini tutishdan maqsadi, jannat umidi emas, balki izchil so‘fiylardek Olloh diydoriga vosil bo‘lish edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Аъзамов А. (1997) Муножотнома. Алишер Навоийнинг “Муножот” асарига шарҳлар. – Наманган.

2. Bakhtiyorovna Z. (2023). History of the Huvaydo’s works study // EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), № 9. – P. 4-7.

3. Huvaydo. Devon / Nashrga tayyorlovchi: Q. Ro‘zimatzoda. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017.

4. Huvaydo. Huvaydo Chimyoniy (toshbosma nusxa). – Buxoro.

5. Навоий, Алишер. (1993) Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик, 11-том. Садди Искандарий. – Тошкент: Фан.

6. Суйима Ғани қизи. (1991) Абадиятга назар. Алишер Навоий. Муножот. – Тошкент.

7. Todjixodjayev M. (2016) O‘zbek adabiyoti namunalari Martin Hartman tarjimasi va talqinida. – Toshkent: Bayoz.

8. Zaripova D. (2023) Khojanazar Huvaido is a major representative of Uzbek classical literature // Science and innovation, № 2. – P. 124-126.

9. Қуръони Карим. Алоуддин Мансур таржимаси. − Тошкент: Чўлпон, 1992.

10. Ғаффорова З. (2001) Навоийнинг ҳамд ва наът ғазаллари. – Тошкент: “Маънавият”.

REFERENCES:

1. A’zamov A. (1997) Munojotnoma. Alisher Navoiyning “Munojot” asariga sharhlar. – Namangan. (In Uzbek)

2. Bakhtiyorovna Z. (2023). History of the Huvaydo's works study // EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), № 9. – P. 4-7.

3. Huvaydo. Devon / Nashrga tayyorlovchi: Q. Ro'zimatzoda. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. (In Uzbek)

4. Huvaydo. Huvaydo Chimyoniy (toshbosma nusxa). – Buxoro. (In Uzbek)

5. Navoiy, Alisher. (1993) Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik, 11-tom. Saddi Iskandariy. – Toshkent: Fan. (In Uzbek)

6. Suyima G'ani qizi. (1991) Abadiyatga nazar. Alisher Navoiy. Munojot. – Toshkent. (In Uzbek)

7. Todjixodjayev M. (2016) O'zbek adabiyoti namunalari Martin Hartman tarjimasi va talqinida. – Toshkent: Bayoz. (In Uzbek)

8. Zaripova D. (2023) Khojanazar Huvaido is a major representative of Uzbek classical literature // Science and innovation, № 2. – P. 124-126.

9. Qur'oni Karim. Alouddin Mansur tarjimasi. − Toshkent: Cho'lpon, 1992. (In Uzbek)

10. G'afforova Z. (2001) Navoiyning hamd va na't g'azallari. – Toshkent: "Ma'naviyat". (In Uzbek)

SOLIH IBN MUHAMMADNING “ASH-SHUZUR AZ-ZAHABIYYA” LUG‘ATIDA BERILGAN FE’LLAR QISMINING TUZILISH PRINSIPLARI

PRINCIPLES OF THE STRUCTURE OF THE PART OF THE VERBS GIVEN IN THE DICTIONARY OF “ASH-SHUZUR AZ-ZAHABIYA” BY SALIH IBN MUHAMMAD

ПРИНЦИПЫ СТРОЕНИЯ ЧАСТИ ГЛАГОЛОВ, ПРИВЕДЕННЫХ В СЛОВАРЕ “АШ-ШУЗУР АЗ-ЗАХАБИЯ” САЛИХА ИБН МУХАММАДА

Nasirova Dildora Talibjonovna
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi tayanch doktoranti
Tel.: +998 97 749-89-66
E-mail: nasirovadildora86@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Solih ibn Muhammad tomonidan yozilgan “Ash-Shuzur az-Zahabiyya” asarining “Fe’llar” bobidagi grammatik tuzilma va tasniflash prinsiplari tahlil qilingan. Asarda turkiy fe’llarning masdar, buyruq, inkor, o‘tgan va hozirgi zamon shakllari, shuningdek, sifatdosh, bo‘lishsiz va ko‘plik shakllari arab tilidagi grammatik kategoriyalar asosida izohlangan. Muallif grammatik tahlillar orqali turkiy va arab til tizimlari o‘rtasidagi umumiylik va tafovutlarni ochib bergan. Ayniqsa, fe’l zamonlari, inkor shakllari va morfologik o‘zgarishlar borasidagi fonetik va morfologik kuzatuvlar ilmiy asosda tahlil etilgan. Maqolada qo‘lyozmaning strukturaviy tuzilishi, yozuv xususiyatlari va ayrim muhim fe’llar bo‘yicha misollar keltirilib, asarning lingvistik va leksikografik ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *Mamluk qipchoqlari, Solih ibn Muhammad, arabiy-turkiy lug‘at, “Ash-Shuzur az-Zahabiyya”, fe’l zamonlari, o‘tgan zamon shakli, hozirgi zamon shakli, fe’lning bo‘lishsiz shakli, masdarlar.*

Annotation: This article analyzes the grammatical structure and classification principles of the “Verbs” section in the work Ash-Shuzur az-Zahabiyya written by Salih ibn Muhammad. In the book, Turkic verbs in their infinitive, imperative, negative, past and present tense forms, as well as participial, negative, and plural forms, are explained based on Arabic grammatical categories. Through grammatical analysis, the author reveals the similarities and differences between the Turkic and Arabic language systems. Special attention is given to the scientific analysis of phonetic and morphological observations related to verb tenses, negative forms, and morphological changes. The article also presents examples from the manuscript’s structural organization, writing features, and selected important verbs, highlighting the linguistic and lexicographic significance of the work.

Keywords: *Mamluk Kipchaks, Salih ibn Muhammad, Arabic-Turkic dictionary, Ash-Shuzur az-Zahabiyya, verb tenses, past tense form, present tense form, negative form of the verb, infinitives.*

Аннотация: В данной статье проанализированы грамматическая структура и принципы классификации глаголов в разделе «Глаголы» произведения «Аш-Шузур аз-Захабийя», написанного Салихом ибн Мухаммадом. В труде глаголы тюркских языков представлены в формах инфинитива, повелительного наклонения, отрицания, прошедшего и настоящего времени, а также в формах причастий, отрицательных и множественных форм, и объясняются на основе грамматических категорий арабского языка. Автор с помощью грамматического анализа раскрывает общие черты и различия между тюркской и арабской языковыми системами. Особое внимание уделяется научному анализу фонетических и морфологических наблюдений, связанных с временами глаголов, отрицательными формами и морфологическими изменениями. В статье приведены примеры по структуре рукописи, особенностям письма и отдельным значимым глаголам, раскрывается лингвистическое и лексикографическое значение произведения.

Ключевые слова: *мамлюкские кипчаки, Салих ибн Мухаммад, арабско-тюркский словарь, «Аш-Шузур аз-Захабийя», времена глаголов, форма прошедшего времени, форма настоящего времени, отрицательная форма глагола, инфинитивы.*

KIRISH

Turkiy tillar lug‘atshunosligi boy tajribaga ega. Ayniqsa, o‘tmish lug‘atshunoslari o‘ziga xos lug‘at tuzish usullari, tamoyillari, so‘zlarni sharhlash uslublari jihatidan ajralib turadi. Ushbu lug‘atlarda so‘z tanlash mezonlari, so‘zning semantik tarkibiga munosabat bildirish, so‘zning ma’no qirralarini ochish kabi masalalar bo‘yicha hozirgi zamon lug‘atshunoslari uchun ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Turkiy lug‘atshunoslikda bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilganiga qaramay “Ash-Shuzur az-Zahabiyya” asari bo‘yicha bu borada o‘z yechimini topmagan masalalar hali ko‘p.

XIII-XIV asrga kelib hokimiyat tepasiga kelgan qipchoq sultonlarining mavqei tufayli Misr va Suriyada turkiy tilni o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoq yanada oshdi. Zotan, arab zodagonlarining qipchoq tilini bilishi yuksak madaniyat egasi ekanligidan dalolat qilar edi. Hattoki, arablarda “Turkiy tilni bilmagan Allohdan ham qo‘rqmaydi” degan gap ham bor edi (Dyusenov B., 2018: 75).

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Islom olami lug‘atshunoslikning vujudga kelishi va rivojlanishi uchun qulay muhit bo‘lgan. O‘rta asrlar islom sharqida arab adabiy tilining kitobiy va madaniy til

sifatida shakllanishi, arab adabiyotining shiddat bilan rivojlanishi lug‘atlar tuzish ehtiyojini tug‘dirdi. Arab tilining ilmiy til sifatida qo‘llanilishi, yozma tilning muayyan standartlarini saqlab turish, shuningdek, dialektlarni aniqlash, arab tilining yozma va og‘zaki variantlarini bir-biridan farq qilish ehtiyojlari arab lug‘atshunosligining erta yuzaga kelishini taqozo etdi (Belkin V., 1975: 164).

Misrda yuksak martabaga ega bo‘lgan mamluk qipchoqlari hayotning barcha sohalarida faoliyat ko‘rsatdilar, hattoki, o‘sha davrda ko‘plab arab olimlari qipchoq tilini o‘zlashtirib ikki tilli, uch tilli, arab-qipchoq, qipchoq-arab lug‘atlarini tuzib chiqdilar. Quyida ularning ba’zilarining nomini keltirib o‘tamiz:

- Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘otit turk”
- Mahmud Zamaxshariy “Muqaddimat ul adab” (“Adabiyotga kirish”) asari
- “Kitob-i majmu-i tarjumon-i turkiy va ajamiy va mug‘aliy va farsiy” (turk, ajam, mo‘g‘ul va forslarning tarjima izohli lug‘ati). Muallifi noma’lum.
- “Tarjuman turkiy va ajamiy va mo‘g‘aliy (va farsiy)”
- “Kitab al-idrak li lisan al Atrak” (“Turkiy til xazinalari kitobi”). Muallifi “Al Andalusiy” taxallusi bilan mashhur bo‘lgan Asiruddin Abu Hayyon Muhammad ibn Yusuf al G‘arnatiydir.
- “At-tuhfatu-z-zakiyyatu fi-l-lug‘atit turkiya” (“Turkiy til haqida noyob tuhfa”)
- “Kitab bulg‘at al mushtah fi lug‘at at turk val qipchaq” (“Turkiy va qipchoq tilini o‘rganish uchun yaxshi kitob”)
- “Al qavaniyn al-kulliya li dabt al-lug‘at at-turkiyya” (“Turkiy tilni o‘rganuvchilar uchun to‘liq qo‘llanma”)
- “Ash-Shuzur az-Zahabiyya val-qita’i al-Ahmadiyya fi lug‘at at-Turkiyya” (“Turkiy tilning oltin ro‘yxati”)

Mazkur lug‘at kitoblar ustida turli olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, g‘arb olimlaridan V. Bartold, N. Poppe va A. Borovkov, K. Brokkelmen, R. Gibb, A. Dubinskiy, sharq olimlaridan Besim Atalay, S. Bo‘ronboyev, G. Gaynuddinova, mahalliy olimlardan esa S. Mutallibov E. Fozilov, H. Boltaboyev, U. Uvatov, A. Rustamov, O‘. Qoriyev, M. Oqilov, M. Ziyayeva, Z. Islomovlar shular jumlasidandir. Yuqorida zikr etilgan qipchoq yodgorliklari ustida bir qancha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilganiga qaramay, “Ash-Shuzur az-Zahabiya” asari ustida turli izlanishlar olib borish borasida biroz sustkashlik ko‘zga ko‘rinadi. Bu esa o‘z navbatida asar ustida jiddiy tadqiqotlar o‘tkazish zaruriyatini tug‘diradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada tadqiqot usullarini statistik, tasniflash, tavsifiy, komponent tahlil, qiyosiy-tipologik, sistem-struktur va umumlashtirish usullari tashkil qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotimizning o‘rganish obyekti bo‘lmish “Ash-Shuzur az-Zahabiyya va-l-qita’i al-Ahmadiyya fi lug‘ati-t-Turkiyya” (“Turkiy tilning oltin ro‘yxati”)ning muallifi Mullo Solih ibn Muhammaddir “Ash-Shuzur az-Zahabiyya”ning turli davrlarda ko‘chirilgan qo‘lyozma nusxalari dunyoning yirik kutubxonalari, muzeylari, nufuzli universitet va qo‘lyozma fondlarida saqlanmoqda. Birgina Turkiyada ushbu qo‘lyozmaning 30dan oshiq nusxasi saqlanadi. Uning asl qo‘lyozmasi XVII asrda, taxminan 1619-yilda Misrda yozib tugatilgan, qo‘lyozma Istanbulda saqlanadi. Asar 1949-yil B. Atalay tomonidan nashr etilgan (Atalay B., 1949: 2). Uning bir qancha nusxalari turli davlatlar kutubxona fondlarida saqlanmoqda. Xususan, “Ash-Shuzur az-Zahabiyya”ning biz tadqiq qilayotgan qo‘lyozmasi jami 110 sahifa bo‘lib, mo‘tabar nusxa hisoblanadi. O‘lchami 14×21. Lug‘at maqolalari nasx xatida, arabiy qismi qora, turkiy qismi esa qizil siyohda to‘liq harakatlar bilan yozilgan. Nusxaning har bir sahifasiga 4 qatordan so‘zlar kiritilgan.

Qo‘lyozmaning Amerika Yale universitetida saqlanadigan nusxasi shartli ravishda tayanch nusxa deb olindi. Asar murakkab tuzilishga ega bo‘lib, turkolog olim B. Atalay uni quyidagi qismlarga ajratadi: muqaddima, fe’llar, ismlar, olmoshlar va turkiy tilga arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar.

Lug‘atning birinchi bobi “Fe’llar bobi” bo‘lib, u o‘z navbatida sakkiz faslga ajratilgan:

Birinchi fasl: فى بيان المصدر – fi bayānil masdar – (Masdarlar)

Ikkinchi fasl: فى بيان الامر – fi bayānil amr – (Buyruq mayli)

Uchinchi fasl: فى بيان النهي – fi bayānin nahī – (Fe’lning inkor shakli)

To‘rtinchi fasl: فى بيان الماضي – fi bayānil mādī – (O‘tgan zamon shakli)

Beshinchi fasl: فى بيان المضارع – fi bayānil mudāri’– (Hozirgi-kelasi zamon shakli)

Oltinchi fasl: في بيان الاسم الفاعل – fi bayānil ismil fail – (Fe’lning aniq daraja sifatdosh shakli)

Yettinchi fasl: فى بيان النفي – fi bayānin nafī – (Fe’lning bo‘lishsiz shakli)

Sakkizinchi fasl: فى بيان الجمع – fi bayānil jam’i – (Fe’lning ko‘plik shakli)

Birinchi fasl فى بيان المصدر – fi bayānil masdar – “masdarlar” fasli jami 133 ta lug‘at maqolasidan iborat. Mazkur bob العلم – al-ilmu – بلمك – bilmak (bilmoq) so‘zi bilan boshlanib, الاستراحة – al-istirāha – دكلنمك diglanmak (dam olmoq) so‘zi bilan tugaydi.

فى بيان الامر – fi bayānil amr – *ikkinchi fasl*, fe’lning buyruq mayli fasliga jami 149 ta so‘zlik kiritilgan. اعلمْ – i’lam, بل – bil (bil) so‘zi bilan boshlanib, ذمْ – δam, كس – (tuhmat qil, aybla) so‘zi bilan tugaydi. Ushbu bobni fe’llarning ma’nosiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘lish mumkin:

Aqliy faoliyat fe’llari:

العلم – al-ilmu, بلمك – bilmak (bilmoq)

الفهم – al-fahmu, اكلمك – aŋlamak (fahmlamoq)
التعليم – at-ta’līmu, اوكرنمك – öğrenmek (o‘rganmoq)
القراءة – al-qirāatu, اوقومق – o‘qimaq (o‘qimoq)
Jismoniy faoliyat fe’llari:
الكتابة – al-kitābatu, يازمق – yazmaq (yozmoq)
المجيء – al-majī’u, كلمك – kelmäk (kelmoq)
القطع – al-qat’u, كسمك – kesmak (kesmoq)
الضرب – ad-dorbu, ورمق – vurmaq (urmoq)
الرمي – ar-romyu, اطمق – atmaq (otmoq)
Nutqiy faoliyat fe’llari:
الكلام – al-kalāmu, سويلمك – soylamak (gapirmoq)
القول – al-qovlu, ديمك – demak (aytmoq)
Holat fe’llari:
الضحك – ad-doxku, كولمك – kulmak (kulmoq)
البكاء – al-bukāu, اغلمق – ağlamaq (yig‘lamoq)
الخوف – al-xovfu, كركمك – korkmak (qo‘rqmoq)
Ko‘rish fe’llari:
النّظر – an-nazru, بقمق – baqmaq (qaramoq, nazar solmoq)
الرؤية – ar-ru’yatu, كورمك – kurmak (ko‘rmoq)

Uchinchi fasl فى بيان النهي – fi bayānin nahī – (fe’lning inkor shakli) bo‘lib, jami 150 ta so‘zlik kiritilgan. لا تعلم – la ta’lam, بلمه – bilma (bilma) so‘zi bilan boshlanib, لا تحبب – lā tahbub, Muallif fe’lning inkor shakli yasalishini quyidagicha izohlaydi:

اذا جرت الكلمة من علامة المصدر فلا يخلو من ان تكون ساكنة اولى تبقى على حالها و الثانية لا تخلوا من ان تكون مفتوحة او مضمومة او مكسورة. فان كانت مضمومة يلحق اخرها واوا او ياء و المكسورة يلحق اخرها السكون بيل اعلم و للمضموم ياقو اقرا و للمفتوحة و المكسورة اكله افهم و يه كل. الباب الثالث فى النهي. فى التركي كل الكلمة باخرها لفظه مه تابعة التجريد من علامة المصدر و هى مك او مق فيكون المجموع هنا نهيا حاضرا للمفرد مثاله من اول المصادر.

Ya’ni, agar so‘z masdar ko‘rinishida bo‘lsa, bu holda u quyidagi holatlardan birida bo‘ladi:

Birinchi harfi sukunli bo‘lib qoladi, ikkinchi harf esa fatḥa, ḍamma yoki kasra bo‘lishi mumkin. Agar bu harf ḍamma bilan kelgan bo‘lsa, unda oxiriga *vov* yoki *ya* qo‘shiladi: masalan, “بيل” (bil) – “bil” degan ma’no, “ياقو” (yaqu) – “o‘qiyapti”. Agar bu harf fatha yoki kasra bo‘lsa, oxiriga sukun (ya’ni, harakatsiz holat) qo‘shiladi: “اكله” (akla) – “ye”, “افهم” (ifham) – “tushun”, “كل” (kul) – “ye”. Uchinchi bob buyruq maylining inkor shakli haqidadir. Turkiy tilda buyruq maylining bo‘lishsizlik shakli, so‘zning oxiridan harakat nomi qo‘shimchasi مق – maq va مك – mak tushirib yuborib, uning o‘rniga birlikdagi son uchun مه (ma) qo‘yish bilan yasaladi. Bunga masdarning boshidan misol keltiriladi.

To‘rtinchi fasl فی بیان الماضی – fī bayānil mādī (fe’lning o‘tgan zamon shakli) deb nomlanadi. Bu faslga jami 157 maqola kiritilgan. Boshlanishi علم – a’lima, بلدی – bildi (bildi), oxiri مدح – madaha, اوکدی – ug‘dï (maqtadi). Mazkur faslni muallif quyidagicha sharhlaydi:

فی الترکی کل الکلمة الحق باخرها دال مکسوره بعد التجرید من علامة المصدر و انّ شئت قل یلحق بالکلمة التی علی صورة الامر دال مکسوره تیولد من کسرة الدال یا فیکون المجموع فعلا ماضیا مسندا للمفرد الغائب مثاله

Ya’ni, turkiy tilda masdarlik alomatidan soqit bo‘lgan har qanday so‘zga kasrali “د” (dal) qo‘shiladi yoki boshqacha aytganda buyruq shaklida bo‘lgan so‘zga kasrali “د” qo‘shiladi. Bu “د” harfining kasrasi tufayli “ya” harfi paydo bo‘ladi va hosil bo‘lgan shakl uchinchi shaxs birlikdagi o‘tgan zamon fe’liga aylanadi.

دقیقه متی کان اواخر الکلمة جیما او شینا او قافا او طاء او تاء او یاء او کافا عربیه حال السکون تقلب دال الماضی تا و تدغم فی التاء و الطاء و انما مثلت لك الامثلة کلها بالدال لتعرف و تستیقظ للمواضع و الموارد التی تقلب فیها الدال و هکذا امثلتها : شرب ایجدی اکل یدی حرق یقدی انضجع یطدی حلب صغدی. انظر الی قول الجزری لفظ اجد قط بکت و هذه نفائس درر و نتائج فکر سحب تتبع الاثر .

Ma’nosi: Agar so‘z oxiri jim (ج), shin (ش), qof (ق), to (ط), ta (ت), ya (ي), yoki kaf (ك) bo‘lsa, va bu harflar arabcha so‘zlarda sukun holatida bo‘lsa, u holda o‘tgan zamon fe’lining “dal” harfi “to‘” harfiga aylanadi va “to” yoki “ta” harflariga qo‘shilganda idg‘om (qo‘shilish) yuz beradi. Men barcha misollarni “dal” harfi bilan keltirdim, shuning uchunki, sen dalning qayerda o‘zgarishini anglab olishing va hushyor bo‘lishing uchun. Bu kabi misollar quyidagilardir:

- شرب (ichdi) → ایجدی (u ichdi)
- اکل (yedi) → یدی (u yedi)
- حرق (yoqdi) → یقدی (u yoqdi)
- انضجع (yotdi) → یطدی (u yotdi)
- حلب (sog‘di) → صغدی (u sog‘di)

Imom Jazariyning ushbu iborasiga e’tibor qaratamiz: اِجْدِ قَطْ بَكَتْ. Matn muallifi ushbu til qonuniyatlarini “ilmiy mulohaza”, “kuzatuv”, “durdona xulosalar” deb e’tirof etmoqda. Bu, muallif o‘z ishini chuqur lingvistik kuzatuvga asoslaganini bildiradi. Bu ibora arab tilida, turkiy so‘zlarni talaffuz qilishga qaratilgan fonetik mashq yoki namunaviy transkripsiya bo‘lib, talaffuzdagi qiyinchiliklarga e’tibor qaratilgan.

Beshinchi fasl فی بیان المضارع – fī bayānil mudāri’ (fe’lning hozirgi-kelasi zamon shakli) bo‘lib, jami 159 ta so‘zlikdan iborat. Boshlanishi یعلم – ya’lamu, بلر – bilur (biladi), oxiri یذم – yazummu, سوکر – sokar (so‘kadi, haqorat qiladi).

Oltinchi fasl فی بیان اسم الفاعل – fī bayāni ismil fail (aniq daraja sifatdosh shakli) deb nomlanadi va 154 ta fe’lni o‘z ichiga olgan. Mazkur fasl عالم – ālim, بلجی – bïluji (biluvchi, olim) so‘zi bilan boshlanib, ذامم – δāmim, سکجی – sokuji (so‘kinuvchi kishi) so‘zi bilan tugaydi. Mazkur fasl quyidagi grammatik izoh bilan boshlanadi:

فى التركى كل كلمة جردت من علامة المصدر و صارت على صورة الامر و الحق باخرها لفظه جى و تكون اسم الفاعل للمفرد مثاله – ya’ni, turkiy tilda masdar alomatidan holi bo‘lgan har bir so‘z buyruq shaklga aylanadi va shu so‘zning oxiriga “ji” qo‘shimchasi qo‘shiladi, natijada birlikdagi son uchun aniq darajali sifatdosh hosil bo‘ladi.

Yettinchi fasl فى بيان علامة النفى – fī bayāni a’lāmatin nafī (fe’lning bo‘lishsiz shakli). Boshlanishi quyidagicha:

فى التركى هي لا تخلوا من ان يكون فى المشتاقات اولا و الثانية تذكر ركن الثالث و الاولى ان كانت فى الماضى او المضارع او غيره هي لفظه ما و لكن تحذف الفها فى الماضى و غيره و علامة نفيها فى الماضى ان تكون قبل الدال المكسورة التى هي علامة الماضى مثاله ما علم بلمدى ما فهم اكلمدى ما تعلم اوكرنمدى ما قرأ اوقومدى ما كتب يزمدى و هكذا و اما علامة نفيها فى المضارع ما المحذوفة الالف تحل الرا التى هي علامة المضارع بعد ان يلحق بها زاى ساكنه فيكون نفيها للمضارع المسند للغائب و الى اصل ان علامة نفى المضارع هي لفظه من مثاله ما يعلم بلمز ما يفهم اكلمز ما يتعلم اوكرنمز ما يقرا اوقومز ما يكتب يزمز و هكذا الى اخره و علامة نفيها فى المصدر هي لفظه ما المذكوره ان تكون قبل علامة المصدر و هي مك او مق و مثاله عدم العلم بلممك عدم الفهم اكلممك عدم التعليم اوكرنممك عدم القراءة اوقوممق عدم الكتابة يزممك و هكذا الى اخره.

Ma’nosi: Turkiy tilda inkor shakllari hosila fe’llarda (ya’ni zamon va shaxs belgilovchi shakllarda) ikki jihatdan ko‘rinadi.

Birinchisi – o‘tgan zamonda, ikkinchisi – hozirgi zamonda, va uchinchisi – masdar shaklida.

Bu hollarda inkor “ما” (ma) so‘zi orqali ifodalanadi. Ammo u o‘zgarib, ba’zida qisqaradi yoki harflar tushiriladi.

1. O‘tgan zamon inkor shakli:

“ما” inkor yuklamasi ishlatiladi. O‘tgan zamonni bildiruvchi dal (دى) qo‘shimchasidan oldin keladi. Bunda “ما” so‘zining alifi (ا) tushadi, ya’ni “ma” deb yozilsa-da, talaffuzda “m” shaklida qoladi.

Misollar:

- ما علم بلمدى → u bilmagan
- ما فهم اكلمدى → u tushunmagan
- ما تعلم اوكرنمدى → u o‘rganmagan
- ما قرأ اوقومدى → u o‘qimagan
- ما كتب يزمدى → u yozmagan

Bu misollarda muallif tomonidan arabcha so‘zlar (علم، فهم...) o‘sha davrda mavjud turkiy tildagi fe’llar (bil-, angla-, o‘rgan-) bilan mohirona tarzda qiyosiy tahlil qilinganligini ko‘rish mumkin.

2. Hozirgi zamon (mudori’) inkor shakli:

Bu holatda ham “ما” ishlatiladi, ammo alifi (ا) olib tashlanadi, so‘ngra zamonni bildiruvchi ro (ر) harfi bilan birgalikda sukunli “za” (ز) harfi qo‘shiladi.

Shu tarzda fe’lning hozirgi zamondagi inkor shakli hosil bo‘ladi. Bu shakl shaxs qo‘shimchalarisiz III-shaxs birlik (u) uchun keltirilmoqda.

Misollar:

- ما يعلم بلمز → u bilmaydi
- ما يفهم اكلمز → u tushunmaydi
- ما يتعلم اوكرنمز → u o‘rganmaydi
- ما يقرأ اوقومز → u o‘qimaydi
- ما يكتب يزمز → u yozmaydi

Izoh: “-maz” qo‘shimchasi turk tilida inkor hozirgi zamonni bildiradi. “bilmaz” – u bilmaydi.

3. Masdar (ismiy) shaklda inkor:

Masdarda inkor ham “ما” orqali amalga oshiriladi, va bu yuklama masdar yasovchi qo‘shimcha “-mak / -mek” qo‘shimchalaridan avval keladi.

Misollar:

- عدم العلم بلممك → bilmaslik
- عدم الفهم اكلممك → tushunmaslik
- عدم التعليم اوكرنممك → o‘rganmaslik
- عدم القراءة اوقوممق → o‘qimaslik
- عدم الكتابة يزممك → yozmaslik

Izoh: Bu shakllarda “عدم” (yo‘qlik, mavjud emaslik) arabcha konsepsiyaga tayangan bo‘lib, “bilmaslik”, “tushunmaslik” kabi mazmunga ega.

Yuqoridagi matnda turkiy tildagi inkor shakllarning o‘tgan zamon, hozirgi zamon va masdar shaklida qanday tuzilishini arabcha tahlil asosida ko‘rsatadi. Arab tilining grammatik tahlil uslubi bilan turkiy tilning zamon va inkor tizimi tushuntirilgan. Har bir inkor shakli “ma” negizidan o‘sib chiqadi, lekin fonetik va morfologik o‘zgarishlar tufayli u turlicha o‘zgarishlarga uchraydi.

Sakkizinchi fasl فى بيان علامة الجمع – fī bayāni a’lāmatil jam’ (ko‘plik shaklining alomatlari). Mazkur fasl turkiy tilda ko‘plik shaklining yasalish usullariga bag‘ishlanadi, bunday grammatik holat juda sodda, tushunarli misollar bilan to‘ldirilgan. Fasl shunday boshlanadi:

الجمع فى التركى هي لفظه لر اعلم ان لفظة الجمع لغير المخاطب مطلقا و قولى مطلقا سواء كان فى الافعال او فى الاسماء و سواء كان للمثنى و للجمع مذكرا كان او مؤنثا . تنبيه لا فرق فى اللغة التركية بين المذكر و المؤنث و لا بين المثنى و الجمع و انما يعلم ذلك بقرينة حالية او مقالية و اما علامة الجمع حالة اسناد الفعل فى الماضى العلامة الثانية حالة اسناد الفعل المضارع العلامة الثالثة حاله اضافة الاسماء اليه و معه غيره العلامة الرابعة منفصله و يذكر فى هذا الباب العلامة الاوليان و تذكر الاخيرتان فى الركن الثالث فى بيان الاضافة و بيان الضمائر المنفصلة ان شاء الله تعالى و اما علامة الجمع المخاطب اثنتان مطلقا و هما الفظة كر يعنى كافا عجميه و بعدها زاى ساكنه لفظة سز علامة الجمع للمخاطب فى الفعل الماضى مثبتا كان او منفيا و تكون علامة الجمع ايضاله فى الاضافة اليه و سيظهر هذا فى الركن الثالث و لفظة من علامة الجمع فى المضارع مثبتا كان او منفيا و تكون علامة الجمع ايضاله فى الضمائر المنفصلة كما سنبين ان شاء الله تعالى فى الركن الثالث ايضا.

Ya’ni, turkiy tilda ko‘plikni bildiruvchi affiks “-lar” so‘zidir. Bilki, bu jamlik qo‘shimchasi har qanday 3-shaxsdagi kishi uchun ishlatiladi va men “har qanday”

deganimda, bu – fe’l bo‘ladimi yoki ism bo‘ladimi, ikki kishilik (tasniya) bo‘ladimi yoki ko‘plik, erkak bo‘ladimi yoki ayol – farq qilmasligini nazarda tutdim.

Ma’lumki, turkiy tilda erkak va ayol jinsi o‘rtasida farq yo‘q, shuningdek ikkilik (tasniya) va ko‘plik o‘rtasida ham grammatik farq mavjud emas. Bular faqat nutqdagi kontekst orqali aniqlanadi – ya’ni voqea sharoitidan yoki aytilgan gapdan.

Ko‘plik affikslarining grammatik vazifalari:

Ko‘plik affiksi (ya’ni -lar/-ler) turli sintaktik va morfologik holatlarda quyidagicha namoyon bo‘ladi:

1. O‘tgan zamon fe’llariga qo‘shilganda – birinchi alomat;
2. Hozirgi zamon (mudori’) fe’llarida – ikkinchi alomat;
3. Ismlarga boshqa so‘zlar qo‘shilganda (izofa holatida) – uchinchi alomat;
4. Alohida holatda ishlatilgan zamirlar (mustaqil zamirlar)da – to‘rtinchi alomat.

Eslatma: Ushbu bobda birinchi va ikkinchi alomatlar (ya’ni fe’l zamonlarida ko‘plik) bayon qilinadi, uchinchi va to‘rtinchi alomatlar esa – uchinchi bobda “egalik” va “ajratib yoziluvchi olmoshlar” haqida so‘z borganda keltiriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

“Ash-Shuzur az-Zahabiyya” asari o‘zining tilshunoslikdagi o‘rni, grammatik tasnifi va leksik boyligi bilan arab tilshunosligi va turkiy tillararo aloqalar tarixini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Solih ibn Muhammad ushbu asar orqali turkiy tillardagi fe’l shakllarini arab grammatikasi asosida tahlil qilgan, bu esa o‘z navbatida ikki til tizimi o‘rtasidagi morfologik va sintaktik tafovut hamda o‘xshashliklarni aniqlash imkonini beradi. Asarda taqdim etilgan sakkiz fasl orqali masdar, buyruq, inkor, zamon, sifatdosh, bo‘lishsiz va ko‘plik shakllarining izchil yoritilishi turkiy til grammatikasining arab til tizimi doirasida mukammal tasvirlanishiga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot bo‘yicha quyidagi takliflar bildiriladi:

1. “Ash-Shuzur az-Zahabiyya” asarining zamonaviy ilmiy-tanqidiy nashri tayyorlanishi kerak. Qo‘lyozma asosidagi tanqidiy matn, lug‘at maqolalarining morfologik tahlili bilan birga tahliliy izohlar bilan nashr qilinishi tilshunoslar va tarixchilar uchun muhim manba bo‘ladi;
2. Asardagi arabcha izohlar va turkiy fe’llarning fonetik shakllari bo‘yicha korpusli tadqiqotlar olib borilishi lozim. Bu orqali fonetik o‘zgarishlar, talaffuzdagi tafovutlar va grammatik mantiqni tizimli tarzda o‘rganish mumkin;
3. Mazkur lug‘atdagi fe’llarni zamonaviy turk, o‘zbek, qirg‘iz, ozarbayjon, uyg‘ur va boshqa turkiy tillar bilan qiyoslash orqali tarixiy taraqqiyotdagi o‘xshashlik va farqlar aniqlanishi kerak;
4. Multimodal ilmiy tadqiqotlar (matn, fonetika, grafik ko‘rinishlar, elektron korpuslar) vositasida asarning yangi shakllari ishlab chiqilishi, zamonaviy til texnologiyalariga integratsiya qilinishi maqsadga muvofiq;

5. O‘zbekiston va boshqa turkiy davlatlar oliy ta’lim muassasalarida turkiy til tarixi, lug‘atshunoslik, va arab-turkiy til aloqalari fanlarida mazkur asardan darslik yoki qo‘llanma sifatida foydalanishni tavsiya qilish mumkin.

Yuqoridagi tahlillar turkiy tilning grammatik tuzilishini arab tilidagi klassik grammatik metodologiya asosida o‘rganish, qiyosiy tilshunoslikda samarali ilmiy yondashuv sifatida foydalanish mumkinligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. A. Меметов, И. Меметов, (2020). Тюркские лексикографические работы XI–XIV веков, относящиеся к развитию востоковедения в Крыму // Филология: научные исследования, № 1.

2. Ash-Shuzur az-Zahabiyya. Amerika Yale universiteti fondi xazinasi, inv. № 17466222. (Arab tilida)

3. Atalay B. (1949). Eş-Şüzûr-üz-Zehebiyye vel-Kitai’l-Ahmediyye fil-Lûgat-it-Türkiyye. – İstanbul: Üçler Basımevi.

4. Белкин В. (1975). Арабская лексикология. – Москва: Изд-во Московского университета.

5. Дюсенов Б. (2018). Сравнительно-историческое, типологическое и сопоставительное языкознание // Синергия, № 6.

6. Mutallibov S. (1968). At-Tuhfatu az-Zakiyyatu. – Toshkent: Fan.

7. Rustamov A. (2007). Qadimgi turkiy tilda fe’l shakllari va ularning funksiyalari // Filologiya masalalari jurnali, № 3. – B. 45–53.

8. Sodiqov Q. (2009). Turkiy til tarixi. – Toshkent.

9. Umarov E. (1992). Eski o‘zbek lug‘atlari. – Toshkent: O‘zFA Tilshunoslik instituti.

10. G‘. Abdurahmonov, A. Rustamov. (1982). Qadimgi turkiy til. – Toshkent: O‘qituvchi.

REFERENCES:

1. A. Memetov, I. Memetov, (2020). Tyurkskie leksikograficheskie raboti XI–XIV vekov, otnosyashiesya k razvitiyu vostokovedeniya v Krimu // Filologiya: nauchnie issledovaniya, № 1. (In Russian)

2. Ash-Shuzur az-Zahabiyya. Amerika Yale universiteti fondi xazinasi, inv. № 17466222. (In Arabic)

3. Atalay B. (1949). Eş-Şüzûr-üz-Zehebiyye vel-Kitai’l-Ahmediyye fil-Lûgat-it-Türkiyye. – İstanbul: Üçler Basımevi. (In Turkish)

4. Belkin V. (1975). Arabskaya leksikologiya. – Moskva: Izd-vo Moskovskogo universiteta. (In Russian)

5. Dyusenov B. (2018). Sravnitelno-istoricheskoe, tipologicheskoe i sopostavitelnoe yazikoznanie // Sinergiya, № 6. (In Russian)

6. Mutallibov S. (1968). At-Tuhfatu az-Zakiyyatu. – Toshkent: Fan. (In Uzbek)

7. Rustamov A. (2007). Qadimgi turkiy tilda fe’l shakllari va ularning funksiyalari // Filologiya masalalari jurnali, № 3. – B. 45–53. (In Uzbek)

8. Sodiqov Q. (2009). Turkiy til tarixi. – Toshkent. (In Uzbek)

9. Umarov E. (1992). Eski o‘zbek lug‘atlari. – Toshkent: O‘zFA Tilshunoslik instituti. (In Uzbek)

10. G‘. Abdurahmonov, A. Rustamov. (1982). Qadimgi turkiy til. – Toshkent: O‘qituvchi. (In Uzbek)

ARAB MAQOL VA MATALLARINING O‘RGANILISH TARIXI
THE HISTORY OF STUDYING ARABIC PROVERBS AND SAYINGS
ИСТОРИЯ ИЗУЧЕНИЯ АРАБСКИХ ПОСЛОВИЦ И ПОГОВОРОК

Abdullayeva Shaxnoza Baxodir qizi
Oriental Universiteti
Sharq tillari kafedrasi o‘qituvchisi
Tel.: +998 99 228-04-42
E-mail: Mumtoz1990@bk.ru

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola arab maqol–matallarining o‘rganilish tarixini atroflicha yoritishga bag‘ishlangan. Maqollar, matallar, aforizmlar va frazeologik birliklar folklorning kichik janrlari sifatida umumiy tushuncha o‘laroq paremiyalar deb ataladi va xalq og‘zaki ijodida muhim o‘rin tutadi. Maqolada arab maqol–matallarining o‘rganilishiga ta’sir ko‘rsatgan ilmiy izlanishlar, adabiy asarlar va tarixiy manbalar tahlil qilinadi. Arab maqollarini o‘rganishga katta hissa qo‘shgan Yevropa mamlakatlari, Arabiston, Rossiya va O‘zbekistondagi olimlarning asarlari haqida batafsil ma’lumot berilgan. Shuningdek, ushbu sohadagi tadqiqotlarning metodologiyasi, ularning madaniy va ijtimoiy ahamiyati ham ko‘rib chiqiladi. Maqola arab paremiologiyasining rivojlanish yo‘llarini ochib berish bilan birga, kelajakdagi tadqiqotlar uchun yo‘nalishlarni belgilaydi.

Kalit so‘zlar: *xalq og‘zaki ijodi, folklor, janr, maqol, estetik vazifa, kompozitsiya, ekspressivlik.*

Annotation: This scientific article is dedicated to comprehensively exploring the history of studying Arabic proverbs and sayings. Proverbs, sayings, aphorisms, and phraseological units, as small genres of folklore, are collectively referred to as paremiology and hold a significant place in oral folk traditions. The article analyzes scholarly research, literary works, and historical sources that have influenced the study of Arabic proverbs. It provides detailed information about the contributions of scholars from European countries, the Arab world, Russia, and Uzbekistan to the study of Arabic proverbs. Additionally, the methodology of these studies and their cultural and social significance are examined. The article highlights the development paths of Arabic paremiology and outlines directions for future research.

Keywords: *folk oral creativity, folklore, genre, proverbs, aesthetic function, composition, expressiveness.*

Аннотация: Данная научная статья посвящена всестороннему освещению истории изучения арабских пословиц и поговорок. Пословицы, поговорки, афоризмы и фразеологические единицы, как малые жанры фольклора,

объединяются под общим термином «паремиология» и занимают важное место в устном народном творчестве. В статье анализируются научные исследования, литературные произведения и исторические источники, повлиявшие на изучение арабских пословиц. Приводятся подробные сведения о вкладе ученых из европейских стран, арабского мира, России и Узбекистана в исследование арабских пословиц. Также рассматриваются методология этих исследований и их культурное и социальное значение. Статья раскрывает пути развития арабской паремиологии и определяет направления для будущих исследований.

Ключевые слова: *устное народное творчество, фольклор, жанр, пословицы, эстетическая функция, композиция, выразительность.*

KIRISH

Maqollar xalq og‘zaki ijodining turg‘un janrlari sirasiga kiradi. Maqol va matallarning kelib chiqishi va rivojlanishi qadim davrdan beri davom etib kelayotgan jarayondir. Xalqning donoligi va ruhi uning maqollari va matallarida namoyon bo‘ladi va ularning bilimlari nafaqat tilni chuqurroq bilishga, balki insonlarning fikrlash tarzi va xarakterini tushunishga yordam beradi. Maqol va matallarda xalqning boy tarixiy tajribasi, mehnat faoliyati, insonlarning hayoti va madaniyati bilan bog‘liq g‘oyalar aks ettirilgan. Maqol va matallardan to‘g‘ri foydalanish nutqqa o‘ziga xos ekspressivlikni beradi. Maqol va matallar arab xalq og‘zaki ijodi paydo bo‘lganidan beri olimlarda qiziqish uyg‘otgan. Maqollar necha ming yillardan beri barcha xalqlar, ayniqsa, sharq xalqlari orzu-umidini ifoda etib kelgan va bu ko‘p yillardan beri o‘rganib kelinmoqda. Xususan, Yevropa, Arabiston, Rossiya va, xossatan, O‘zbekistonda va boshqa mamlakatlar olimlarida azaldan qiziqish va tahlil obyekti bo‘lgan. Natijada mumtoz arab maqollarini yig‘ishga va o‘rganishga bag‘ishlangan adabiyotlar paydo bo‘ldi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Arab folklorini o‘rganishning ilk bosqichi (VIII–XII asrlar)da arab filologlari, asosan, xalq maqollarini yig‘ishga, to‘plashga harakat qilishgan. O‘sha davrlarda arab xalq og‘zaki ijodining eng ommaviy janri maqol hisoblangan. VIII–XII asrlarda arab xalq maqollarini to‘plab tavsiflash hamda alohida majmualar holida umumlashtirishga diqqat qilingan. Bu davrda turli mualliflarning sa’y-harakatlari bilan 44 ta arab maqollari to‘plamlari tuzilgan bo‘lib, shundan bizgacha atigi 14 tasi saqlanib qolgan, xolos (Shomusarov Sh., 1998: 6).

Arab maqollari va matallarini o‘rganish tarixi milodiy 800-yillardan boshlanadi. Mashhur nemis tadqiqotchisi Karl Brokelman bu haqda shunday yozgan edi: “Maqol va matallar arab adabiyoti paydo bo‘lganidan beri olimlarning qiziqishini uyg‘otdi, tarixchilar va filologlar bir-biri bilan raqobatlashdilar, ularni to‘pladilar va tushuntirdilar” (Brill E., 1936: 408). VIII–XI asrlarda Abbosiylar xalifaligidagi Kufa va Basra ilmiy markazlarida Johiz davri arab maqollari va matallariga qiziqish ortdi.

Arab maqol-matallarini Yevropa ilmida o‘rganish XVII asrning oxiri XIX asrning birinchi yarmida boshlangan bo‘lib, arab shevalarini tadqiq etish an’anasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Xususan, V. Spittabey va Y. Rossining arab shevalariga oid tadqiqotlariga ilova tarzida maqol, latifa, xalq qo‘shiqlari chop etilgan. Keyinchalik G. Spittabey, X Stumme, S. Langber, J. Oestrup va boshqa tadqiqotchilar arab folklorining ertak va maqol janriga oid materiallarni to‘plash bilan maxsus shug‘ullanganlar. Ammo bu olimlar o‘zlari yozib olgan maqollarni tilshunoslik jihatidan tahlil etganlar, folkloristik nuqtai nazardan baho bermaganlar (Shomusarov Sh., 1998: 7). Angliyada 1938-yilda Selwyn Gurney Champion tomonidan nashr etilgan “Racial Provebs” kitobida dunyoning turli xalqlariga tegishli maqollar til bo‘yicha tasniflangan va 27 ta davlat hamda etnik guruhlarning maqollariga oid izohlar berilgan. Ushbu kitobning 329–344-sahifalarida arab xalqiga oid maqollar yig‘ilgan (Champion S., 1950). Fransiyada XIX asr va XX asr boshlarida bu sohadagi eng yaxshi ishlardan biri sifatida Landbergning “Arab xalqining maqollari va iboralari” to‘plami hisoblanadi (Крачковский И., 1955: 315-316). Asar katta etnografik ahamiyatga ega bo‘lib, o‘z vaqtida arab shevashunosligi davrlarini belgilab bergan. Bu asar lug‘atni o‘z ichiga oladi. U kitobga kiritilgan matnlarning katta tanlovi tufayli nafaqat unda to‘plangan materiallarni, balki umuman Suriyaning og‘zaki tilini o‘rganishda ko‘p yordam beradi (Landberg S., 1883).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada arab maqol-matallarining o‘rganilish tarixi oddiy va tushunarli tarzda tahlil qilindi. Tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar o‘rganilib, Yevropa, Arabiston, Rossiya va O‘zbekiston olimlarining ishlari solishtirildi. Maqollarning madaniy va ijtimoiy ahamiyati tahlil qilinib, asosiy manbalar tizimlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Anis Freyhahning “Modern Lebanese Proverbs, collected at Ras al-Matn, Lebanon” (Frayha A., 1953) kitobi 1953-yilda American University of Beirut tomonidan nashr qilingan. Ushbu kitobda Livan xalq maqollari to‘plangan, sharhlangan va ingliz tiliga tarjima qilingan. U ikki jilddan iborat bo‘lib, Livanning Ras al-Matn qishlog‘idagi maqollarni yig‘ish va saqlash maqsadida yozilgan. Muallif dastlab Livan xalq og‘zaki ijodini, jumladan bolalar qo‘shiqlari to‘plashni maqsad qilgan, lekin keyinchalik maqollarni jamlashga alohida e’tibor bergan. Freyhah bu maqollarni Suriya, Falastin, Iroq va Iordaniyadan kelgan olimlarning to‘plamlari bilan solishtirgan. Natijada, Livanning tog‘li hududlarida ishlatiladigan maqollar butun arab dunyosida ham tanish bo‘lishi aniqlangan. Kitobda maqollarni ingliz tiliga tarjima qilishda, iloji boricha so‘zma-so‘z tarjima berilgan. Lekin ayrim hollarda g‘arb o‘quvchilariga tushunarli bo‘lishi uchun erkin tarjimalar ham ishlatilgan. Maqollarning

arabcha yozuvi to‘liq harakat bilan berilgan bo‘lsa-da, fonetik farqlarni aks ettirish uchun transliteratsiya qilinmagan.

Germaniyada D. F. Goiteinning “Jemenica: Sprichwörter und Redensartenaus Zentral-Jemen” kitobi 1934-yilda Leipzigda nashr etilgan va 1970-yil 1-yanvarda qayta chop etilgan. Bu yamanlik yahudiylar orasida qo‘llaniladigan arabcha maqollar to‘plami bo‘lib, to‘plangan maqollar soni 1432 tani tashkil etadi. Kitobda markaziy Yamandagi maqollar va iboralar yig‘ilgan bo‘lib, ularning ma’nolari va kontekstlari tushuntirilgan. Nemis va arab tillarida yozilgan ushbu kitobda Yaman maqollarining madaniy va lingvistik tahlili berilgan (Goitein D., 1934).

Parijda Mohamed Ben Cheneb (1869–1929) tomonidan yozilgan “Proverbes de l’Algérie et du Maghreb” (Jazoir va Mag‘rib maqollari) kitobi arab maqollari haqida muhim manbalardan biri hisoblanadi. Kitob dastlab 1905-yilda Parijda E. Leroux nashriyotida chop etilgan. Unda, asosan, Jazoir, Marokash va Tunis hududlarida ishlatiladigan arab maqollari keltirilgan. Kitobning 2013-yilgi qayta nashrida maqollar arab tilida berilib, fransuz tiliga tarjimasi ham qo‘shilgan. Umumiy hajmi 700 betdan iborat bo‘lib, unda turli mavzulardagi arab maqollari jamlangan va ularning mintaqaviy xususiyatlari tahlil qilingan (Ben Cheneb M., 1905-1907).

Parij shahrida Bruno Z. tomonidan Hespéris jurnalida 1928-yilda chop etilgan “Proverbes et dictons arabes de Rabat” (Rabotdan arab maqollari va matallari) maqolada Marokashning Rabat shahridagi arab maqollari va xalq iboralari haqida ma’lumot berilgan. U maqollarning kelib chiqishi, ularning jamiyatdagi o‘rni va ma’nolarini tahlil qiladi. Tadqiqotda Rabat mintaqasidagi arab shevalari va ularning iboralarga ta’siri ham o‘rganilgan (Brunot Z., 1928). XX asrda, xususan, bu asrning ikkinchi yarmidan boshlab uzoq vaqt turg‘unlik davridan so‘ng arab davlatlarida qaytadan arab xalq og‘zaki ijodiga bo‘lgan e’tibor kuchaydi.

Arab mamlakatlarida xalqning maqol va matallarga munosabati, qiziqishi hurmatga loyiqdir. Ayniqsa, Ahmad ibn al-Husayn al-Maydoniyning (1124-yilda vafot etgan) “Majma al-amsal”, Mahmud ibn Umar Zamaxshariyning (1075–1144-yillarda yashagan) “Al-Mustaqsa fi amsal al-arab” asarlari arab xalq maqollarining eng mukammal to‘plamlaridir. Shuni qayd etish kerakki, arab folklorining zukko bilimdonlari hisoblangan bu olimlar kelib chiqishiga ko‘ra arab millatiga mansub emas: al-Maydoniy Xurosondagi Nishopur shahrida tug‘ilgan bo‘lsa, az-Zamaxshariy asli Xorazmlikdir (Shomusarov Sh., 1998: 6). Al-Maydoniyning «Kitab majma’ al’-amsal’» *(Maqollar to‘plami)* asari hozirga qadar, bir qancha qo‘lyozma nusxalarda mavjud bo‘lib, arab maqollariga bag‘ishlangan namuna asar sifatida o‘z qadr-qiymatiga ega. Bu asar 2 jildlik bo‘lib, undagi ma’lumotlarga ko‘ra, asarda qadimgi arab og‘zaki ijodiga bag‘ishlangan purhikmat so‘zlar jamlangan. Jumladan, arab maqol va matallari sharhlari bilan arab she’riyati misolida ko‘rsatilgan (Qahhorov A., 1993: 96). To‘plam 6000 dan ortiq maqolni o‘z ichiga oladi. 1838-yilda Bonnda 3 qismda

bosilgan. Har bir maqolning lotincha tarjimasi bor. 1869-yilda Muhammad as-Sabag‘ va Muhammad Qitat-l-Adaviyya yordami bilan Buloqda (Qohira) nashr etilgan. 1892-yilda Misrda «Al-maktab al-xayriya» nashriyotida ikki qismda chop etilgan.

Darhaqiqat, zamonaviy Misr olimi Xanna al-Faxuriy arab aforizmlari va maqollariga bag‘ishlangan “Dono so‘zlar va maqollar” kitobida shunday yozadi: “Arablar, boshqa Sharq xalqlari singari va semit xalqlari, doimo o‘z tillarida bo‘lgan dono so‘zlar va maqollarga ko‘proq moyil. Ular o‘z so‘zlarini qabila va butun xalq bilan qo‘llab-quvvatlaydilar, o‘z ishlarini tushuntiradilar, qayg‘u va quvonchga soladilar, hayotlarining barcha voqealari haqida gapirib beradilar, shunda maqol va matallar kundalik tajribaning o‘ziga xos zaxirasiga, hayot qonuniga, keksalikning bezagiga, uy ishlarini tashkil etishda yetakchilikka aylanadi” (Al-Fakhuri, Khanna, 1951: 10). Ubayd al-Qosim ibn Salom “Maqollar to‘plami” (Jamxarat al-amsal), Abu Hilol al-Askariy (1004) to‘plamlari yaratildi. Yevropada maqollar to‘plamlari taxminan ming yil oldin bo‘lgan. Ushbu qo‘lyozma asarlarning o‘ttizga yaqin qismi bizning davrimizga qadar saqlanib qolgan. Ular XII asr va XV asr boshlarida yaratilgan. Ba’zan maqol to‘plamlari tasvirlanganida, maqol rasmga imzo bo‘lib xizmat qilgan. 786-yilda yashagan al-Mufaddal ad-Dabbiy arab maqollarini o‘z ichiga olgan “Amsal al-arab” (Arab maqollari) asari bilan mashhur. Bu kitob 1882-yilda Istanbulda nashr etilgan. al-Dabbiy ijodi arab folklor madaniyati va an’anaviy hikmatlarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Al-Mufaddal al-Dabbiy arab dunyosida katta ahamiyatga ega bo‘lgan shaxs, ayniqsa, arab xalq maqollarining o‘rganilishi va to‘plamlarini yaratishda muhim rol o‘ynagan. Bu kitob, arab xalq maqollarining to‘plami sifatida arab tili va madaniyati tarixini o‘rganish uchun muhim manba hisoblanadi. al-Dabbiy asarida arab dunyosining turli hududlarida mashhur bo‘lgan maqollarni to‘plagan va ularga izohlar bergan. Ushbu to‘plamda arab xalqining ezgulik, adolat, axloq, mehnat va sevgi kabi umumiy qadriyatlaridagi fikrlar aks etgan. Al-Mufaddal al-Dabbiy o‘z asarida maqollarni ijtimoiy va madaniy kontekstda tushunishning ahamiyatini ko‘rsatib, ular orqali arab tilining boy madaniyati va xalq naqlini o‘rganishga yordam beradi. Abu Abid al-Qosim bin Sallam al-G‘aroviy al-Bag‘dodiy arab tili va adabiyoti sohasidagi tadqiqotlari bilan mashhur arab tilshunosi. Uning “Maqollar kitobi” asari qisman lotin tiliga tarjima qilingan va 1836-yilda nashr etilgan. Kitobning to‘liq nusxasi 1885-yilda Istanbulda “Yorqin xazinalar va maftunkor nodirliklar” to‘plamida nashr etilgan. Muarrij ibn Amr as-Sidusi (yoki Muarrij as-Sadusi) arab maqollari tadqiqotlarida muhim o‘rin tutgan olimlardan biridir. Uning “Kitab al-Amsal”- (“Maqollar kitobi”) asari arab maqollari va ularning izohlariga bag‘ishlangan ilk yirik ishlardan biri hisoblanadi.

Abd al-Latif al-Dileyshiy 1963–1972-yillarda Bag‘dodda ikki jildda nashr etilgan “الامثال الشعبية في البصرة” (Basradagi mashhur maqollar) asarining muallifidir (عبداللطيف الدليشي، كتاب الأمثال الشعبية في البصرة،).

Iroq olimi Abdurahmon at-Tikritiy o‘zining “الأمثال البغدادية المقارنة” (Qiyoslangan Bag‘dod maqollari) asarida tadqiqot va ilk arab maqol va matallarining tasnifi masalalariga to‘xtalib o‘tgan. Ushbu asar 1966–1969-yillarda Bag‘dodda 4 qismda nashr etilgan. Maqol va matallar “johiliyat” davrining qadimgi she’riyatidan va boshqa davrlar she’riy asarlaridan olingan. Ular kelib chiqishi va dastlabki ma’nosi nuqtai nazaridan o‘rganiladi. Bu kitobda Bag‘dod maqollari boshqa arab va mahalliy tillardagi maqollar bilan taqqoslanib o‘rganilgan. at-Tikritiy mintaqa chegaralaridan tashqariga chiqib, milliy maqomga chiqqan birinchi tadqiqotchi edi.

Olim Bag‘dod maqollari haqida juda keng tadqiqotlar olib borgan va shu mavzuda bir nechta asarlar yozgan. Uning “جمهرة الأمثال البغدادية” (“جمهرة الأمثال البغدادية”) nomli kitobi 1971–1987-yillar oralig‘ida nashr etilgan bo‘lib, olti jilddan iborat. Ushbu kitobda minglab Bag‘dod maqollari alifbo tartibida berilgan va ularning lug‘aviy hamda kontekstual tushuntirishlari keltirilgan.

Bin Ala Mahmud Solihning “من وادي سوف” (Suf vodiysidan) nomli kitobi Ammar Qarfiy nashriyotida Batnada 1998-yil chop etilgan. Kitob muallifi Vodiy Souf mintaqasidan. Mazkur kitobda 1500 ta maqollar alifbo tartibida keltirilgan.

Doktor Muhammad Tavfiq al-Bualining Arab maqollari va islomdan oldingi (johiliyat) davri nomli kitobi Beyrutda 1988-yilda nashr qilingan. Muallif o‘zining kitobida: “Maqollar xalqlarning kechinmalari aks ettirilgan ko‘zgusidir, ularning ahamiyati shundaki, vaqt ularning sofligini kamdan-kam buzadi. Shuning uchun ular asrlar davomida o‘zgarmay yetib keladi, (محمد توفيق البوعلي، ص ٧)” deb zikr qilib o‘tadi. Muallif kitobni 2 ta bob va har bir bobni esa 3 faslga ajratgan.

Mashhur arab olimi ar-Rog‘ib al-Isfahoniy Arab maqollari tushunchasini ta’riflagan: “Maqol bu boshqa bayonotga yoki hodisaga o‘xshash, u bilan taqqoslanadigan va tushuntiradigan so‘z,” deya ta’rif bergan.

Ibrohim an-Nazzamning fikricha, Arab maqollari to‘rtta tarkibiy qismni o‘z ichiga oladi: “Bayonotning qisqaligi, ma’noning ravshanligi, taqqoslashning idealligi va yozuvning yuqori sifati”. An-Nazzam maqollarni “Arab tili stilistikasining cho‘qqisi”, deb atagan (الراغب الأصفهاني، 1998:4).

Arab olimi Ibn Qayyim al-Jauziyaning fikricha, arab tilidagi maqol turlari quyidagicha taqsimlangan:

1) Arab adabiy tilining sintaksisi, morfologiyasi va stilistikasi qoidalariga rioya qilingan holda yozilgan maqollar. Ushbu turdagi maqollar odatda stilistlar tomonidan yoziladi va ular tavsiflovchi uslubda qayd etiladi.

2) adabiy tildan chetga chiqishga imkon beradigan xalq maqollari. Ushbu maqollar odatda mahalliy shoirlar tomonidan talaffuz qilinadi. Grammatik qoidalarni e’tiborsiz qoldirish xarakterlidir, lekin ovozli uyg‘unlikka rioya qilish majburiydir;

3) allegorik xarakterga ega hayvonlar haqidagi hikoyalarga asoslangan ajoyib maqollar. Ushbu maqollar satirani o‘z ichiga oladi (ابن القيم الجوزية، 20-2000:19). Bunga

insonning mehnatsevarligi va dangasaligi, uning mehribonligi va vijdoni, hiyla-nayrang va yovuzlik, qo‘rqoqlik, hasad yoki xushomadgo‘ylik haqidagi ko‘plab maqollar misol bo‘la oladi.

Ibn Salom Azdiy: “Maqollar bu arablarning donishmandligi” degan. Bunda Azdiy arablar hamma davrlarda maqollarni kelishmovchilik va tortishuvlar vaqtida qo‘llaganlarini e’tirof etgan (السيوطي، 1982:486).

Liviyalik Valid Nasif tomonidan yozilgan “Eng mashhur arab maqollari “Har bir maqol ortida hikoya bor” (أشهر الأمثال العربية – وراء كل مثل قصة) nomli kitobida 104 ta mashhur arab xalq maqollarini quyidagi 11 ta eng mashhur manbalardan ajratib olgan va ushbu maqollarning kelib chiqishi tarixi haqida ham ma’lumotlar keltirgan.

١– مجمع الامثال:الميداني القاهرة ١٣١٠ ه
٢– امثال العرب:المفضل الضبى
٣–الامثال العربية القديمة للمستشرق رودلف زلهايم ترجم د. رمضان عبد التواب / بيروت ١٩٧٠
٤ –كتاب الامثال :مؤرج بن عمرو السدوسى تحقيق و تقديم د. رمضان عبد التواب الهيئة المصرية للكتاب / القاهرة ١٩٧٠ .
٥ –جمهرة الامثال:ابو هلال العسكري/القاهرة ١٩٦٤ .
٦ –العقد الفريد :ابن عبد وبه .
٧ –الأغاني:ابو الفرج الأصفهانى .
٨ –قصص العرب: محمد احمد جاد المولىو على محمد البجاوى .
٩ –المختار من امثال العرب:عبد السلام العشرى .
١٠ –لآلىء لامثال:رحاب عطاوي دار الفكر العربي بيروت .
١١ –لآلىء الحكم :رحاب عطاوي دار الفكر العربي بيروت (دار الكتاب العربي، 157 ص)

Arab xalq maqollari nafaqat Yevropa olimlari, balki rus sharqshunoslari orasida ham katta ilmiy qiziqish uyg‘otgan. Ayniqsa, rus sharqshunoslari arab tilining frazeologik boyligi va arab xalqining og‘zaki ijodiy merosiga e’tibor qaratib, maqollarni leksik, frazeologik va madaniy jihatdan tadqiq etganlar.

Ushbu ilmiy qiziqish, XX asr va XXI asr boshlarida, arab tilining rus tilshunosligi va madaniyatshunosligida chuqur o‘rganila boshlanishi bilan yanada ortdi. Arab maqollarining rus tilidagi tarjimalari, ularning boshqa tillar bilan taqqoslanishi va milliy mentalitetning lingvistik ifodasi kabi mavzular zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan ham dolzarb yo‘nalish sifatida o‘rganilmoqda.

Sharq hikmatlari, xususan, arab tili va adabiy tilning jonli va o‘rinli tasvirlari Vasiliy Fyodorovich Girgasning (1850–1905) ham e’tiborini tortdi. U rus olimlaridan bo‘lib, arab tili va uning grammatikasi bo‘yicha ko‘plab asarlar yozgan. Girgas arab maqollarini o‘rganish bilan ham shug‘ullangan va bu sohada muhim ilmiy ishlarni amalga oshirgan. “Рукопись – автограф по арабским пословицам” to‘plami asosan Suriyada 1860-yillarning boshlarida, katta ehtimol bilan V. F. Girgas Suriyada bo‘lganida Livanning al-Metn tumanidagi Shuvayr shahrida yozilgan (Крачковский И., 1955: 315-316). Uning bu sohadagi ishlarida, arab tilining iboralari va maqollarini,

ularning jamiyatdagi roli va ma’nolarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilgan. U yozib olgan folklor materiallari M. E. Saltikov-Shchedrin nomidagi Rossiya Davlat Xalq kutubxonasida saqlanadi (Shomusarov Sh., 1998: 9).

Girgasning ilmiy ishlariga asosan arab tilining grammatikasi, iboralari va madaniyatiga oid ilmiy tadqiqotlar kiradi. Bu ishlar arab tilini chuqur o‘rganishga qaratilgan va uning rus ilm-faniga qo‘shgan katta hissasini tashkil etadi.

Turkolog V. A. Gordlevskiy(1876–1956) 1912-yilda “Арабские пословицы, записанные в Дамаске” nomli kitobini nashr etdi (Крачковский И., 1955: 312). Ushbu ishda u Damashqda yig‘ilgan arab xalq maqollarini o‘rganib, ularning madaniy va lingvistik ahamiyatini tahlil qilgan. Gordlevskiyning bu ishida asosan Suriya va arab dunyosining madaniyati, urf-odatlari va ularning zamon o‘zgarishlari bilan bog‘liq bo‘lgan maqollar ko‘rsatilgan.

Shu bilan birga, Gordlevskiy arab tilidagi maqollarning tuzilishini va ularning zamonaviy arab madaniyatidagi o‘rnini chuqur o‘rgangan. Kitob, arab xalqining ezgulikka, hikmatga va axloqqa bo‘lgan yuksak e’tiborini ko‘rsatadi.

G. Sh. Sharbatov 1961-yilda nashr etilgan “Arab maqollari va matallari” to‘plamini yig‘ib, tarjima qilgan. Ushbu to‘plamda arab xalq og‘zaki ijodida chuqur ildiz otgan, hikmat, hayot, inson munosabatlari kabi turli mavzularga oid qadimiy maqol va matallar o‘rin olgan.

Bu to‘plamda arab xalqining ma’lum maqollari va nafis so‘zlarining to‘plami berilgan bo‘lib, ular asosan oson tushuniladigan va izohlarni talab qilmaydigan ifodalar sifatida taqdim etilgan. Maqollar mavzular bo‘yicha tasniflangan. Bu kitob arab xalqining madaniyatiga oid foydali manba bo‘lib, arab dunyosining xalqona hikmatlarini o‘rganish uchun muhim manba hisoblanadi (Шарбатов Г., 1961).

Y. Kudryavtsevning “Liviya xalq maqollari va matallari” nomli asari 1988-yilda Moskvada nashr etilgan va arab tilining Liviya lahjasida xalq hikmatlari boyligini qamrab olgan. Ushbu qo‘llanmada Liviya xalqining madaniy xususiyatlari va hayot falsafasini aks ettiruvchi 250 ta maqol va maqollar mavjud (Кудрявцев Ю., 1987).

Timur Akzamovich Shayxullin – arab va rus tilshunosligi, paremiologiya va madaniyatlararo kommunikatsiya sohalarida tadqiqot olib borayotgan olimdir. Shayxullinning “Русские и арабские паремии с компонентом-наименованием родственных отношений: концептуально-семантический и этнокультурный аспекты” (Rus va arab paremiyalari tarkibidagi qarindoshlik munosabatlarini ifodalovchi komponentlar: konseptual-semantik va etnomadaniy jihatlar) monografiyasi rus va arab tilidagi qarindoshlik tushunchalari va ularning paremiologik tizimlardagi aksini tahlil qiladi. Ushbu tadqiqot madaniy tafovutlar va umumiyliklarni aniqlash, shuningdek, til orqali shakllangan ijtimoiy rollarni o‘rganishga yo‘naltirilgan (Шайхуллин Т., 2012: 340).

Elena Viktorovna Kukhareva – MGIMO (Moskva Davlat Xalqaro Munosabatlar Instituti) universitetidan bo‘lib, filologiya fanlari doktori, arab tili va lingvistik tadqiqotlar sohasida ilmiy faoliyat yuritgan olimalardan biridir. U arab tilining aforistik (Aforistik birliklar – qisqa, mazmunli va chuqur fikrni ifodalovchi til birliklaridir. Ular xalq og‘zaki ijodi yoki mashhur shaxslarning donishmandlik gaplari asosida shakllangan bo‘lib, odatda umumiy haqiqatni, hayotiy tajribani yoki axloqiy qadriyatlarni ifodalaydi. Aforistik birliklar maqollar, matallar, hikmatli so‘zlar va iboralarni o‘z ichiga oladi) jihatlari, maqollar, iboralar va ularning tarjimasi hamda madaniyatlararo muloqotdagi o‘rni bo‘yicha bir qator tadqiqotlar olib borgan. Olimaning “Арабские пословицы и поговорки. Словарь с лексико-фразеологическими комментариями” (Arab maqollari va matallari. Leksik–frazeologik sharhlar bilan lug‘at) kitobi Elena Vladimirovna Kuxareva tomonidan yozilgan bo‘lib, 2008-yilda ACT nashriyotida chop etilgan.

Ushbu lug‘at, madaniyatlararo muloqotdagi qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. Kitob adabiy arab tili va turli arab davlatlarining og‘zaki nutqini o‘rganishga ko‘maklashadi.

Kitobning asosiy jihatlari:

• Arab maqollari va matallari jamlanib, ularning ma’nosi va ishlatilish konteksti tushuntirilgan;

• Leksik va frazeologik sharhlar yordamida maqollarning ma’no jihatlari tahlil qilingan;

• Arab maqollari fonetik va grammatik jihatdan tahlil qilingan, bu esa ularni tushunishni osonlashtiradi (Кухарева Е., 2008: 303).

Uning “Арабские пословицы как отражение национального менталитета” (Arab maqollarida milliy mentalitet aks etishi) nomli kitobi esa, til va milliy mentalitetning o‘zaro munosabati va bog‘liqligi muammosini tilshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganish hamda uning tilda ifodalanish shakllarini tadqiq etadi.

Ushbu asar arab tili va madaniyatiga qiziquvchi talabalar, sharqshunoslar va arab tilini o‘rganuvchilar uchun mo‘ljallangan. Olimaning yana “К истории вопроса изучения арабской языковой афористики” (Arab tili aforistikasi o‘rganilishining tarixi masalasi) maqolasida arab tilidagi aforistik birliklarning o‘rganilishi tarixi, ularning ma’no va uslubiy jihatlari haqida so‘z yuritadi. Tadqiqotda arab maqollari, hikmatli so‘zlar va iboralar madaniy kontekstda qanday shakllanganligi va ularning arab jamiyatidagi o‘rni muhokama qilinadi. Olimaning keyingi ilmiy ishlaridan yana biri “Стилистические особенности арабских пословиц” – arab maqollarining uslubiy jihatlari va ularning boshqa tillarga tarjimasi muammolariga bag‘ishlangan ishi hisoblanadi. Arab maqol-matallari haqida gap ketganda, o‘zbek olimlarining ham sezilarli izlanishlarini eslatib o‘tilish lozim.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, mamlakatda milliy o‘zlikni anglash jarayonlari jadallashdi va bu ilm-fan, adabiyot hamda tilshunoslik sohalariga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Ayniqsa, sharq tillari, jumladan, arab tiliga bo‘lgan e’tibor sezilarli darajada ortdi. Chunki arab tili nafaqat muqaddas islomiy meros tili, balki sharq adabiyoti va madaniyatining muhim unsurlaridan biri sifatida qadrlanadi.

Mustaqillikdan keyin arab tilining o‘rganilish darajasi ortishi bilan birga, arab xalq adabiyoti, xususan maqollariga bo‘lgan qiziqish ham kuchaydi. Bu jarayonni ikki asosiy omil bilan izohlash mumkin. Birinchidan, O‘zbekistonda arab tili ta’limi rivojlanib, arab adabiyoti, ayniqsa, arab xalq og‘zaki ijodi namunalari tadqiq etila boshlandi. Arab maqollari, xalq donishmandligi mahsuli sifatida o‘rganildi. Ikkinchidan, tarixiy jihatdan o‘zbek va arab xalqlari o‘rtasidagi madaniy-milliy aloqalar qayta tiklanib, sharq adabiy merosiga bo‘lgan e’tibor kuchaydi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda arab maqollarining o‘rganilishi ikki asosiy yo‘nalishda olib borilmoqda. Bir tomondan, universitetlar va ilmiy markazlarda arab tilshunosligi va folklori doirasida maqollar tahlil qilinmoqda. Boshqa tomondan esa, tarjima ishlari orqali arab maqollari keng jamoatchilikka tanishtirilib, ularning o‘zbek xalq maqollari bilan bog‘liqligi o‘rganilmoqda.

O‘zbekistonda mustaqillikdan keyin arab xalq maqollariga bo‘lgan qiziqish an’anaviy sharqona tafakkurga bo‘lgan intilish va ilmiy izlanishlarning kuchayishi bilan bog‘liq holda tobora ortib bormoqda. Bu esa nafaqat arab tilining o‘rganilishiga, balki madaniy-milliy merosimizni yanada boyitishga xizmat qilmoqda. Mana shunday ishlardan biri folklorshunos olim Qahhorov Abdujabbor Sodiqovichning “Al-Johizning “Kitābu-l-ḥayāvan” asarida “masal” tadqiqoti hisoblanadi. Bu dissertatsiya ishi keyinchalik monografiya (Qahhorov A., 2007) shaklida nashr etilgan.

Monografiya to‘rt bobdan iborat bo‘lib, birinchi bobda, al-Johiz hayoti va ijodi, ikkinchi bobda al-Johizning “Kitab al-hayavan” asari haqida, uchinchi bobda “Kitābu-l-ḥayāvan” asaridagi masal, to‘rtinchi bobda esa, asardagi maqol va matallarning shakliy va mazmuniy qurilishi ilmiy jihatdan ko‘rib chiqilgan. Xulosa qismida esa “Kitābu-l-ḥayāvan” asarining arab mumtoz maqolshunosligi tarixidagi o‘rni yoritilgan. Olimning bu tadqiqotida arab tilida masal ilmi, masal nazariyasining hozirgi kun Yevropa ilmidagi rivoji, maqol va matallarning grammatik qurilishi, timsol tushunchalari, maqol va matallarda badiiylik, maqol va matallarning mazmuniy mundarijasi tahlili ilmiy uslubda tushuntirib berilgan.

Bu sohaga katta hissa qo‘shgan olimlardan biri professor Shorustam Shomusarovdir. Olimning ilmiy ishlari faqatgina tilshunoslik nuqtai nazaridan emas, balki xalq donishmandligi, madaniyatlararo aloqalar hamda tarixiy meros kontekstida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Olimning mehnatlari nafaqat o‘zbek tilshunosligiga, balki butun Markaziy Osiyoda arab tilining o‘rganilishiga katta turtki bo‘ldi. Olimning sa’y-harakatlari bilan arab maqollari, hamda arab va o‘zbek umum folklori tarixiy-

qiyosiy tahlili, ularning tarjima masalalari bo‘yicha yangi ilmiy qarashlar shakllandi. Bu esa, o‘z navbatida, arab folklori o‘rganilishi darajasini oshirish va sharq xalqlari og‘zaki merosini yanada kengroq tadqiq etishga, shu bilan birga, arab va o‘zbek folklori borasida bir qancha tadqiqot ishlari borasida yorqin namuna bo‘lib xizmat qiladi. Mana shunday ishlardan “Arab va O‘zbek folklori tarixiy-qiyosiy tahlili” (Shomusarov Sh., 2002) va “Arab folklori” (Shomusarov Sh., 1992) monografiyalarini misol tariqasida aytish mumkin. Asarlarda arab folklorining ham nazmiy, ham nasriy janrlari ko‘rib chiqilgan. Dastlab ular haqida fikrlar bayon qilingan. Asosiy qism esa o‘zbek va arab ertaklari va mifologiyasiga oid qarashlar va tadqiqot natijalari bilan boyitilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida, arab xalq maqollarini o‘rganish akademik yondashuvgina bo‘lib qolmay, balki xalqlar o‘rtasida aloqalarni mustahkamlash va hayotiy tajribalarni baham ko‘rish uchun ham juda muhimdir. Bu maqollar bizning madaniy qadriyatlarimizni va insoniyatning umumiy tajribasini anglashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Arab xalq maqollarini o‘rganish, nafaqat o‘ziga xos madaniyat va urf-odatlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi, balki ularning tarixiy va ijtimoiy kontekstlarini o‘rganishni ham ta’minlaydi. Maqollar, shuningdek, turli muammolar va vaziyatlarda qanday qilib muomala qilish kerakligini ko‘rsatadigan qo‘llanma sifatida qaraladi. Yuqoridagi tadqiqotlar jarayoni, arab xalqining madaniyati va tarixini anglash, balki jahon madaniyatiga qo‘shgan hissasini ham ochib berish imkonini beradi. Shu sababli, arab xalq maqollarini o‘rganish global madaniy anglashuv uchun ham juda muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ben Cheneb, M. (1905–1907). Proverbes arabes de l’Algérie et du Maghreb. E. Leroux. – Parij.

2. Brunot Z. (1928). Proverbes et dictions arabes de Rabat. Hesperis. – Parij.

3. Champion S. (1950). Racial Proverbs. – London: Routledge.

4. Frayha A. (1953). Modern Lebanese Proverbs. Collected, Annotated and Translated to English. – Beirut.

5. Goitein S. (1934). Jemenica. Sprichworter und Redensarten aus Zentral-Jemen. – Brill.

6. Кухарева Е. (2008). Арабские пословицы и поговорки. Словарь с лексико-фразеологическими комментариями. – Москва.

7. O‘zbek xalq maqollari. 1-jild. A – O. – Toshkent: Fan, 1987.

8. Qahhorov A. (2007). Al-Johizning “Kitab al-hayvan” asarida “masal”. – Toshkent.

9. Шайхуллин Т. (2012). Русские и арабские паремии с компонентом-наименованием родственных отношений. – Казань.

10. Shamusarov Sh. (2002). Arab va o‘zbek folklori tarixiy-qiyosiy tahlili. – Toshkent: Fan.

11. Shamusarov Sh. (1998). Arab va o‘zbek folklori tarixiy-qiyosiy tahlili. – Toshkent.

12. Шарбатов Г. (1961). Арабские пословицы и поговорки. Перевод с арабского. – Москва.

13 .ابن قيم الجوزية. (2000). الأمثال في القرآن الكريم :Beirut – .دار المعرفة. تحقيق: سعيد محمد نمو الخطيب.

14 . القلقشندي. (1963). صُبح الأعشى في كتابة الإنشاء :Qohira – .دار الكتب المصرية.

15 . السيوطي. (1982). المزهر في علوم اللغة :Qohira – .مطبعة بابي الحلبي.

REFERENCES:

1. Ben Cheneb, M. (1905–1907). Proverbes arabes de l’Algérie et du Maghreb. E. Leroux. – Parij. (In French)

2. Brunot Z. (1928). Proverbes et dictions arabes de Rabat. Hesperis. – Parij. (In French)

3. Champion S. (1950). Racial Proverbs. – London: Routledge.

4. Frayha A. (1953). Modern Lebanese Proverbs. Collected, Annotated and Translated to English. – Beirut.

5. Goitein S. (1934). Jemenica. Sprichworter und Redensarten aus Zentral-Jemen. – Brill. (In German)

6. Kuxareva E. (2008). Arabskie poslovitsy i pogovorki. Slovar s leksiko-frazeologicheskimi kommentariyami. – Moskva. (In Russian)

7. O‘zbek xalq maqollari. 1-jild. A – O. – Toshkent: Fan, 1987. (In Uzbek)

8. Qahhorov A. (2007). Al-Johizning “Kitab al-hayvan” asarida “masal”. – Toshkent. (In Uzbek)

9. Shamusarov Sh. (2002). Arab va o‘zbek folklori tarixiy-qiyosiy tahlili. – Toshkent: Fan. (In Uzbek)

10. Shamusarov Sh. (1998). Arab va o‘zbek folklori tarixiy-qiyosiy tahlili. – Toshkent. (In Uzbek)

11. Shayxullin T. (2012). Russkie i arabskie paremii s komponentom-naimenovaniem rodstvennyx otnosheniy. – Kazan. (In Russian)

12. Sharbatov G. (1961). Arabskie poslovitsy i pogovorki. Perevod s arabskogo. – Moskva. (In Russian)

13 .ابن قيم الجوزية. (2000). الأمثال في القرآن الكريم :Beirut – .دار المعرفة. تحقيق: سعيد محمد نمو الخطيب.

14 . القلقشندي. (1963). صُبح الأعشى في كتابة الإنشاء :Qohira – .دار الكتب المصرية.

15 . السيوطي. (1982). المزهر في علوم اللغة :Qohira – .مطبعة بابي الحلبي.

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI UNLILARDA FONOLOGIK INTERFERENSIYA OMILLARI

PHONOLOGICAL INTERFERENCE FACTORS IN UZBEK AND ENGLISH VOWELS

ФАКТОРЫ ФОНОЛОГИЧЕСКОЙ ИНТЕРФЕРЕНЦИИ В ГЛАСНЫХ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Isakov Abdulahad Abdulvahobovich
Oriental universiteti, Filologiya fakulteti,
G‘arb tillari kafedrasi o‘qituvchisi
Tel.: +998 90 562-07-33
E-mail: abdulahadisakov88@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbek va ingliz tillaridagi unli tovushlarda fonologik interferensiya omillari mavzusi tahlil qilinadi. Xususan, fonologik interferensiya tushunchasi va uning til o‘rganish jarayonida qanday muammolarni keltirib chiqarishi haqida so‘z boradi. O‘zbek va ingliz tillaridagi unli tovushlar orasidagi fonetik jihatlar, xususan, talaffuz farqlari, urg‘u masalasidagi o‘ziga xosliklar, diftong va monoftonglarning tuzilishidagi tafovutlar o‘rganilib, ularning nutq mazmuniga ta’siri yoritib beriladi. Tadqiqot ishida til o‘rganuvchilarda yuzaga keladigan talaffuzdagi qiyinchiliklarning fonologik sabablarini aniqlashga e’tibor qaratilgan. Mavzudan kelib chiqqan holda, ko‘tarilayotgan masalaning fonetik emas, balki fonologik jihatlariga ko‘proq e’tibor qaratiladi. Shu sababli, nutq tovushlarining paydo bo‘lish o‘rnidan ko‘ra tovush o‘zgarishining so‘zlar ma’nosini o‘zgartirishiga sabab bo‘lishi muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: *Fonologik interferensiya, o‘zbek tili, ingliz tili, unli tovushlar, talaffuz farqlari, urg‘u, diftong, monoftong, til o‘rganish, fonetik jihatlar.*

Annotation: This article highlights the topic of phonological interference factors between vowel sounds in Uzbek and English. Specifically, it discusses the concept of phonological interference and the challenges it poses in the language learning process. The phonetic aspects of vowel sounds in Uzbek and English, particularly differences in pronunciation, peculiarities in stress patterns, and structural distinctions between diphthongs and monophthongs, are examined, and their impact on the meaning of speech is elucidated. The study focuses on identifying the phonological reasons behind pronunciation difficulties encountered by language learners. In line with the topic, greater emphasis is placed on the phonological rather than phonetic aspects of the issue under consideration. Consequently, the discussion centers on how sound changes affect word meanings rather than the place of articulation of speech sounds.

Keywords: *Phonological interference, Uzbek language, English language, vowels, pronunciation differences, stress, diphthong, monophthong, language learning, phonetic aspects.*

Аннотация: В данной статье анализируется тема факторов фонологической интерференции в гласных звуках узбекского и английского языков. В частности, рассматривается понятие фонологической интерференции и то, какие проблемы она может вызывать в процессе изучения языка. Изучаются фонетические аспекты между гласными звуками узбекского и английского языков, включая различия в произношении, особенности ударения, а также структурные различия между дифтонгами и монофтонгами, и освещается их влияние на содержание речи. В исследовательской работе акцент делается на выявление фонологических причин трудностей в произношении, возникающих у изучающих язык. Исходя из темы, основное внимание уделяется не фонетическим, а фонологическим аспектам рассматриваемой проблемы. В связи с этим обсуждается не столько место возникновения звуков речи, сколько влияние изменений звуков на изменение значения слов.

Ключевые слова: *Фонологическая интерференция, узбекский язык, английский язык, гласные звуки, различия в произношении, ударение, дифтонг, монофтонг, изучение языка, фонетические аспекты.*

KIRISH

O‘zbek va ingliz tillaridagi unli tovushlarning talaffuzi va artikulyatsiyasidagi farqlar, fonologik interferensiyaning asosiy omillarini tashkil etadi. Bu interferensiya bir tildan ikkinchi tilga o‘tilganda, talaffuz va undosh unli tovushlar bo‘yicha xatolarni keltirib chiqarishi mumkin (Wells J., 1990: 54). Quyida ba’zi asosiy farqlar va interferensiya omillari haqida qo‘shimcha ma’lumotlar beriladi:

O‘zbek tiliga nisbatan ingliz tilida interferensiya ko‘proq miqdorda va xilma-xil bo‘lib, unda 12 ta unli tovush mavjud (masalan, /iː/, /ɪ/, /æ/, /ʌ/, /ɔː/ va h.k.). O‘zbek tilida esa unli tovushlar soni kamroq (odatda 6-7 ta) va ular to‘liq rangli bo‘lmagan variantlarga ega. Ingliz tilida unli tovushlar uzun va qisqa shakllarga ega, bu esa talaffuzda farq qiladi. Masalan, /æ/ (man) va /eɪ/ (make) tovushlarining farqi o‘zbek tilida mavjud emas. Ingliz tilida ko‘plab unli tovushlar og‘iz bo‘shlig‘ini o‘zgartirib talaffuz qilinadi. O‘zbek tilida esa unli tovushlar ko‘proq tekis va to‘g‘ri chiqadi (Tarasov D., 1995: 36). Ingliz tilidagi ba’zi unli tovushlar, masalan, /ɪ/, /ʌ/, /æ/, ko‘proq og‘izning o‘zgacha holatiga, past yoki yuqori bo‘lishiga bog‘liq. O‘zbek tilida esa unli tovushlar ko‘proq aniq va oson artikulyatsiya qilinadi (Reformatskiy A., 1990: 41).

Ingliz tilida tovushni to‘g‘ri talaffuz qilish uchun tilning joylashuvi muhim ahamiyatga ega. O‘zbek tilida esa unli tovushlar ko‘proq aniq, xos jihatlarga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

B. Ilyish ingliz tilining fonetika va fonologiyasini chuqur o‘rganadi, tovushlar tizimi, urg‘u va intonatsiyaga e’tibor beradi. Asosiy e’tibor ingliz tiliga qaratilgan bo‘lib, o‘zbek tili fonetikasi haqida ma’lumot berilmaydi. D. Tarasov esa ingliz tilining fonetik tuzilishi, talaffuz qoidalari va fonologik xususiyatlari tahlil qilinadi. A. Reformatskiy esa fonologiya va fonetikaning asosiy nazariyalarini ingliz tili misolida tushuntiradi. Ushbu manbalar ingliz tilining fonetika va fonologiyasini o‘rganish uchun foydali bo‘lsa-da, o‘zbek tilining fonetik xususiyatlari yoki undagi tovushlar tizimi haqida ma’lumot bermaydi. O‘zbek tili fonetikasi uchun alohida tadqiqotlar talab qilinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tilshunoslikda qo‘llaniladigan qiyosiy-tarixiy usullardan foydalanildi. O‘zbek va ingliz tillaridagi unlilarning fonologik xususiyatlari tahlil qilindi, interferensiya omillari eksperimental so‘rovlar va nutq namunalari orqali tekshirildi. Statistik tahlil jarayonida interferensiya darajasi aniqlangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbek tilida unli tovushlar ko‘p holatlarda bir-biriga yaqin bo‘lgan tovushlar emas, balki ingliz tilida bu tovushlar o‘xshash bo‘lishi mumkin, bu esa talaffuzga ta’sir qiladi. Misol uchun, inglizcha /æ/ va /e/ tovushlari o‘zbek tilida yo‘q. Ingliz tilida unli tovushlarning uzunligi talaffuzda katta rol o‘ynaydi, o‘zbek tilida esa bu ko‘pincha muammo bo‘lmaydi. Bu unli tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qilishga olib kelishi mumkin (Shcherba L., 1952: 64).

Ingliz tilida urg‘uli va urg‘usiz unli tovushlar juda muhim o‘ringa ega. Stressli unli tovushlar odatda uzun va ochiq, stress tushmagan unli tovushlar esa qisqa va yopiq. O‘zbek tilida urg‘uning ta’siri unli tovushlarga nisbatan kamroq bo‘lishi mumkin. O‘zbek tilida ingliz tilidagi ba’zi unli tovushlarni talaffuz qilish qiyin bo‘lishi mumkin. Masalan, /æ/ yoki /ɪ/ tovushlarini o‘zbek tilida to‘g‘ri talaffuz qilishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Chunki o‘zbek tilida bunday tovushlar mavjud emas. O‘zbek tilida ko‘proq to‘liq va to‘g‘ri tovushlar ishlatiladi, ingliz tilida esa ko‘plab tovushlar ko‘proq qisqargan, yumshatilgan yoki o‘zgartirib talaffuz qilinadi, masalan, /ə/ tovushi.

O‘zbek tilida undoshlar orasida unli tovushlar ko‘proq tekis va aniq talaffuz qilinsa, ingliz tilida esa bunday farqlar ko‘proq noaniqlik yaratishi mumkin.

Bu farqlar fonologik interferensiyaning eng asosiy omillari hisoblanadi. Tillar o‘rtasidagi talaffuz va artikulyatsiya farqlari, agar ular to‘g‘ri tushunib ishlatilsa, tilni o‘rganish va undan samarali foydalanish imkoniyatlari oshadi.

O‘zbek tilida unli tovushlar asosan to‘g‘ri va oddiy talaffuzga ega bo‘lsa, ingliz tilida bu tovushlar ko‘proq muhim fonetik xususiyatlarga ega bo‘lib, ba’zi unli

tovushlar o‘zgaruvchan va turli aksentlarda farqlanadi. O‘zbek va ingliz tillaridagi unli tovushlar orasidagi farqlar fonetik jihatdan juda sezilarli. O‘zbek tilidagi unli tovushlar oddiy, aniq va kamroq o‘zgaruvchan bo‘lsa, ingliz tilidagi unli tovushlar ko‘proq fonetik xususiyatlarga ega bo‘lib, urg‘u va tilning turli shevalariga qarab farqlanadi. Quyida bu masalani batafsil ko‘rish mumkin:

1. Ingliz tilida unli tovushlar juda ko‘p va ular fonetik jihatdan turlicha talaffuz qilinadi. Ingliz tilida 12 ta asosiy unli tovush mavjud, ammo ular har xil aksentlarda va dialektlarda farq qilishi mumkin. Bu tovushlarning ba’zilari o‘zgaruvchan va to‘liq farq qiladigan talaffuzga ega.

Misollar:

- /æ/ ("cat") – Bu tovush britan va amerika aksentlarida turlicha talaffuz qilinadi. Britancha aksentda u ko‘proq ochiq, amerikalik aksentda esa uni ko‘proq qisqartirilgan shaklda eshitish mumkin.
- /ɪ/ (“sit”) va /iː/ (“seat”) – Bu tovushlar uzunligi va sifatida farqlanadi. Ingliz tilida bu unli tovushlar orasidagi farq, uzunlikni va bo‘shliqni ifodalaydi, o‘zbek tilida esa bunday farq yo‘q.
- /ə/ (“schwa”) – Bu tovush ingliz tilining eng keng tarqalgan tovushi bo‘lib, ko‘plab so‘zlarda, ayniqsa urg‘usiz bo‘lishi mumkin, masalan, “banana” so‘zida. O‘zbek tilida bu tovush yo‘q va bu kabi qisqa va to‘liq talaffuzli unli tovushlar mavjud emas.
- Diftonglar – Ingliz tilida diftonglar, ya’ni ikki unli tovushning birgalikda talaffuzi keng tarqalgan, masalan, /aɪ/ (“my”) va /əʊ/ (“go”). O‘zbek tilida bunday diftonglar mavjud emas va unli tovushlar ko‘proq alohida talaffuz qilinadi (Ilyish B., 2014: 78). Diftonglar — bu ikki unli tovushning birgalikda talaffuz qilinishi bo‘lib, ingliz tilida ular keng tarqalgan. O‘zbek tilida esa bunday diftonglar yo‘q, va unli tovushlar ko‘proq alohida talaffuz qilinadi. Diftonglar fonetik interferensiya va talaffuzdagi qiyinchiliklar sababli ingliz tilini o‘rgangan o‘zbek tilida so‘zlashuvchilarga ba’zi noaniqliklarni keltirib chiqarishi mumkin (Yuldashov I., Muhammedova S., 2020: 54).
- Ingliz tilidagi diftonglar ikki unli tovushning birlashishi orqali hosil bo‘ladi. Bu tovushlar bir-biriga izchil ravishda, ammo tezda birlashib talaffuz qilinadi. Quyida ingliz tilidagi eng keng tarqalgan diftonglarga misollar keltirilgan:
- /aɪ/: Bu diftong “my” so‘zida ishlatiladi. Diftong “a” va “ɪ” tovushlarining birlashuvidan iborat. Bu tovushni talaffuz qilishda avval "a" tovushi chiqariladi, so‘ngra “ɪ” tovushi qo‘shiladi. Misol: “my”, “fly”, “time”.
- /əʊ/: Bu diftong “go” so‘zida ishlatiladi. Bu tovushni talaffuz qilishda avval “ə” (shva) tovushi va keyin “ʊ” tovushi chiqadi. Bu ingliz tilidagi “o” tovushining yumshoq, o‘zgacha talaffuzi. Misol: “go”, “home”, “show”.

• /eɪ/: Bu diftong “say” so‘zida ishlatiladi. Bu tovushda “e” va “ɪ” tovushlari birlashadi. Misol: “say”, “day”, “play”

• /aʊ/: Bu diftong “how” so‘zida ishlatiladi. Bu tovushda “a” va “ʊ” tovushlari birlashadi. Misol: “how”, “now”, “cow”.

• /ɔɪ/: Bu diftong “boy” so‘zida ishlatiladi. “ɔ” va “ɪ” tovushlarining birlashuvi. Misol: “boy”, “toy”, “coin”.

• O‘zbek tilida esa bunday diftonglar mavjud emas. O‘zbek tilida unli tovushlar ko‘proq alohida talaffuz qilinadi. O‘zbek tilining fonetik tizimi o‘zgacha va unli tovushlar ko‘pincha alohida o‘qiladi. Masalan:

• O‘zbek tilida “ay” ingliz tilidagi /aɪ/ diftongi ingliz tilida “my” so‘zida qanday talaffuz qilinsa, o‘zbek tilida “ay” tovushlari alohida talaffuz qilinadi, ya’ni ikki unli alohida eshitiladi: “ay” so‘zida “a” va “y” tovushlari mustaqil talaffuz qilinadi (masalan, “hayot”).

• O‘zbek tilida “o‘” va “y”: Ingliz tilidagi /əʊ/ diftongi o‘zbek tilida alohida “o‘” va “u” tovushlariga bo‘linadi. O‘zbek tilida unli tovushlar qisqa va aniq talaffuz qilinadi, shuning uchun ingliz tilidagi /əʊ/ tovushiga o‘xshash birikmalar o‘zbek tilida mavjud emas.

• Boshqa diftonglar: O‘zbek tilida /eɪ/, /aʊ/ yoki /ɔɪ/ kabi tovushlar alohida unli tovushlar sifatida talaffuz qilinadi. O‘zbek tilida unli tovushlarning birlashishi ko‘pincha yanada yumshoq va alohida bo‘ladi (Muhammedova S., 2022: 75).

• Ingliz tilini o‘rgangan o‘zbeklar uchun diftonglar to‘g‘ri talaffuz qilinishida ba’zi qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Chunki o‘zbek tilidagi unli tovushlar ko‘proq alohida talaffuz qilinadi va unli tovushlarning birlashuvi (diftonglar) o‘zbek tilining fonetik tizimida mavjud emas. Masalan, ingliz tilida “my” yoki “how” so‘zlarini talaffuz qilishda o‘zbek tilida unli tovushlarning alohida talaffuzi vaqti bilan murakkablik yaratishi mumkin. O‘zbek tilidagi so‘zlarda unli tovushlar bir-birini aniqlik bilan almashtiradi, lekin ingliz tilida bunday o‘zgarishlar va unli tovushlarning birlashishi juda tez sodir bo‘ladi (Abduraxmanova N., 2024: 22).

• Ingliz tilini o‘rgangan o‘zbeklar /aɪ/ (my), /əʊ/ (go), /eɪ/ (say) kabi diftonglarni talaffuz qilayotganda, ularni ko‘pincha to‘g‘ri talaffuz qilishda qiynalishlari mumkin, chunki o‘zbek tilida bunday birlashgan tovushlar mavjud emas.

Аннотация: В данной статье анализируются процессы распространения ислама в Мавераннахре в VIII–X веках и связанные с ними социально-культурные изменения. В частности, через призму жизни выдающегося мухаддиса и комментатора Имама аль-Бухари показано, в какой степени и при каких условиях население региона принимало ислам. В статье рассматривается религиозное многообразие в эпоху предков Имама аль-Бухари, время, необходимое для полной ассимиляции ислама, а также роль мусульманских проповедников с научной точки зрения. Исторические факторы, способствовавшие превращению Мавераннахра в центр исламской культуры, также подвергнуты детальному анализу. Кроме того, освещается арабское господство в Термезе и прилегающих территориях, начиная со второй половины VII века, процесс принятия ислама местным населением и связанные с этим сложности. Особое внимание уделено вопросам религиозного многообразия, характера деятельности исламизации и строительства мечетей.

Ключевые слова: *Имам аль-Бухари, Мавераннахр, распространение ислама, VIII–X века, Аббасиды, религиозное многообразие, наука хадисов, культура, призыв к исламу, процесс исламизации*.

KIRISH

Movarounnahr tarixiy jihatdan islom sivilizatsiyasining muhim markazlaridan biri hisoblanadi. VIII–X asrlarda bu hududda ro‘y bergan siyosiy, diniy va madaniy jarayonlar nafaqat mahalliy, balki butun islom olami uchun katta ahamiyat kasb etdi. Ayniqsa, islom dinining tarqalishi, unga mahalliy aholining munosabati va bu jarayonda yuzaga kelgan murakkabliklar alohida tahlilni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, buyuk muhaddis va ulamolardan biri bo‘lgan Imom al-Buxoriyning hayoti va faoliyati misolida ushbu davrning diniy muhitini o‘rganish mumkin. Maqolada

arablarning Termiz va atrofi kabi shaharlardagi hukmronligi, mahalliy aholi o‘rtasida islom dinining qanday va qay tarzda tarqalgani tahlil qilinadi.

Buyuk olim, mashhur muhaddis Imom al-Buxoriy islom dini hamda madaniyati Movarounnahrda keng ko‘lamda tarqalgan davrda tavallud topdi. Biroq uning ajdodlari, otasi va bobosi islom qoidalari hali ushbu mintaqa aholisi uchun majburiy bo‘lmagan davrda yashadilar. Chunki bu mintaqa VIII asrning ikkinchi yarmi boshlariga kelibgina Abbosiy arab xalifaligi tarkibiga tugal kirgandi.

Movarounnahrning turli joylarida aholi hali har xil dinlarga – buddaviylik, zardushtiylik, moniylik va nasroniylikka e’tiqod qilishda davom etardi. Islom ushbu mintaqa aholisining ma’naviy hayotiga singishi uchun muayyan vaqt hamda musulmon da’vatchilaridan jidd-u jahd talab qilinardi. Shu munosabat bilan Movarounnahr siyosiy tarixining hamda bu mintaqada islomning yoyilishi jarayonining asosiy bosqichlarini ko‘rib chiqish zarur.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Movarounnahrda islom dini tarqalishi va uning ta’siri bo‘yicha B. Azizxodjayevning “Movarounnahrda islom dini tarqalishi va uning ijtimoiy ta’siri” asari dinning jamiyatga, xususan ta’lim va oila hayotiga ta’sirini sodda tilda yoritadi. Asar foydali, ammo ba’zi xulosalar aniqroq dalillarga muhtoj. L. Ahmedov “Musulmon sharqida din va davlat munosabatlari” asarida esa islomning Somoniylar davrida davlat boshqaruvidagi o‘rnini tarixiy manbalarga asoslanib tahlil qiladi, lekin ijtimoiy jihatlarga kam e’tibor beradi. Har ikkala asar islomning Movarounnahrda tarqalishini tushunishga yordam beradi, biri ijtimoiy, ikkinchisi siyosiy jihatlarni ochadi. Qo‘shimcha manbalar bilan boyitish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tarixiy-tahliliy usul orqali Azizxodjayev va Ahmedov asarlari hamda Al-Balazuriy, Narshaxiy kabi tarixiy manbalar o‘rganiladi. Qiyosiy usul yordamida Movarounnahrda islomning ta’siri boshqa mintaqalar bilan solishtiriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Al-Balozuriyning aytishicha, Jayxun (Amudaryo)dan kechib o‘tgan hamda 670-yildan biroz ilgari Movarounnahr hududida Qur’on tilovat qilgan birinchi arab sarkardasi Alambardor al-Hakam ibn Amr al-G‘iforiy bo‘lgan. Bu davrda Umaviylarning birinchi xalifasi Muoviya hukmronlik qilayotgan edi (Ал-Балазури, 1987: 21). Al-G‘iforiy musulmon bo‘lib, uning eski Marvdagi qabri bejiz ziyoratgohga aylanmagan. Tabariy rivoyat qilgan bir lavha g‘oyat e’tiborga loyiq. Xuroson noibining g‘animat o‘ljani Umaviylar xalifasi Muoviyaga berish to‘g‘risidagi talabiga al-Hakam: «Sen o‘ljadagi oltin, kumush va boshqa nodir buyumlarni amir al-mo‘minin uchun ajratishdan oldin o‘ljadagi hech narsaga tegmaslik haqida amir al-mo‘minin yo‘llagan

nomani menga jo‘natding. Biroq men uchun Allohning nomasi amir al-mo‘mininning nomasidan oliyroqdir», deb javob bergan (Narshaxiy M., 1991).

Markaziy Osiyoning ikki daryo oralig‘idagi hudud siyosiy jihatdan mayda va yirik mulklar quramasidan iborat edi. Chunonchi, Choch (Toshkent) viloyatining o‘zida o‘ndan ziyod mulk mavjud edi.

Markazi Buxoroda bo‘lgan buxorxudotlar, markazi Samarqandda bo‘lgan ixshidlar, poytaxti Gurganj (hozirgi Ko‘hna Urganch)da bo‘lgan Xorazmshohlar, Surxondaryo viloyatidagi hozirgi Denov shahri yaqinidagi chag‘onxudotlar mulklari Markaziy Osiyoning ikki daryo oralig‘idagi eng yirik mulklar edi. Markaziy Osiyo ikki daryo oralig‘ining shimoliy viloyatlari G‘arbiy Turk xoqonligiga bo‘ysungan, turkiy sulolalar vakillari esa bu vaqtda Toharistondan Chochgacha bo‘lgan ushbu hududdagi turli mulklarda hukmronlik qilib, faol siyosiy rol o‘ynagandi. Ayni shu qudratli harbiy kuch dastavval sosoniylar Eroni va Xitoyning, keyinchalik esa arablarning Markaziy Osiyo ikki daryo oralig‘iga kirib kelishida to‘siq bo‘ldi.

Xurosonda Ubaydulloh ibn Ziyod va uning vorislari Sa’id ibn Usmon va Salma ibn Ziyod noiblik qilgan davrda arab qabilalari Movarounnahr ichkarisiga ancha faol kirib kela boshladilar. Bu yurishlar davrida shahar va qishloqlar g‘orat qilindi, asirlar olindi, katta miqdorda boj talab qilindi. Masalan, al-Balozuriy guvohlik berishicha, Buxoro malikasi Xo‘tan Xotun arablar bilan 1 million kumush dirham to‘lash sharti bilan sulh tuzgan. 670-yildan boshlab arablar Buxoro, Poykand, Samarqand, Termiz va Xorazm tomon siljishgan. Endi harbiy yurishlarga jangchilarning o‘zigina emas, balki ko‘pincha ularning oilalari ham qatnasha boshladilar. Masalan, al-Balozuriy xabariga ko‘ra, Salma ibn Ziyodning Buxoroga 671-yildagi safari chog‘ida xotini ham u bilan birga edi va u Movarounnahrdagi birinchi musulmon ayol bo‘ldi (Азизходжаев Б., 2003). Salma ibn Ziyod davrida arablar qishni o‘tkazish uchun, odatdagidek Marvga qaytmay, ilk bor Movarounnahrda qolishdi (Аҳмедов Л., 2005). Shundan keyin Umaviylar xalifaligida boshlanib ketgan nizolar hamda Xurosonda arablarning ikki nufuzli qabilalari muzariylar va robi’alar o‘rtasidagi o‘zaro kurash arablarning Movarounnahr ichkarisiga kirib kelishi hamda bu yerda islomning mustahkamlanishini vaqtincha to‘xtatib qo‘ydi.

VII asr oxiriga kelib, Xuroson noibi al-Muxallab davridagina arablar bu mintaqa fathini qaytadan boshladilar. Biroq ular 689-yilda qaysiy qabilasi boshlig‘i Abdulloh ibn Xozimning o‘g‘li Muso ibn Abdulloh tomonidan bosib olingan Termiz shahridagina uzoq vaqt mustahkam qoldilar. Muso ibn Abdulloh bu yerda 15 yil hukmronlik qildi. Uning bu yerdagi hukmronligi shu qadar kuchli edi-ki, arablar tomonidan mahalliy aholidan undirib olinadigan yer va jon solig‘i – xiroj hamda jizya xalifalar xazinasiga emas, balki Termizga, Muso ibn Abdulloh xazinasiga kelib tushardi (Ҳайитметов А., 1999).

Aftidan, mahalliy aholini islomga kiritish VII asrning ikkinchi yarmidayoq boshlab yuborilgan. Termiz va uning atrofida arablar hukmronlik qilgan mahalliy aholidan deyarli yigirma yil ichida bironta ham odam islomga kiritilmagan va bironta ham masjid bo‘lmagan, deb taxmin qilish qiyin.

Ayni mahalda, ayrim tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, 644-yilda boshlanib, 704-yilgacha davom etgan ilk Movarounnahr fathi davrida mahalliy aholini islomga to‘la kiritish hamda Movarounnahrni xalifalikka bo‘ysundirish niyati bo‘lmagan. Aftidan, bu vazifa 704-yildan keyin, Movarounnahrni fath etishning ikkinchi bosqichida, qat’iyatli va shafqatsiz al-Hajjoj Xuroson noibi, Qutayba ibn Muslim esa harbiy yurishlar rahbari bo‘lgandan keyin qo‘yilgan. Iste’dodli sarkarda Qutayba ibn Muslim Movarounnahrning Xorazmdan tortib Chag‘oniyongacha, Poykanddan tortib Chochgacha bo‘lgan deyarli barcha viloyatlariga sakkiz yil davomida qo‘shin tortib bordi (Табари М., 1985).

Qutayba ibn Muslim harbiy zafarlarga erishishida, ko‘pincha, arablar bilan ittifoq bo‘lib, qo‘shni mulklarga yurish qilgan mahalliy feodal hukmdorlar o‘rtasidagi adovat rol o‘ynagan. Ayni mahalda Qutayba ibn Muslim islomni singdirish siyosatini qattiqqo‘llik bilan olib bordi. Buxoroda, masalan, ayni Qutayba davrida majusiylar ma’bad (ibodatxona)lari o‘rnida ilk masjidlar qurildi. Ba’zan mahalliy aholini, ayniqsa kambag‘allarni, musulmonlar masjidiga pul berib jalb etishardi: masjidga har bir kelishi uchun ularga ikki dirhamdan berilardi-ki, bu o‘sha davr uchun ancha katta mablag‘ edi.

Qutayba ibn Muslim shafqatsiz muomalasi uchun o‘z qabiladoshlari tomonidan Farg‘onada o‘ldirilganidan keyin ham arablarning yurishi to‘xtatilmadi. Aksincha, bu yurishlar rejali ravishda, muayyan maqsadni ko‘zlab olib borila boshlandi: Movarounnahrning arablar tomonidan fath etilishining uchinchi davri boshlanib, u VIII asr o‘rtalarigacha davom etdi. Xususan, arablarning bu mintaqaga ko‘chib kelishi kuchaydi. Masalan, at-Tabariy ma’lumotlariga ko‘ra, bu davrda qirqdan ziyod arab qabilalari Movarounnahrga ko‘chib keldi. Ular orasida eng ko‘psonlilari bohiliylar, yamaniylar, qaysiylar, qurayshiylar, muzariylar, robi’alar, tamimiylar, hanzalalar va al-xuzo’iylar edi (Босворт К., 1971).

Arablar butun-butun qishloqlar barpo etib, ularga biron-bir qabilani boshdan-oyoq joylashtirardilar. Masalan, Marv vohasida xuzo’iy qabilasining al-Lin va Fannin qishloqlari mavjud edi. Yoki ular Buxorodagi kabi, alohida mahallalarni band etib, u yerdan mahalliy so‘g‘d aholini siqib chiqarishar edi. Bu qishloq va shaharlarda masjidlar qurilar, asta-sekin musulmonlarning muqaddas joylari yuzaga kelardi. Xullas, mahalliy aholiga islom dinini qabul qildirish jarayoni borardi.

Movarounnahr aholisi o‘z vatani va ko‘hna dinining himoyasiga otlanib, arab fotihlariga uzoq vaqt shiddatli qarshilik ko‘rsatadi. Masalan, so‘g‘d hokimi Divashtich tomonidan Mug‘ tog‘idagi qal’a qahramonona mudofaa qilingani ma’lum. Divashtich

arablar tomonidan qo‘lga tushirilgach, Rabinjonda otashparastlar xilxonasida qatl qilingan. VIII asr o‘rtalarida, ikkinchi arab xalifaligi – Abbosiylar davrida Movarounnahr arablar tomonidan deyarli butunlay fath etildi. Bu paytda arablarning Movarounnahrdagi siyosiy manfaatlari xitoy Tan imperiyasining bosqinchilik siyosati bilan to‘qnash keldi.

751-yilda Talas daryosi bo‘yida arablar va mahalliy qo‘shinlar xitoy armiyasini tor-mor qildi. Bu bilan Xitoyning Movarounnahr g‘arbiga tomon yurishiga ko‘p asrlarga chek qo‘yildi. Natijada arablarning ham, islomning ham dushmani qolmadi. IX asrga kelib islom Movarounnahrda davlat diniga aylandi. Shunday bo‘lsa-da, yana bir necha yuz yillar davomida ushbu mintaqaning bir qator tumanlarida zardushtiylik saqlanib, ajdodlar dinini tiklash uchun Muqanna qo‘zg‘oloni kabi harakatlar bo‘lib turdi, keng xalq ommasi orasida esa qadimiy dinlar va e’tiqodlar qoldiqlari saqlanib qoldi. 749-yilda xalifalikda hokimiyat payg‘ambar Muhammad alayhi salomning amakisi, Abbosiylar xalifaligi asoschisi, makkalik hoshimiylardan bo‘lgan al-Abbos avlodi bo‘lmish as-Sahhof qo‘liga o‘tdi. Abu Muslimning Xuroson va Movarounnahrdagi qo‘zg‘oloni bunda ancha madad bo‘ldi.

Bu paytda Movarounnahrning ayrim viloyatlarida, masalan, Chag‘oniyonda, Ustrushona yoki Shoshda mavjud bo‘lib kelgan mahalliy hukmdor sulolalari bekor qilindi, bu mintaqa Abbosiylar xalifaligi tarkibiga qo‘shib olindi.

Shunisi e’tiborga loyiqki, VIII asrning o‘rtalarida Movarounnahrning qator shaharlarida mis tanga (fals) muntazam ravishda zarb qilina boshlandi. Tangalarda arabcha diniy ifodalar, hukmdorlik qilib turgan amir nomi, biron-bir shahar noibining nomi va hatto, mahalliy hukmdorlar nomi ham zarb qilingan. Masalan, VIII asr o‘rtasida Kesh dehqoni feodal Ixrid zarb qildirgan mis tangalar arabcha namunadagi tangalar edi (Гафуров Б., 1989: 43). Bunday kichik qiymatli tangalar Axsikent, Buxoro, Termiz, Shosh, Chag‘oniyon va Xorazmda, ya’ni Movarounnahrning eng yirik shaharlarida zarb qilinardi (Azimbayeva N., 2023: 479-486). Keyinroq bu shaharlarning ayrimlarida kumush dirhamlar zarb etish ham yo‘lga qo‘yilgandi. Umaviylardan farqli ravishda, Abbosiylar xalifalikning sharqiy hududlariga tayanish, u yerlik mahalliy aslzodalarni jalb etish siyosatini olib bordilar. Bu bilan Abbosiylar go‘yoki xalq qo‘zg‘olonlari va harakatlari yuzaga kelishining oldini olgandek bo‘ldilar. Chunki bu qo‘zg‘olon va harakatlar o‘z xalqiga qarshi qaratilgan bo‘lib chiqardi. Natijada Movarounnahr xalqlarining mustaqillikka intilishi ham go‘yo bostirilganday bo‘ldi. Binobarin, xalifalardan al-Mansur (754-775 yillar), al-Mahdiy (775-785 yillar) va Horun ar-Rashid (786-809 yillar) hukmronligi davridan boshlab Movarounnahr va Xurosonning turli viloyatlarini mahalliy zodagonlardan chiqqan dehqon-feodallar – Barmakiylar, Tohiriylar, Somoniylar boshqarishdi. Biroq Abbosiylar bunday choralar bilan bu mintaqalar xalqlarining mustaqillikka bo‘lgan

intilishini bo‘g‘olmadilar. Aksincha, bu intilish yanada kuchaydi. Mahalliy zodagonlar hokimiyatni qo‘lga olib, Abbosiy xalifalarga qaramlikdan qutulishni istashar edi.

Siyosat maydoniga birinchi bo‘lib Barmakiylar chiqishdi. Ularning ajdodlari ilgari Balxdagi Navbahor budda ibodatxonasi bosh kohinlari bo‘lib, islomni qabul qilishgan edi. Bu xonadondan chiqqanlar Abbosiy xalifalar huzurida yuqori lavozimlarni egallashardi. Masalan, ularning vakillari Tabariston, Mosul yoki Ozarbayjonda noib bo‘lishgandi. Ammo Xorun ar-Rashid hukmronligi paytida cheksiz vakolatga ega vazir etib tayinlangan Yahyo ibn Xolid Barmakiy g‘oyat katta obro‘-e’tiborga ega edi. U xalifalikda davlatni 17 yil davomida (786-803-yillar) boshqargan arab bo‘lmagan birinchi vazir edi.

Yahyoning to‘ng‘ich o‘g‘li Fadl Armaniston va Ozarbayjon noibi edi, 794-796-yillarda esa Xuroson noibi bo‘ldi. U xayriya ishlarini keng miqyosda olib bordi, jumladan, ko‘plab masjidlar va rabotlar qurdirdi, Balxda yangi kanal qazdirdi, Buxoroda Juma masjidini barpo etdi.

Biroq Xorun ar-Rashid Barmakiylar xonadonining siyosiy nufuzi tobora ortib borayotganidan cho‘chib, 803-yilda Yahyo va uning uch o‘g‘lini hibsga oldi. Yana bir o‘g‘li Ja’far xalifaning buyrug‘i bilan qatl etildi. Barmakiylar mulki musodara qilinib, o‘zlari esa barcha lavozimlardan mahrum etildi.

Shunday bo‘lsa-da, bu choralar bilan ham xalifalikda mahalliy zodagonlar vakillarini yuqori ma’muriy lavozimlarga ko‘tarish jarayonini to‘xtatib bo‘lmadi.

821-yilda xalifalikning shimoli-sharqiy hududlarida Tohiriylar sulolasi hokimiyat tepasiga keldi (821-873-yillar). Bu sulolaning asoschisi Tohir ibn Husayn edi. Tohirning olis ajdodi Roziq Salma ibn Ziyod davrida Sijiston noibi bo‘lgan Abu Muhammad Talha ibn Abdulloh al-Xuzoiyning mavlosi edi. Bobosi va otasi esa, o‘zi kabi, Xirot viloyatidagi Pushang (Bushanj) shahrining vorisiy hukmdorlari bo‘lishgandi. Xalifa al-Ma’mun hokimiyat tepasiga kelgach, Jaziyra noibi va Bag‘dod amirlashkari bo‘lgan Tohir xalifalikning siyosiy hayotida muhim rol o‘ynay boshladi. 821-yilda u Xuroson noibi etib tayinlandi. Movarounnahr ham Xuroson tarkibiga kirardi. Tohir ibn Husayn Xurosonni mustaqil hukmdor sifatida boshqardi, o‘z nomi bilan tanga zarb qildirdi. 822-yil noyabrida esa juma namozida xalifa al-Ma’munning nomini xutbadan tushirib qoldirdi. Bu musulmon olamida to‘la mustaqillikka ega bo‘lganlikni bildirardi. Tez orada Tohir ibn Husayn to‘satdan vafot etdi. Uning o‘limini xalifa al-Ma’mundan ko‘rishdi. Biroq Tohiriylarning mavqei shu darajada mustahkam bo‘lganidan xalifa uning o‘g‘li Talxani Xuroson noibi etib tayinlashga majbur bo‘ladi (822-828-yillar).

830-yilda bu yerda noiblik Tohirning boshqa o‘g‘li Abul Abbos Abdullohga o‘tdi (830-844-yillar). U amalda mustaqil noib edi. Eronning shimoli-sharqida joylashgan Nishopur shahri uning saltanati poytaxti bo‘lib qoldi. Abul Abbos Xuroson va Movarounnahrning qator shaharlarida, shu jumladan, bu vaqtda ko‘plab kumush

konlari mavjudligi tufayli mintaqa iqtisodiyotida muhim o‘rin tutgan Shosh viloyatida ham o‘z nomidan (kumush va mis) tanga zarb qildirdi.

Abdulloh ibn Tohir bu mintaqada o‘zining siyosiy va ma’muriy rolini mustahkamladi, qishloq xo‘jaligini hamda suvdan foydalanishni tashkil qilishda, yangi kanallar qazishda qat’iy choralar ko‘rdi. U, shuningdek, soliq tizimini ham tartibga keltirdi. Bu jihatdan Tohir ibn Husaynning Abdullohga yozgan maktubi g‘oyat e’tiborga loyiq. Maktubda soliq solish, davlatni boshqarish qoidalari va boshqalar bayon etiladi: «Shuni yodingda tutgilki, boylik xazinada ko‘paysa va yig‘ilsa, u foyda keltirmaydi, aksincha, ra’iyat ehtiyojiga, ularga lozim bo‘lganni to‘lashga hamda ularni tashvishdan xalos etishga sarflansagina ko‘payadi, boylikka boylik qo‘shilib boradi; xalq ommasining farovonligiga shu tariqa erishiladi, bu hukmdorlarni bezovchi narsadir. Davrning gullab-yashnashiga shu orqali erishiladi, shon-shuhrat va kuch-quvvat shu orqali keladi... Ayni mahalda yig‘ilishi kerak bo‘lgan yer solig‘ini to‘plashda shu orqali katta imkoniyat yuzaga keladi.... yig‘iladigan yer solig‘i ko‘payadi, natijada qo‘shinni o‘zingga qaram qilib olish hamda xalq ommasini in’omga ko‘mib tashlab, uni qanoatlantirish uchun kuch-qudratga ega bo‘lasan» (Давидович Е., 1977: 116).

Shu tariqa, Abdulloh ibn Tohir davlatni boshqarish bo‘yicha o‘z faoliyatida otasining nasihatlariga so‘zsiz amal qilgan.

Tohiriylar davrida hunarmandchilik va dehqonchilik gullab-yashnadi, shaharlar, shu jumladan, Buxoro ham rivojlandi. Arablar Movarounnahrni bosib olganidan so‘ng vujudga kelgan turg‘unlikdan keyingi jonlanish yuz bera boshladi. Hukmdorlar ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishga e’tiborni kuchaytirdilar, shoirlar va olimlarga homiylik qila boshladilar. Tohiriylar davrida Marvda mavjud bo‘lgan kutubxonaning shuhrati jahonga yoyilgandi. Unda arab qo‘lyozmalari bilan birga o‘rta fors tilidagi asarlar ham bor edi.

Tohiriylar e’tiqodli musulmonlardan bo‘lib, butun mamlakatni islomlashtirish siyosatini yuritishgandi. Zardushtiylik uzoq vaqt saqlanib turgan Ustrushonada islomni joriy etishda Tohiriylarning yordami katta bo‘ldi. Buyuk Abbosiy sarkarda, Ustrushonaning sobiq hukmdori, qadimgi dinning yashirin tarafdori ekanlikda hamda davlat to‘ntarishi qilishga tayyorgarlik ko‘rayotganlikda ayblangan Haydarning ustidan olib borilgan sud jarayonining tashabbuskori ham aynan Abdulloh ibn Husayn bo‘lgan edi. Tohiriylarning hukmronliklari davrida Movarounnahrda islom uzil-kesil g‘alaba qozondi. Mu’tasim davrida Movarounnahr aholisini mo‘min musulmonlar deb hisoblash mumkin edi va ularning o‘zlari «g‘azot» uchun jang qila boshlaganlar.

O‘z davrining buyuk farzandi Imom al-Buxoriy ayni Tohiriylar davrida tug‘ilib o‘sgan va ilm oldi. Tohiriylar sulolasining Xurosondagi hukmronligi yarim asr davom etdi. Shundan so‘ng ular yangi sulola Safforiylar (873-903-yillar) tomonidan ag‘darildi. Bu sulolaning asoschisi Ya’qub ibn Laysning kasbi miskarlik «saffor»

bo‘lib, sulolaning nomi shundan olingan. Biroq na Ya’qub ibn Lays, na birodari Amr (879-900-yillar) Movarounnahrning siyosiy hayotida biron-bir alohida rol o‘ynashmadi. Bu paytga kelib Movarounnahrning turli viloyatlari va shaharlarida hokimiyat amalda Somoniylar sulolasi vakillari qo‘lida edi.

Somoniylarning kelib chiqishi to‘g‘risida yetarlicha aniq ma’lumotlar mavjud emas. Qator olimlarning fikricha, ularning butun sulolaga nom bergan ajdodi Somon Farg‘onaning dehqon urug‘laridan bo‘lgan. Boshqa ma’lumotlarga qaraganda, Balx atrofidan, yana bir ma’lumotga ko‘ra esa, Termiz viloyatidan kelib chiqqan. Somonxudotning o‘g‘li Asad haqida hech narsa ma’lum emas. Biroq nabiralari Nuh, Ahmad, Yahyo va Ilyos haqida, ular 806-810-yillarda Buxoroda Rofe ibn Lays qo‘zg‘olonini bostirishda xalifa al-Ma’mun tarafida qatnashib yuqori lavozimlarga ega bo‘lishgani to‘g’risida ma’lumotlar bor. Xalifaning farmoyishi bilan Xuroson noibi Hasan ibn Abbod (819-821-yillar) Nuh ibn Asadni Samarqand hokimi etib, Ahmad ibn Asadni Buxoro hokimi, Yahyoni Shosh hokimi, Ilyosni esa Hirot hokimi etib tayinlagan. Xalifaning vafotidan so‘ng Ilyos o‘z mulkidan mahrum bo‘ldi.

Hozirgi kunda aniqlangan numizmatik ma’lumotlar ular yuqorida sanab o‘tilgan viloyatlarda hukmronlik qilgan vaqtlarini belgilash imkonini beradi. Nuh, Ahmad va Yahyo bu viloyatlar hokimi sifatida ko‘pincha xalifa yoki Tohiriylarni eslatmay, o‘z nomidan mis tangalar zarb qilish huquqiga ega edilar. Biroq Ilyos zarb qildirgan tanga hozircha topilgani yo‘q. Ularni sulola sifatida qarash mumkin bo‘lgan davrning dastlabki bosqichida Nuh xonadon boshlig‘i hisoblangan. Somoniylarning ilk tangalari uning nomidan 829-830-yillarda zarb qilingan.

Nuh ibn Asad vafotidan so‘ng uning ukasi Ahmad ibn Asad sulola boshlig‘i bo‘lib qoldi. U ilgari in’om etilgan mulklarni vorisiy mulkka aylantirdi va ular bu mulklarni o‘z ixtiyorlaricha tasarruf eta boshladilar. Chunonchi, Ahmad ibn Asad Farg‘onada hokimligicha qoldi, Samarqand va uning atrofini o‘z o‘g‘li Nasrga tortiq qildi.

855-yilda, Yahyo ibn Asadning vafotidan keyin Shoshni Abu Yusuf Ya’qub ibn Ahmad boshqara boshladi, numizmatika ma’lumotlari ham buni tasdiqlaydi. Shoshda shu hukmdor nomidan zarb etilgan tangalar ma’lum.

Farg‘ona Nasrning boshqa bir birodari Abul Abbos Asad qo‘liga o‘tdi. U ham shu viloyat poytaxti Axsikatda o‘z tangasini zarb qildirdi.

Buxoroda ahvol birmuncha boshqacha edi. Bu shaharni Husayn ibn Tohir besh kunlik qamaldan so‘ng qo‘lga kiritadi. Uning qo‘shinlari shaharda qirg‘in qilgach, Buxoroning ko‘p joyi yonib kul bo‘ldi. Bu bedodlikdan g‘azabga mingan buxoroliklar isyon ko‘tarib, Husayn ibn Tohirni shahardan haydashdi. Shundan so‘ng Tohiriylar Movarounnahrdagi hukmronlikdan mahrum bo‘lishdi.

Shu yilning o‘zida Nasr ibn Ahmad Buxoroni birodari Ismoil ibn Ahmadga in’om etdi. Shunday qilib, bu paytga kelib Movarounnahr deyarli butunlay Somoniylar sulolasi vakillari qo‘liga o‘tgan edi.

Bu paytda hukmronlik qilib turgan Abbosiy xalifa Mu’tasim bunday ahvol bilan hisoblashishga majbur bo‘lib, Movarounnahrdagi butun hokimiyatni Nasr ibn Ahmadga berdi. Biroq Nasr ibn Ahmad o‘z og‘a-inilari bilan munosabatlarni yaxshi yo‘lga qo‘ya olmadi. Aftidan, ularning har biri o‘zini mustaqil hukmdor deb hisoblar edi. Zarb qilingan tangalar ham, jumladan, shundan dalolat beradi. Shoshda Ya’qub ibn Ahmad, Farg‘onada Asad ibn Ahmad o‘z nomidan tangalar zarb qilib, unda Nasr ibn Ahmadning nomini oliy hokimiyat egasi sifatida eslashmadi. Nasr ibn Ahmad bilan Ismoil ibn Ahmad o‘rtasida kurash keskinlashib, harbiy to‘qnashuvlarga aylanib ketdi. Bu kurash 892-yilgacha, Nasrning vafotiga qadar 18 yil davom etdi.

Ismoil ibn Ahmad isyonlarni bostirib, o‘zaro nizolarni tugatib, Xuroson hukmdori Amr ibn Lays Safforiy tomonidan bo‘lgan tashqi tahdidni ham bartaraf qildi. Ismoil ibn Ahmad uning qo‘shinlarini Buxoro ostonalarida va keyingi janglarda yakson qilib, Xurosonda yakka hokim bo‘lib qoldi. U, shuningdek, Movarounnahrga tahdid solgan ko‘chmanchilarga qarshi ham bir necha bor yurish qildi.

Bu harakatlar hamda ichki tadbirlarni amalga oshirishi natijasida Ismoil ibn Ahmad Abbosiy xalifalardan mustaqil bo‘lgan markazlashgan kuchli davlat barpo etdi. Uning tarkibiga, Movarounnahrdan tashqari, Eronning shimoli-sharqiy viloyatlari, hozirgi Afg‘onistonning janubiy hududlari ham kirdi.

Biroq, 907-yilda vafot etgan Ismoil ibn Ahmaddan keyin Somoniylar hukmronligi asta-sekin tanazzulga yuz tuta boshladi. Shunga qaramay, bu sulola XI asr boshiga kelibgina, Qoraxoniylar tazyiqi ostida tugab bitdi. Uning so‘nggi hukmdori al-Muntasir 1005-yilda o‘ldirildi.

Shundan so‘ng Movarounnahrda va umuman Markaziy Osiyoda turkiy sulolalar hukmronligi davri boshlanib, u ming yil davom etdi.

To‘qqizinchi asr ahamiyatiga ko‘ra Movarounnahr tarixidagi ulkan davrdir. Bu mahalda siyosiy jihatdan Mag‘ribda Shimoliy Afrika va Andalusiyada ham, Mashriqda mahalliy davlatchilik tiklangan Movarounnahr, Xurosonda ham Abbosiylar davlatining birligiga putur yeta boshladi.

Movarounnahrda, ayniqsa, IX-X asrlarda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda jiddiy o‘zgarishlar bo‘ldi. Muarrixlardan Utbiy, Narshaxiy, Gardiziy va boshqalarning ma’lumotlariga ko‘ra, o‘sha davrda safforiy va sosoniy amirlar, eski aslzoda zamindorlar, musulmon ruhoniylari, turkiylar gvardiyasining yuqori tabaqasi (Alp Tegin, Sabuk Tegin, Abu Ali Simjuriy, Foiq va boshqalar), savdogarlar hukmron sinf sanalgan. Ular ulkan yer-suv zaxiralarini va hisobsiz boyliklarni o‘z qo‘llarida jamlab, mehnatkash xalq jamoa dehqonlari va shaharning kambag‘al aholisi kuchidan shafqatsiz foydalanishardi.

Movarounnahr viloyatlarida, ayniqsa, Zarafshon, Surxon, Iloq vodiylarida, Farg‘ona, Shosh, Xorazmda dehqonchilik rivoj topgandi: bug‘doy, sholi, tariq, yasmiq, mosh, beda, paxta, poliz ekinlari va boshqa ekinlar yetishtirilardi.

Shaharda ham, qishloqda ham hunarmandchilik xo‘jalik faoliyatida katta o‘rin tutardi. O‘sha olis davrlarda yashab o‘tgan Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Abu Bakr al-Muqaddasiy (al-Maqdisiy, 946/47-1000-yillar), Abul Qosim ibn Havqal (976-yilda vafot etgan), Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far Narshaxiy (899-959-yillar) va boshqa tarixchi hamda geograf olimlar asarlarida mamlakatdagi hunarmandlik ishlab chiqarishi ichki ehtiyojni qoplabgina qolmay, balki Movarounnahr ustalari yasagan buyumlar tashqi bozorga ham chiqarilgani to‘g‘risida ma’lumotlar bor. Kon ishlari ham rivojlangan edi. IX-X asrlar tarixchilari va geograflari ma’lumotlariga ko‘ra, o‘sha paytlarda Movarounnahr konlaridan temir, qo‘rg‘oshin, oltin, kumush, mis, oltingugurt, navshadil, tuz, qimmatbaho toshlar, qurilish ashyolari va hokazolar qazib olingan.

Movarounnahr shaharlari, ayniqsa, Buxoro, Samarqand, Shosh, Gurganj va boshqalar O‘rta va Yaqin Sharq mamlakatlari, Volgabo‘yi, Hindiston, Xitoy bilan iqtisodiy aloqalar o‘rnatgan edi. Bu haqda Ibn Xo‘rdodbeh, Ibn Fadlon, Mosuliy, Gardiziy, Ibn Havqal asarlarida aniq ma’lumotlar ko‘p bo‘lib, Volgabo‘yida, O‘zbekistonda (Xorazmda), Turkmanistonda va Tojikistonda olib borilgan arxeologik qazishma materiallari ham buni tasdiqlamoqda.

Mamlakatning iqtisodiy aloqalarini mustahkamlash, markaziy davlat apparatini kuchaytirish, tinchlik va osoyishtalikni o‘rnatish natijasida aholining moddiy ahvoli yaxshilandi. Biroq dehqonlar uchun ahvol og‘ir edi. Ularning soliq va o‘lponlar to‘lashi, jamoat ishlariga – qal’a-qo‘rg‘onlar, yo‘llar, ko‘priklar, irrigatsiya inshootlari, masjid-madrasalar qurish yoki ularni ta’mirlashga majburiy jalb etish hollari davom etdi. Bundan tashqari, dehqonlar va hunarmandlarga mahalliy hukmdorlar hamda amaldorlar, ayniqsa soliq yig‘uvchilar qattiq zulm o‘tkazishardi. Bu haqda ma’lumotlar Narshaxiy va uning zamondoshlari bo‘lgan tarixchilar asarlarida uchraydi.

Shunday holatlar uchrab turganiga qaramay, erishilgan iqtisodiy va siyosiy barqarorlik ayni mahalda ilm-fan va madaniyatning rivojlanishiga yordam berdi-ki, bu haqda ko‘plab manbalar guvohlik beradi.

O‘sha davrda Abu Ali Husayn ibn Ahmad as-Sulamiy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad al-Buxoriy, Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far Narshaxiy, Abu Sa’id Abdurrahmon ibn Muhammad al-Idrisiy, Abul Xoris Asad ibn Hamduyi al-Varsiniy, Abu Ahmad ibn Muhammad ibn Sa’id va boshqalar Buxoro, Samarqand, Kesh, Nasaf va Xorazm tarixi bo‘yicha ajoyib asarlar yaratdilar.

Abu Zayd Ahmad ibn Sahl al-Balxiy va Jayhoniy «Taqsim al Buldon» («Shaharlarning taqsimlanishi») va «Ajoyib al-Buldon» («Mamlakatlar ajoyibotlari») singari g‘oyat qimmatli risolalar bitdilar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Movarounnahrda matematika, astronomiya, tib fanlari yuksak darajada rivoj topdi. Al-jabrning asoschisi Abu Ja’far Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, astronomiyaga oid bir qator asarlar muallifi Ahmad al-Farg‘oniy, al-Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon al-Beruniy IX-XI asrlarda ayni shu zaminda yashaganlar.

Matematika fani, ayniqsa, uning juda muhim qismi geometriya (handasa)ning rivojlanishi ustalar, yirik diniy va jamoat binolari me’morlari hamda loyihachilari tajribasi ortishiga yordam berdi. Buxorodagi Somoniylar maqbarasi, Timdagi Arab ota maqbarasi, Samarqand (Afrosiyob)dagi saroylar qoldiqlari va boshqalar buning yorqin dalilidir. IX-X asrlarda adabiyot ham ancha rivojlandi. O‘ttizga yaqin shoir va olimlar: Rudakiy, Shohid Balxiy, Abu Shukur Balxiy, Abu Tohir Tayyib Xusravoniy, Abu Mansur Muhammad ibn Ahmad Daqiqiy va boshqalarning nomlari Avfiy va boshqa mualliflarning tarixiy risolalari orqali bizgacha yetib keldi.

Shu davrning o‘zida me’morlikda binokorlikning yangicha turlari - masjidlar, minoralar, madrasalar, xonaqohlar, maqbaralar, rabotlar vujudga kelib, yetakchi o‘ringa chiqa boshladi. Qurilishda ko‘proq pishiq g‘isht ishlatila boshlandi. Avval uni faqat sahnga, oyoq ostiga to‘shalardi. Me’moriy yodgorliklar va keramikada esa odamlar va hayvonlar aks ettirilgan devoriy rasmlar, monumental haykaltaroshlik o‘rnini naqsh san’ati egalladi.

Keramikaning yangi turi sirkor keramika yuzaga kela boshladi. San’atning ilgarigi diniy qarashlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan antropomorf terrakota singari ommaviy turi yo‘qolib bordi.

Diniy jihatdan olganda, Movarounnahr, u bilan qo‘shni sharqiy va shimoli-sharqiy hududlar aholisi deyarli islomga kirib bo‘lgan, eski dinlar buddaviylik, zardushtiylik, moniylik unutilishga mahkum etilgandi. Islom Jayxundan sharq tomonga qarab yastanib yotgan ushbu ulkan mintaqadagi har bir kishining hayotiy me’yoriga aylana boshladi.

Movarounnahr islom sivilizatsiyasi markazlaridan biriga aylandi. Bu mintaqa jahonga Imom Muslim an-Naysaburiy, Imom at Termiziy, Imom an-Nasoiy, Imom ad-Doromiy as-Samarqandiy va Imom al-Buxoriy kabi buyuk olimlarni yetishtirib berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Al-Tabari, Muhammad ibn Jarir. (1985). The History of al-Tabari, Volume 27. – New York.

2. Азизходжаев Б. (2003). Мовароуннаҳрда ислом дини тарқалиши ва унинг ижтимоий таъсири. – Тошкент: Ўзбекистон.

3. Azimbayeva N. (2023). Central Asia and Kazakhstan in the scientific heritage of academician B. Akhmedov // Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, № 11. – P. 479-486.

4. Ал-Балазури. (1987). Завоевание Хорасана. – Душанбе.

5. Аҳмедов Л. (2005). Мусулмон шарқида дин ва давлат муносабатлари (VIII–XII асрлар). – Тошкент: Фан.

6. Босворт К. (1971). Мусульманские династии. – Москва.

7. Гафуров Б. (1989). Таджики. Кн. 2. – Душанбе.

8. Давидович Е. (1977). Новые данные по истории Саманидов. – Москва.

9. Наршахий, Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар. (1991). Бухоро тарихи. – Тошкент: Фан.

10. Ҳайитметов А. (1999). Имом ал-Бухорий – буюк муҳаддис. – Тошкент.

REFERENCES:

1. Al-Tabari, Muhammad ibn Jarir. (1985). The History of al-Tabari, Volume 27. – New York.

2. Azizxodjaev B. (2003). Movarounnahrda islom dini tarqalishi va uning ijtimoiy ta’siri. – Toshkent: O‘zbekiston. (In Uzbek)

3. Azimbayeva N. (2023). Central Asia and Kazakhstan in the scientific heritage of academician B. Akhmedov // Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, № 11. – P. 479-486.

4. Al-Balazuri. (1987). Zavoevanie Xorasana. – Dushanbe. (In Russian)

5. Ahmedov L. (2005). Musulmon sharqida din va davlat munosabatlari (VIII–XII asrlar). – Toshkent: Fan. (In Uzbek)

6. Bosvort K. (1971). Musulmanskie dinastii. – Moskva. (In Russian)

7. Gafurov B. (1989). Tadjiki. Kn. 2. – Dushanbe. (In Russian)

8. Davidovich E. (1977). Novie dannie po istorii Samanidov. – Moskva. (In Russian)

9. Narshaxiy, Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far. (1991). Buxoro tarixi. – Toshkent: Fan. (In Uzbek)

10. Hayitmetov A. (1999). Imom al-Buxoriy – buyuk muhaddis. – Toshkent. (In Uzbek)

O‘ZBEKISTONLIKLAR VA MISRLIKLAR O‘RTASIDAGI HAMKORLIK ALOQALARINING TARIXIY ILDIZLARI

HISTORICAL ROOTS OF COOPERATION RELATIONS BETWEEN UZBEKS AND EGYPTIANS

ИСТОРИЧЕСКИЕ КОРНИ СОТРУДНИЧЕСТВА МЕЖДУ УЗБЕКАМИ И ЕГИПТЯНАМИ

Bobojonov Islombek Usmonaliyevich
Oriental universiteti
Tarix kafedrasi dotsenti, t.f.f.d. (PhD)
Tel.: +998 97 454-66-88
E-mail: islombekbobojonov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbekistonliklar va misrliklar o‘rtasidagi hamkorlik aloqalari tarixiga to‘xtalib o‘tilgan. Ya’ni ikki xalq aloqalarining tarixiy ildizlari yoritilgan. Islom dinining kirib kelgandan keyingi davrda har ikki xalq hudud jihatdan bir-biriga nisbatan uzoq bo‘lsa-da, biroq din jihatdan umumiylik sababli ular o‘rtasida aloqalar faol tarzda olib borilganligini kuzatish mumkin. Ushbu aloqalarning dastlabki davrida Misrda mustaqil davlatga asos solgan farg‘onalik ixshidiylar, Mamluklar sultonligida hokimiyatni qo‘lga olgan so‘nggi Xorazmshoh – Sayfuddin Qutuz muhim o‘rin tutadi. Amir Temur va temuriylar davrida esa har ikki xalq o‘rtasida jiddiy raqobatga asoslangan hamkorlik aloqalarini kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, maqolada O‘zbekiston SSR (O‘zSSR) va Misr Arab Respublikasi o‘rtasidagi hamkorlik aloqalari, mustaqillik yillarida O‘zbekiston va Misr Arab Respublikasi o‘rtasidagi hamkorlik aloqalari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *mamluk, ixshid, Amir Temur, temuriylar, xalq diplomatiyasi, elchixona, Misr, xalqaro aloqalar.*

Annotation: This article explores the history of cooperative relations between Uzbeks and Egyptians, shedding light on the historical roots of their interactions. Although these two peoples were geographically distant from each other, following the spread of Islam, they maintained active ties due to their shared religion. In the early stages of these relations, significant roles were played by the Ikhshidids – who established an independent state in Egypt and originated from the Fergana region – as well as by the last Khwarazmshah, Sayf al-Din Qutuz, who seized power in the Mamluk Sultanate. During the era of Amir Temur and the Temurids, cooperation between the two nations was marked by intense rivalry. The article also analyzes the cooperative relations between the Uzbek SSR and the Arab Republic of Egypt, as well as the bilateral cooperation between independent Uzbekistan and Egypt in the post-Soviet period.

Keywords: *Mamluk, Ikhshid, Amir Temur, Temurids, public diplomacy, embassy, Egypt, international relations.*

Аннотация: В данной статье рассматривается история сотрудничества между узбекистанцами и египтянами, освещаются исторические корни их взаимоотношений. Несмотря на территориальную удалённость двух народов после распространения ислама, благодаря религиозному единству между ними активно развивались связи. В ранний период этих отношений важную роль сыграли ихшидиды, происходившие из Ферганы и основавшие независимое государство в Египте, а также последний хорезмшах – Сайфиддин Кутуз, захвативший власть в султанате мамлюков. Во времена Амира Темура и темуридов можно наблюдать сотрудничество, основанное на серьёзном соперничестве между двумя народами. Кроме того, в статье анализируются отношения сотрудничества между Узбекской ССР и Арабской Республикой Египет, а также двусторонние связи между независимым Узбекистаном и Египтом в постсоветский период.

Ключевые слова: *мамлюк, ихшид, Амир Темур, темуриды, народная дипломатия, посольство, Египет, международные отношения.*

KIRISH

O‘zbekistonliklar va misrliklar o‘rtasidagi hamkorlik aloqalari tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Xususan, o‘rta asrlar davrida garchi hudud jihatdan bir-biriga nisbatan uzoq bo‘lsa-da, biroq din, madaniyat, ilm-fan jihatdan umumiylik va yaqinlik sababli bu ikki xalq o‘rtasida aloqalar faol tarzda olib borilgan deyish mumkin.

Ushbu aloqalarning dastlabki davri Islom dini Movarounnahrga kirib kelgandan keyin amalga oshirila boshlanadi. Arab xalifaligida abbosiylar hokimiyati davrida xalifalar, xususan, xalifa Ma’mun davridan boshlab harbiy ishlarda turk g‘ulomlarining xizmatidan foydalanish boshlanadi.

Shuningdek, Bag‘dodda “Baytu-l-hikma”ga asos solinishi bilan Movarounnahr olimlarining u yerga taklif qilinishi orqali poytaxt Bag‘dodda katta ilmiy jamoa faoliyat yurita boshladi va ushbu ilmiy markaz olimlari xizmatidan butun xalifalik hududida foydalanildi. Xususan, Al-Farg‘oniy Misrning Nil daryosida suv oqimining hajmi va tezligini o‘lchaydigan asbobni yuksak bilimdonlik bilan ta’mirlaydi. Uning nomi Ahmad al-Farg‘oniyning fanniy olami Nilomer deb ataladi, u miqyos an-Nil yoki Miqyosi jadid ham deyiladi (Fayzullayev O., 2008: 8).

Keyingi davrda Misrda asli buxorolik Ahmad ibn Tulun tomonidan birinchi mustaqil islomiy davlatga asos solinishi, undan keyin farg‘onalik ixshidiylar Misrda mustaqil davlatga asos solishi, Jaloliddin Manguberdining jiyani Sayfuddin Qutuz tomonidan Mamluk sultonligida hokimiyat egallanishi orqali Misrda vatandoshlarimiz alohida tarix yaratdi. Shuningdek, Amir Temur davrida Misrdagi Mamluk sultonligi

bilan ziddiyatli raqobat, Shohrux mirzo va Ulug‘bek mirzo davrida esa biroz iliq munosabat shakllanganini alohida qayd etish zarur.

Sovet Ittifoqi davrida O‘zSSR va Misr Arab Respublikasi o‘rtasida ko‘plab hamkorlik aloqalari amalga oshirilgan. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach esa o‘zbekistonliklar va misrliklar o‘rtasidagi diplomatik aloqalar yangi bosqichga ko‘tarildi. Misr Arab Respublikasi 1991-yil 26-dekabrda O‘zbekistonni rasman mustaqil davlat deb tan oldi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ushbu mavzu alohida tadqiqot mavzusi sifatida tadqiq etilmagan. Biroq tarixchilar tomonidan ushbu ikki xalq aloqalarining turli davrlari haqida to‘xtalib o‘tilgan. Xususan, Z. Aripova tomonidan Misrdagi Mamluklar sultonligi tarixiga bag‘ishlangan doktorlik dissertatsiyasi himoya qilingan va “O‘rta asrlarda Markaziy Osiyo – Misr munosabatlari” monografiyasi nashr etilgan. B. Abdirimov, G‘. Atajanovlar tomonidan “Sayfuddin Qutuz – so‘nggi zarba” monografiyasi tayyorlangan. Ushbu tadqiqot ishida Jaloliddin Manguberdining jiyani Misr yerlarida Mamluklar sultonligida hokimiyatni qo‘lga olganligi va keyingi siyosiy faoliyati haqida so‘z yuritiladi. Bir qancha temurshunos olimlar tomonidan Amir Temur va temuriylar davri o‘rganilib, uning xalqaro munosabatlardagi faoliyatiga doir bir qancha tadqiqotlar olib boriladi. Xususan, B. Axmedov, Sh. Kamoliddin, Sh. O‘ljayevalar tomonidan mavzuga doir maqolalar va monografiyalar tayyorlangan. Sovet Ittifoqi davrida o‘zbekistonliklar va misrliklar o‘rtasidagi hamkorlik aloqalari kengayib boradi. Bu ma’lumotlar, asosan, arxiv materiallari asosida saralab olinadi. Shuningdek, Lutfiddin Xodjayev, Ahmad Tohir hammuallifligida “O‘zbekiston va Misr hamkorligi” mavzusidagi monografiya chop etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O‘zbekistonliklar va misrliklar o‘rtasidagi hamkorlik aloqalarining tarixiy ildizlari mavzusini tadqiq etishda xolislik, analiz, sintez, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tarixiy tahlil, xronologik uzviylik uslublardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

IX asr oxiri – X asr boshlarida Bag‘dodning zaiflashib borishi ma’lum hududlarda mustaqillik uchun harbiy harakatlar boshlanishiga imkoniyat yaratib berdi. Shunday mustaqil davlatlardan biri Misr va Shomda tashkil topdi. Mazkur davlatga 868-yilda Ahmad ibn Tulun asos soldi va Tuluniylar nomi bilan tarixda qoldi (Muhammad Yusuf M.S., 2018: 183). Ahmad ibn Tulunning kelib chiqishi Turkiston hududiga borib taqalishini inobatga olsak, ushbu davrdan bizning hududimiz aholisi bilan misrliklar o‘rtasida manfaatli aloqalarga asos solindi. Ahmad ibn Tulunni Z. Aripova o‘z izlanishlarida asli buxorolik qul Tulunning o‘g‘li deb ma’lumot beradi (Muhammad Yusuf M.S., 2018: 197). Tuluniylar davlati Misrda mustaqil bo‘lgan birinchi islomiy

davlatdir. Ahmad ibn Tulunning otasi Turkistondan kelgan qul bo‘lib, u xalifa Ma’munning qo‘riqchilari boshlig‘i bo‘lgan. Ahmad ibn Tulun Misrni o‘ziga mustaqil davlat qilib olgach, u yerda juda katta qo‘shin to‘pladi va Shom yurtlarini ham egallab oldi. Mazkur davlat milodiy 905-yilda parchalanib ketadi.

Misrda hukmronlik qilgan davlatlardan yana biriga ixshidiylar tomonidan asos solinadi. Ixshidiylar asli farg‘onalik turklardir. Bu davlatning asoschisi Muhammad Ixshid ibn Tag‘ij bo‘lib, u Ibn Tulunning ozod qilgan qullaridan hisoblanadi. Tuluniylar davlatidan keyin o‘ttiz yil, ya’ni hijriy 293-323 (milodiy 906-935) yillar mobaynida Misr to‘g‘ridan-to‘g‘ri abbosiylar xalifasiga bo‘ysundi. Ana shu vaqtda Muhammad Ixshid Roziy ismli g‘ulom xalifa tomonidan Misrga voliy qilib qo‘yildi (Muhammad Yusuf M.S., 2018: 197).

O‘zbekistonliklar va misrliklar o‘rtasidagi hamkorlik aloqalarida so‘nggi Xorazmshoh – Sayfuddin Qutuz alohida ahamiyatga ega. Sayfuddin Qutuz buyuk xorazmshoh Jaloliddin Manguberdining opasi Xon Sultonning o‘g‘li hisoblanadi. U Xorazm yerlarida, Anushteginiylar saroyida dunyoga keldi. Mo‘g‘ullar bosqini davrida oiladagi ko‘pchilik qatori asir tushib, hayoti sarson-sargardonlikda kechdi.

Chingizxon tomonidan tuzilgan Mo‘g‘ullar imperiyasining 1219-yil sentyabrida O‘trorga birinchi zarbani berishi bilan Xorazmshohlar saltanatiga hujum boshlandi va 1221-yilga qadar harbiy harakatlar olib borildi (Buniyotov Z., 2023: 238). 1221-yilda saltanat poytaxti Urganch bosib olingach, Chingizxon saroydagi sulton xonadoniga mansub bo‘lgan ayol-erkak, yosh-u qari barchasini asir qilib oladi. Asir olinganlar orasida Alovuddin Muhammadning katta qizi Xon Sulton ham bor edi. Xon Sultonni Dushixon (Chingizxonning to‘ng‘ich o‘g‘li Jo‘jixon) o‘ziga xotinlikka mo‘ljallaydi (Nasaviy Sh., 2018: 120). Xon Sulton o‘zi aslida Samarqand hukmdori sulton Usmonga hijriy 547-yilning bahorida (1201-yilning aprelida) turmushga chiqadi. Uning vafotidan keyin, Juvayniyning aytishicha, Xon Sulton Ili daryosi havzasi yaqinidagi o‘rta asr shahri bo‘lgan Emilda yashovchi bo‘yoqchiga erga beriladi. Bo‘yoqchi umrining oxiriga qadar u bilan yashagan deyiladi. Ibn Xoldun ham shunga o‘xshash ma’lumot beradi. Biroq bu ma’lumot noto‘g‘ri. Chunki Xon Sulton Jo‘jiga tegadi. Ulardan Oltin O‘rdaning ilk musulmon xoni Berka Sulton dunyoga keladi (Bobojonov I., 2024: 34). Muslima ona tarbiyasida ulg‘aygan Berka Sulton keyinchalik arab xalifaligi poytaxti ustiga yurish qilgan qarindoshi Xulaguxonga qarshi chiqib musulmonlarni himoya qilishga urinadi. Xon Sulton bilan birga uning o‘g‘li Mahmud ibn Mamdud ham asir qilib olingach, mo‘g‘ullar uni biroz muddat o‘z qo‘lida saqlab, qullar bilan urushtirib tomoshalar tashkil qiladi. Keyinchalik esa Shom diyoridagi qul bozoriga olib borib sotib yuboradi. Ismi Mahmud ibn Mamdud bo‘lsa ham, u Sayfuddin Qutuz nomi bilan mashhur bo‘ldi. Qutuz nomi haqida olimlar tomonidan turlicha fikrlar ilgari suriladi. Xususan, “Qutuz” – so‘zining kelib chiqishi turkiycha bo‘lib, “Qutuz” so‘zining o‘zagi bo‘lgan “qut” so‘zidan olingan va bu odatda, “baraka”

so‘zi bilan qo‘shma so‘z sifatida ishlatiladi. Ayrim tarixchilar tomonidan “Qutuz” – “quturgan it” degan ma’noni anglatishi aytiladi (Abduraimov B., 2023: 96).

Sayfuddin Qutuz Shom diyorida biroz vaqt qul bo‘lib xizmat qilgach, uni Misrdagi qul bozoriga olib kelib sotishadi. Ma’lumki, 1260-1517-yillar davomida Misr, Shom va Hijozda Mamluklar sultonligi (qullar davlati) hukmronlik qiladi. Ushbu davlat Ayyubiylar davlati tarix sahnasidan ketgach, uning o‘rnida tashkil topadi.

Mamlakatda o‘zi shundoq ham siyosiy vaziyat izdan chiqish arafasida edi. Shu vaqtda Xulaguxon boshliq mo‘g‘ullar imperiyasi tomonidan Islom dunyosiga hujumlar tashkil qilinib, shaharlar vayron qilinayotgan edi. Bag‘dod vayron qilingan va keyingi nishon Misr bo‘lishi aniqlashib qolgan edi.

Rashiduddin o‘zining “Jome’u-t-tavorix” asarida keltirishicha, hijriy 658-yilning jumadu-s-soniy (milodiy 1260-yil iyun) oyida Xulaguxon Suriyadaligida mo‘g‘ul choparini 40 nafar xizmatkor bilan Misrga yuborib, undan Chingizxonga bo‘ysunishni, xiroj yuborishni va sultonning o‘zi Xulaguxon huzuriga kelib, shihnalikni so‘rashni talab qiladi va aks holda, urushga tayyorlanishni buyuradi. Shu solnomada xorazmshoh Jaloliddinning ba’zi amirlari ko‘p sarguzashtlardan so‘ng Misrga borib qolganliklari aytiladi. Ularni mamluk sultoni al-Malik al-Muzaffar Sayfuddin Qutuz (1259-1260) qabul qilib, mehribonlik ko‘rsatadi, ahvollaridan xabar oladi va ko‘p mollar in’om qiladi. Xulaguxonning choparlari kelganda Qutuz amirlarini maslahat uchun to‘plab, ulardan qanday ish tutish haqida so‘raydi. Xorazmiylarning amiri Nasiruddin Muhammad Kaymuriy bunday dedi: “Agar biz Xulaguning himoyasiga borsak, sharmandagarchilik bo‘lmaydi, ammo piyolada zahar borligini bila turib, undan ichish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘limga borish, bu aqldan uzoqdir. Xulagu majburiyatlari va va’dalarini bajarmaydi, chunki u bitim va va’dalardan so‘ng ismoiliylarning boshlig‘i Hurshohni, xalifa al-Musta’simni va boshqalarni o‘ldirdi. Agar uning huzuriga boradigan bo‘lsak, u biz bilan ham xuddi shunday qiladi”. Qutuz dedi: “Agar biz mo‘g‘ullardan oldin harakat qilmasak, u holda boshqa mamlakatlar bilan bo‘lganidek, Misr ham tezda vayron qilinadi. Bizning mamlakatimizga qasd qilayotgan bu odamlarga nisbatan uch choradan birini qo‘llash kerak: yo yarashmoq, yo jang qilmoq, yoki vatanni tark etmoq”. Shunda Nasriddin Kaymuriy dedi: “Yarashishning foydasi yo‘q, chunki ularning va’dasiga ishonib bo‘lmaydi!”. Sulton Qutuz mo‘g‘ullar bilan jang qilishga qaror qildi (Buniyotov Z., 2023: 239).

Misrlik mamluk qo‘shinlarining mo‘g‘ullar bilan jangi hijriy 658-yil ramazon oyining 25-kunida (milodiy 1260-yil 4-aprel) Falastinda, Ayni Jalut degan joyda bo‘ldi. Ma’lumki, bu jang mo‘g‘ullarning qaqshatqich mag‘lubiyati va qochishi bilan tugadi. Sulton Qutuzning o‘ziga kelsak, al-Makriziy bunday yozadi: “Aytishlaricha, uning ismi Mahmud ibn Mamdud edi, uning otasi sulton Jaloliddinning amakisining o‘g‘li edi. Qutuzni totorlar asir olganlar va uni Damashqqa sotganlar, u yerdan u Qohiraga olib ketilgan”.

Xorazmliklar Misrda, Suriya shimolida, Iroqda va Onadulining janubi-g‘arbida o‘troq bo‘lib qoldilar. Ularning avlodlari hozirgi kunda ham Iroqning shimolida Mosul va Qirko‘k atrofidagi qishloqlarda yashaydilar, ular o‘zlarini turkman deydilar. Onadulida ular xurzumlu deb ataladilar va hozirgi kunda Xurzum deb ataladigan qishloqlarda yashaydilar. Shunday qishloqlardan sakkiztasi Egey dengizi sohilida Manisa (Turkiya) viloyatida joylashgan.

Amir Temur va temuriylar davrida Misrdagi Mamluklar sultonligi bilan aloqalar har qachongidan faollashdi. 1382-yilda Misrda hokimiyat tepasiga kelgan Sulton az-Zohir Barquq, boshliq cherkas mamluklari davlati o‘z tarkibiga kirgan Suriya, ularga tobe bo‘lgan va muqaddas sajdagohlar makoni Hijoz bilan birgalikda qudratli kuchga aylangan bo‘lib, sharqdagi qo‘shni mamlakatlar uchun himoya vazifasini o‘tardi. (O‘ljayeva Sh., 2018: 60).

Amir Temur davrida Misr mamluklari bilan munosabatlar ziddiyatli tus oladi. Temur Tabrizda hukmronlikni qo‘lga kiritgan Qora quyunlilar hukmdori Qora Yusuf Turkman (791/1389—823/1420) dan bir necha bor itoat etishni talab etgan. Uning otasi Qora Muhammadni esa Temur ilgaridan haj va savdo karvonlariga bosqinchilikda ayblab kelgan va o‘zining ashaddiy dushmani deb bilgan. Qora Yusuf Turkman Temurning itoat borasidagi talabini rad etgan. Buning ustiga to‘qnashuvlardan birida Avnik qal’asiga Temur tomonidan hukmdor etib tayinlangan Atalmish Qavchin ismli shaxsni 1388-yilda asir olib Qohiraga, mamluklar sultoni huzuriga yuborgan va u yerda zindonga tashlagan edi.

Bundan tashqari, Misr mamluklari Sohibqiron Amir Temurning ashaddiy dushmani Sulton Ahmad ibn Uvaysga mamlakatdan panoh bergan edilar. Shunga ko‘ra, Sohibqiron maktublaridan birida Misrga qochib kelgan Bag‘dod hokimi Sulton Ahmad ibn Uvaysni yuborishni, ya’ni Misrdan chiqarib yuborishni talab qilgan edi. Misr mamluklari xalqaro udumlarni oyoq osti qilib, Sohibqiron elchilarini bandga solar yoki o‘ldirar edilar.

Temuriy shahzodalar, xususan, Shohrux mirzo va Ulug‘bek mirzolar davrida mamluklar bilan biroz iliqroq munosabat davom etdi. 1422-yil mamluk davlati taxtiga sulton Barsbay chiqdi. 1425-yil yanvar oyida Shohrux tomonidan Barsbayga bir elchi borganligi ma’lum. Lekin manbalarda elchining nima sababdan kelganligi bildirilmagan. Faqat elchi to‘qqiz oy yo‘l yurib kelganligi va elchi uchun 28-yanvarda tantanali qabul marosimi o‘tkazilganligi ma’lum. 1429-yil 13-oktyabr kuni Shohrux tomonidan yana bir elchilik hay’ati Qohiraga yetib bordi. Elchilar mamluk sultoni Barsbayga Shohrux va Sheroz hokimi Ibrohim sultonning maktub va qimmatli sovg‘a-salomlarini yetkazdilar. Shohrux Barsbayga yuborgan maktubida undan Ibn Hajar Asqaloniyning Imom Buxoriyning “Sahihu-l-Buxoriy” nomli kitobiga yozgan sharhini va Taqiyuddin Maqriziyning “Kitobu-s-Suluk” deb nomlangan kitobini yuborishini so‘ragan. Bundan tashqari, undan Ka’baga kisva yoptirish va Makkayi Mukarramaga

suv yo‘li qurishni xohlashini bildirgan. Mamluk sultoni Shohruxning kitoblar masalasidagi talabini qondiradi (Turdimirzayev J., 2025: 99). Lekin Ka’baga kisva yopish va Makkaga suv yo‘li qurish masalasida, uning uchun alohida vaqf joriy qilinganligini va Makkaga suv yo‘li yetarlicha borligini aytib, boshqasiga ehtiyoj yo‘qligini aytadi. Xulosa qilib ko‘riladigan bo‘lsa, agar Ka’baga Shohrux tomonidan kisva yoptiriladigan bo‘lsa, uning islom olamida nufuzi ortib ketishiga olib kelardi. Bu narsa xalifa ham uning himoyasida bo‘lgan sulton Barsbay va mamluk davlati manfaatlariga zid keladi. Shuning uchun Barsbay Shohruxning kisva va suv yo‘li talablarini rad etgan. Shohrux mirzo tomonidan Ka’baga kisva yopish masalasida bundan keyin ham yana bir necha marta elchilar yuboriladi, lekin bu talab qondirilmaydi. O‘rtada ziddiyatli munosabatlar ham avj ola boshlagan edi, lekin 1439-yil may oyida Misr mamluk sultoni Barsbay vafot etadi. Uning o‘rniga shu yil avgust oyida sulton Chaqmoq mamluk hukmdori bo‘ldi. 1439-yil noyabr oyida Qohiraga Shohrux mirzodan bir elchi bordi. Elchi olib borgan maktubda Shohrux Barsbayning o‘limidan xabar topganligi va mamluk taxtiga Chaqmoq chiqqanligidan xursand bo‘lganini bildirgan. Shohruxning elchisi Qohirada bo‘lgan vaqtda, sulton Chaqmoqning Chichekbug‘o deb nomlangan elchisi Hirotda Shohrux huzuriga kelib, yangi sultonning hadyalarini topshiradi.

Ikki xalq o‘rtasidagi munosabatlar keyingi davrlarda ancha sustlashdi. Sovet Ittifoqi davrida esa uning Misr Arab Respublikasi bilan o‘zaro yaqin ittifoqi yuzaga keldi. XX asrda, ayniqsa 1950–1980-yillar oralig‘ida O‘zbekiston SSR va Misr o‘rtasida Sovet Ittifoqi doirasida madaniy, ilmiy va iqtisodiy aloqalar kuchaydi. O‘zbek olimlari Misrda ishlagan, misrlik talabalar esa Toshkentda tahsil olgan. Savdo, sanoat va ta’lim sohasida o‘zaro hamkorlik qilindi. O‘zbekistonlik olimlar jamoasi Misr Arab Respublikasida ko‘plab loyihalarda Sovet Ittifoqi nomidan ishtirok etdi.

O‘zbekiston 1991-yil mustaqillikni e’lon qilgach, ikki mamlakat o‘rtasida elchixonalar ochildi, siyosiy, iqtisodiy va madaniy hamkorlik hujjatlari imzolandi. Tashqi siyosatda xalq diplomatiyasi, savdo, turizm, ta’lim, va madaniyat sohalaridagi almashinuvlar orqali aloqalar mustahkamlanmoqda.

O‘zbekiston mustaqillikni e’lon qilganidan so‘ng to‘rt oy ichida, 1991-yil 26-dekabrda Misr uni tan olgan va 1992-yil 23-yanvarda diplomatik aloqalar o‘rnatilgan. Misrning Toshkentdagi elchixonasi 1993-yilning may oyidan faoliyatini boshlagan, O‘zbekistonning Qohiradagi elchixonasi esa 1994-yilda ochilgan. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. Karimov 1992-yil va 2007-yillarda ikki marta Misrga rasmiy tashrifni amalga oshirgan. 1997-yilda “O‘zbekiston-Misr” do‘stlik jamiyati, 2000-yilda “Misr-O‘zbekiston” do‘stlik jamiyatlari ta’sis etildi (Aripova Z., 2021: 3). Misr Prezidenti Abdulfattoh as-Sisi 2018-yil 4–5-sentyabr kunlari O‘zbekistonga rasmiy tashrif buyurgan. Bu uning O‘zbekistonga birinchi tashrifi edi. Tashrif davomida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bilan Ko‘ksaroy

qarorgohida oliy darajadagi muzokaralar o‘tkazildi. Muzokaralarda siyosiy, savdo-iqtisodiy, turizm, fan, ta’lim, madaniyat va boshqa sohalardagi hamkorlikni rivojlantirish masalalari muhokama qilindi. Tashrif yakunida ikki mamlakat o‘rtasida bir qator hujjatlar imzolandi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 20–21-fevral kunlari Misr Arab Respublikasiga rasmiy tashrif buyurdi. Tashrif davomida Qohiradagi “Al-Ittihodiya” saroyida Misr Prezidenti Abdulfattoh as-Sisi bilan oliy darajadagi muzokaralar o‘tkazildi. Tomonlar ikki tomonlama hamkorlikni yanada kengaytirish, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar va ta’lim sohalarida hamkorlikni rivojlantirish masalalarini muhokama qildilar. Shuningdek, ikki mamlakat o‘rtasida qo‘shma bayonot qabul qilindi va bir qator ikki tomonlama hujjatlar imzolandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, o‘zbekistonliklar va misrliklar o‘rtasidagi hamkorlik aloqalari uzoq tarixga borib taqaladi. Ikki xalqning bir dinga e’tiqod qilishi sababli ular barcha davrlarda yaqindan hamkorlik qilib keldi.

Ayniqsa, Sovet Ittifoqi davrida ittifoq tomonidan Misr bilan yaqin siyosat yuritilishi va har jihatdan uni qo‘llab-quvvatlashda O‘zbekiston olimlarining hissasi katta bo‘lgan. Ayniqsa, Asvon to‘g‘onining barpo etilishida Sovet Ittifoqi ham moddiy, ham ma’naviy jihatdan Misrni qo‘lladi.

Hozirda Misr Arab Respublikasi bilan O‘zbekiston o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarni fan va ta’lim sohasida yanada chuqurlashtirish orqali ikki mamlakat hamkorligini bundan-da yuqori darajalarga olib chiqish imkoniyatlari mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Aripova Z. (2021). O‘rta asrlarda Markaziy Osiyo-Misr munosabatlari. – Toshkent.

2. Bobojonov I. (2024). The last Khorezmshah – The history of Saifiddin Qutuz’s struggle against the Mongol invaders // International Journal of European Research Output, № 9.

3. Buniyotov Z. (2023). Anushteginiy – Xorazmshohlar davlati (1097-1231). – Toshkent: Yangi asr avlodi.

4. Fayzullayev O. (2008). Ahmad al-Farg‘oniyning fanniy olami // Ma’rifat gazetasi.

5. Muhammad Yusuf M. S. (2018). Islom tarixi (J. 2). – Toshkent: Hilol nashr.

6. Turdimirzayev J. (2025). Temuriy Shohrux Mirzoning Misr davlati bilan xalqaro elchilik aloqalari. Academic Research in Modern Science, № 4. – B. 44–46. https://doi.org/10.5281/zenodo.15128614

7. Uvatov U. (1996). Amir Temur va mamlukiylar. – Toshkent.

8. O‘ljayeva Sh. (2018). Amir Temur diplomatiyasi. – Toshkent.

9. https://www.egypttoday.com/Article/1/57014/Sisi-to-conclude-Asian-tour-by-visiting-Uzbekistan?utm_source

10. https://president.uz/oz/lists/view/2014?utm_source

REFERENCES:

1. Aripova Z. (2021). O‘rta asrlarda Markaziy Osiyo-Misr munosabatlari. – Toshkent. (In Uzbek)

2. Bobojonov I. (2024). The last Khorezmshah – The history of Saifiddin Qutuz’s struggle against the Mongol invaders // International Journal of European Research Output, № 9.

3. Buniyotov Z. (2023). Anushteginiy – Xorazmshohlar davlati (1097-1231). – Toshkent: Yangi asr avlodi. (In Uzbek)

4. Fayzullayev O. (2008). Ahmad al-Farg‘oniyning fanniy olami // Ma’rifat gazetasi. (In Uzbek)

5. Muhammad Yusuf M. S. (2018). Islom tarixi (J. 2). – Toshkent: Hilol nashr. (In Uzbek)

6. Turdimirzayev J. (2025). Temuriy Shohrux Mirzoning Misr davlati bilan xalqaro elchilik aloqalari. Academic Research in Modern Science, № 4. – B. 44–46. https://doi.org/10.5281/zenodo.15128614. (In Uzbek)

7. Uvatov U. (1996). Amir Temur va mamlukiylar. – Toshkent. (In Uzbek)

8. O‘ljayeva Sh. (2018). Amir Temur diplomatiyasi. – Toshkent. (In Uzbek)

9. https://www.egypttoday.com/Article/1/57014/Sisi-to-conclude-Asian-tour-by-visiting-Uzbekistan?utm_source

10. https://president.uz/oz/lists/view/2014?utm_source

ABDULLA NOSIROV DAFTARLARI ASOSIDA HAJ GUVOHNOMALARI TAHLILI

ANALYSIS OF HAJJ CERTIFICATES BASED ON ABDULLA NOSIROV'S NOTEBOOKS

АНАЛИЗ СВИДЕТЕЛЬСТВ ХАДЖА НА ОСНОВЕ ТЕТРАДЕЙ АБДУЛЛЫ НОСИРОВА

Nasirillayeva Nodirabegim Furqat qizi
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti tayanch doktoranti.
Tel: +998 99 847-60-50
E-mail: nasirillayevanodira@umail.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asrga oid haj va umra guvohnomalari diniy-huquqiy hujjat sifatida tarixiy-nazariy tahlil etilgan. Asosiy manba sifatida Abdulla Nosirov tomonidan to'plangan va hozirda Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan "Bosma xatlar va rasmlar" to'plamidagi hujjatlar o'rganildi. Ular orasida haj badali uchun berilgan vakolatnomalar, umra safariga oid tasdiqnomalar va boshqa diniy hujjatlarning mazmuni, shakli, yozuv uslubi, tili hamda grafikasiga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqot davomida bu guvohnomalarda qo'llanilgan diniy ifodalar, formulalar, islom huquqiy tafakkuridagi muayyan andozalarga muvofiqligi yoritib berildi. Ushbu hujjatlar haj amallarining rasmiylashtirilish tarixini, diniy-ma'naviy merosni, islomiy matbaachilikning shakllanish bosqichlarini o'rganishda muhim manba ekanligi asoslangan. Maqola sharq manbalarini o'rganishda kompleks yondashuv zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: *Abdulla Nosirov, badal, esdalik, guvohnoma, haj, hujjat, sharq manbalari, umra.*

Annotation: This article provides a historical-theoretical analysis of Hajj and Umrah certificates from the 20th century as religious-legal documents. The primary source material consists of documents from the collection "Printed Letters and Images," compiled by Abdulla Nosirov and currently preserved in the archives of the Institute of Oriental Studies. Particular attention is given to the content, form, writing style, language, and graphic design of these documents, which include powers of attorney issued for Hajj substitution, certificates related to Umrah journeys, and other religious documents. The study highlights the compliance of these certificates with specific religious expressions, formulas, and patterns within Islamic legal thought. The analysis substantiates the significance of these documents as key sources for studying the formalization history of Hajj practices, religious-spiritual heritage, and the

developmental stages of Islamic printing. The article reaffirms the necessity of a comprehensive approach in the study of Eastern sources.

Keywords: *Abdulla Nosirov, badal, memoir, certificate, Hajj, document, Eastern sources, Umrah.*

Аннотация: В данной статье проводится историко-теоретический анализ свидетельств о хадже и умре XX века как религиозно-правовых документов. Основным источником послужили документы из собрания «Печатные письма и изображения», собранного Абдуллой Носировым и хранящегося в настоящее время в фонде Института востоковедения. Особое внимание уделено содержанию, форме, стилю письма, языку и графическому оформлению этих документов, среди которых доверенности, выданные для совершения хаджа от имени другого лица, свидетельства о путешествиях на умру и другие религиозные документы. В ходе исследования освещается соответствие этих свидетельств религиозным выражениям, формулам и определённым шаблонам исламской правовой мысли. Обосновывается значимость данных документов как важных источников для изучения истории оформления обрядов хаджа, религиозно-духовного наследия и этапов формирования исламской книгопечатной традиции. Статья подтверждает необходимость комплексного подхода при изучении восточных источников.

Ключевые слова: *Абдулла Насиров, бадал, памятка, сертификат, хадж, документ, Восточные источники, умра.*

KIRISH

Ma’lumki, muqaddas dinimiz beshta asosiy ustun - iymon, namoz, ro‘za, zakot va haj amallari ustiga qurilgan bo‘lib, ularning eng so‘ngisi haj amali faqat unga qodir bo‘lgan kishilargagina farz hisoblanadi. Jismoniy va moddiy jihatdan qodir bo‘lgan har bir musulmon hayotida kamida bir marta Makkaga haj qilishi shart.

Qadimdan haj amali murakkab va mashaqqatli jarayon bo‘lib, unga olib boruvchi yo‘llar xavf-xatar va sarguzashtlarga boy bo‘lgan. Shu sababli, hajning ulug‘vorligi va ziyoratchilarning Muqaddas Baytni ziyorat qilish orqali erishadigan sharafini e’tiborga olgan holda, musulmonlar bu ibodatga alohida e’tibor qaratganlar.

Haj marosimi bilan bog‘liq turli esdaliklar, haj amali bajarilganligi haqidagi guvohnomalar hamda muborak joylarni yodga soluvchi lavhalar (jumladan, devoriy suratlar) keng tarqalgan. Ushbu materiallar nafaqat diniy-madaniy yodgorlik sifatida qabul qilingan, balki haj tarixini o‘rganishda muhim manba vazifasini ham o‘taydi. Shu bois, haj amalini tasvirlar va yozma guvohnomalar orqali abadiylashtirishga intilish qadimdan mavjud bo‘lib, bu an’ana turli davrlarda davom etib kelgan.

Haj guvohnomalari yoki haj shahodatnomalari – musulmonlarning haj ziyoratini muvaffaqiyatli ado etganliklarini tasdiqlovchi rasmiy hujjatdir. Ular ziyoratchilarga

esdalik sifatida berilib, haj amallarining to‘liq va to‘g‘ri bajarilganligini hujjatlashtiradi. Bu turdagi esdalik faqat marosimni eslatib qolmay, balki haj ibodatini ado etganlik haqidagi guvohnoma vazifasini ham o‘tagan.

Haj guvohnomalari nafaqat haj amalini bajargan kishi, balkim, bu amalni jismonan bajara olmagan ammo moddiy taraflama unga qodir bo‘lgan kishilarga ham taqdim etilgan. Ya’ni hajji badal guvohnomasi – o‘zlari ziyoratni bajara olmaydigan kishilar uchun boshqa bir shaxsni o‘z o‘rniga yuborishi munosabati bilan beriladigan hujjatdir. Garchi kichik ziyorat (arabcha *’umra*), ya’ni yil davomida istalgan paytda bajariladigan ziyorat marosimlari bilan, Zul-hijja oyida o‘tkaziladigan katta haj (arabcha *hajj*) o‘rtasida terminologik farq mavjud bo‘lsa-da, haj guvohnomasi atamasi har ikkala hujjatga nisbatan qo‘llaniladi. Shunga ko‘ra, har bir guvohnoma jismonan hozir bo‘lgan shaxsning ziyoratini, yoki bu shaxsning boshqa birov nomidan ishonchli vakil sifatida ziyorat qilganligini tasdiqlaydi.

Haj guvohnomalari tarixi. Bu turdagi manbalarning tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ularni yozish an’anasi XI asrdan boshlanib XX asrning birinchi yarmigacha davom etgan (Luitgard Mols., 2015:186). Saljuqiylar davridan Ayyubiylar davrigacha bo‘lgan turli tarixiy haj guvohnomalari hozirda Turkiyaning Istanbul shahridagi Turk va Islom san’ati muzeyida saqlanmoqda (Ular 1893-yilda Usmonli hukmdorlari Damashqdan Istanbulga ko‘chirgan hujjatlar to‘plamiga tegishli). XIX asr oxirlariga kelib, toshbosma uskunalarning keng tarqalishi haj guvohnomalari ishlab chiqarish jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Natijada bosma guvohnomalar ommalashib, ularni tayyorlash jarayoni osonlashdi hamda ishlab chiqarish xarajatlari kamaydi[1]. Shu sababli ushbu turdagi hujjatlar dunyoning ko‘plab muzey va kutubxonalarida, shuningdek, shaxsiy kolleksiyalar fondlarida keng tarqalgan holda uchraydi[2].

Ilk haj guvohnomalari asosan qog‘oz o‘ramlar shaklida bo‘lib, ularni ziyoratchilar uchun olib yurish qulay va keng tarqalgan shaklga aylangan edi. Ko‘plab haj safariga chiqqan shaxslar ushbu guvohnomalardan o‘z ziyoratini hujjatlashtirish vositasi sifatida foydalangan. Hojilar haj marosimida bosib o‘tgan yo‘nalishlarini unga belgilab, muborak joylarni tasvirlab, muhim to‘xtash manzillarini qayd etganlar.

O‘rta asrlarda haj guvohnomalari san’at va hujjatlashtirish nuqtayi nazaridan yanada ko‘rkam va qimmatli manba hisoblangan. Makka, Arofat tog‘i, Muzdalifa va Mino kabi muqaddas maskanlarning tasvirlari nozik mo‘yqalam yordamida qora siyoh bilan chizilgan, ba’zan esa akvarel va oltin siyoh bilan bezatilgan. Ushbu tasvirlar o‘ziga xos badiiy uslubi va yagona estetik qarashlari bilan ajralib turadi. Bu ularni

[1] XX asr boshlarida Makka, Madina va Qohirada chop etilgan bosma haj sertifikatlari keng tarqala boshladi. Manba: https://exhibits.qnl.qa/en/hajj-certificates/ .

[2] Masalan, Britaniya kutubxonasi, Rasmiy veb-sayti: https://www.bl.uk.; Fransiya Milliy kutubxonasi (Bibliothèque nationale de France): Rasmiy veb-sayti: https://www.bnf.fr/en.; shaxsiy kolleksiyalarda https://www.khalilicollections.org/all-collections/hajj-and-the-arts-of-pilgrimage/ va boshqa manbalar.

nafaqat diniy ahamiyatga ega bo‘lgan muqaddas yodgorlik, balki san’at va tarixiy manba sifatida ham muhimligini oshiradi[3].

Mazkur guvohnomalar o‘z taraqqiyot bosqichida bir qancha o‘zgarishlarga uchrab, shakliy va vizual jihatdan sezilarli darajada takomillashib kelgan. Masalan, avvalgi guvohnomalar qora siyohda turli bezak va suratlarsiz faqat matn va tasdiqlangan muhrdangina iborat bo‘lgan bo‘lsa (Luitgard Mols., 2015:186), keyingi davrlarda ularning ko‘rinishi muborak joylar suratlari, kemalar, takyalar[4] va hatto ularning manzillari bilan ham boyitilgan. Dastlab bir necha gorizontal varaqlardan iborat bo‘lgan guvohnomalar vaqt o‘tishi bilan takomillashib, vertikal shakldagi yagona varaq ko‘rinishiga kelgan. Ushbu o‘zgarishlar haj guvohnomalarining funksional qulayligi va rasmiylashtirish tizimidagi islohotlar bilan bog‘liq holda sodir bo‘lgan. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasining arxiv va fondlarida asosan XIX va XX asrlarga oid haj guvohnomalari saqlanib kelinadi. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, bu davrga oid guvohnomalar asosan litografik ko‘rinishda chop etilgan. O‘zbekiston Milliy arxivining 323-fondida shunday hujjat namunasi saqlanadi[5]. Uni tadqiqotchi G. M. Taniyeva o‘zining “XVI-XIX asr birinchi yarmida O‘rta Osiyo xalqlarining Haj ziyorati tarixi” monografiyasida juda chiroyli tavsiflab bergan (Tanieva G., 2021:93). Unda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, mazkur hujjat bir varaq ko‘rinishida bo‘lib, uning 2/3 qismiga Masjid al-Haram, darvozalari va Ka’baning joylashuvi aks ettirilgan xaritaga o‘xshash rangli tasvir chizilgan. Sanasi noma’lum bu hujjatning pastki qismida arab tilida Allohga va uning payg‘ambari Muhammad (s.a.v)ga hamd-u sanolar yozilib, Majiddin xo‘ja ismli shaxsning boshqa bir Ahmad va Najmiddin ismli shaxslar nomidan haj amallarini bajargani qayd etilgan. Hujjat Muhammad Ahmad G‘oziy ibn Husayniy ismli shaxsning muhri bilan tasdiqlangan.

O‘zR FA sharqshunoslik instituti asosiy fondida XX asrga oid ikkita haj guvohnomasi saqlanib kelinmoqda. Mazkur hujjatlar Sharqshunoslik institutining sobiq xodimi – bibliograf, tarjimon va manbashunos Abdulla Nosirov (1899-1987) ning “Nosirov daftarlari” deb tanilgan to‘plamlariga tegishli (Хўжаева У., 2002:148). Bu daftarlar O‘zR FA Sharqshunoslik instituti va O‘zbekiston Milliy kutubxonasi fondlarida saqlanayotgan fors, arab, turk, o‘zbek, tatar, uyg‘ur, ozarbayjon, turkman, urdu tillaridagi qo‘lyozma va toshbosma asarlar asosida jamlangan 128 ta jilddan iborat ilmiy materiallarni o‘z ichiga oladi. Ushbu jildlar nafaqat ilmiy materiallar, balki bibliografik ko‘rsatkichlar bilan ham boyitilgan.

Ana shu daftarlarning biri hisoblangan, “Bosma xatlar va rasmlar” deb nomlangan

[3] Bunday shahodatnomalardan biriga misol sifatida 1433-milodiy yildagi Maymuna binti Muhammad bin Abdullohning haj shahodatnomasini keltirish mumkin. Haj ziyoratini ado etganlik to‘g‘risidagi guvohnoma Britaniya kutubxonasi to‘plamida saqlanmoqda. Manba: https://www.baytalfann.com/post/hajj-certificates-a-beautiful-history

[4] Takya – arabcha “boshpana”. Haj ziyoratiga otlangan ziyoratchilar uchun dam olish yoki vaqtincha turar joy.

[5] O‘zbekiston Milliy Arxivi. 323-fond, 2-ro‘yxat, 103-yig‘ma jild, 1-varaq.

to‘plamda Abdulla Nosirov 30 ga yaqin XX asrga oid turli materiallar: haj shahodatnomalari, e’lonlar, sud va qozilik hujjatlari, e’lon va buyruqlardan namunalar va boshqa qiziqarli materiallarni jamlab, ularni muqovalatib qo‘ygan. Undagi manbalar Markaziy Osiyo tarixini o‘rganishda, xususan, XIX-XX asrlar huquqiy va diniy hujjatlarini tahlil qilishda muhim manba bo‘lib xizmat qila oladi.

Yuqorida aytganimizdek, ushbu to‘plamdan musulmonlarning muhim amallaridan sanalgan haj amaliga oid uchta material – haj va umra guvohnomalari joy olgan. Ana shu materiallar misolida mazkur maqolada Haj guvohnomalarining tuzilishi, bezatilishi va ahamiyatini ko‘rib chiqamiz.

Haj guvohnomalarining tuzilishi.

Abdulla Nosirovning “Bosma xatlar va rasmlar” deb nomlanuvchi to‘plamining 2b varag‘ida umra amaliga tegishli guvohnoma berilgan bo‘lib, guvohnoma vertikal holatdagi bir varaqdan iborat (1-rasm). Varaq XIX-XX asr boshlarida keng tarqalgan litografik uslubda chop etilgan bo‘lib, holatidan yillar davomida eskirgani ko‘rinib turadi. Ammo asosiy ranglar va yozuvlar saqlanib qolgan.

Varaqning asosiy qismi grafik bezak va chizmalar hamda ramziy suratlar bilan bezatilgan bo‘lib, eng ostki qismiga asosiy matn joylashtirilgan. Qog‘ozda ko‘plab ranglardan foydalanilgan: sariq, qizil, yashil va qora ranglar.

Hujjatning markazida Ka’ba tasviri joylashgan bo‘lib, atrofida muqaddas joylar - Masjid al-Haram, minora, Maqomi Ibrohim, zamzam qudug‘i va boshqa manzillar tasvirlangan. Tashqi hoshiyada esa muqaddas joylarni ifodalaydigan belgilar, Haramga kiruvchi barcha eshiklar tasviri va ularning asosiy 16 tasi nomlari berilgan. Shu bilan birga varaq atrofini naqshlar bezab turadi. Har bir element nomi bilan belgilangan va ayrimlari chizmalarda tushuntirilgan. Bu tasvirlarning har biri bajariladigan marosimlar va bosib o‘tiladigan yo‘llarni ko‘rsatadi. Masalan, Safo va Marva tepaliklari orasida Hojar onamizning o‘g‘li Ismoil uchun suv qidirish voqeasini eslatuvchi “sa’y” yoki “yugurish” marosimi, masjidning tashqarisida “Safo”, “Marva” va “Sa’y qilinadigan bozor” deb belgilangan (1-rasm).

Guvohnomaning yuqori qismida – “*Albatta, odamlarga (ibodat qilish uchun) qurilgan birinchi uy – Bakka (ya’ni Makka)dagidir. U butun olamlar uchun baraka va hidoyat manbaidir*” (Qur’oni Karim 3:96) mazmunidagi Qur’oni Karim oyati bitilgan.

Suratning ostki qismida guvohnomaning avvaldan chop etilgan arabcha matni - ziyoratchining kim nomidan umra bajarayotgani, ehromga kirish joyi (miqot), amal tartibi va guvohlarning tasdig‘i ifodalanadi. Masalan, biz o‘rganayotgan arab tilidagi umra badal guvohnomasi quyidagi shaklda:

بسم الله الرحمان الرحيم

الحمد لله الذي خصـــنا بالبيت الحرام والزمزم والمقام اما بعد فقد احرم بالعمرة من ميقات التنعيم وهو الحاج عبد ***اللطيف ابن ملا محمد مرحوم*** *عن عمرة* ***ملا نار محمد ابن دوســت محمد يار*** *و لم يزل محرما ملبيا مصـليا على النبي صـلى الله عليه وسـلم داعيا حتى دخل المسـجد الحرام طايفا بالبيت طواف العمرة ثم صـلى*

ركعتين ثم سعى سعى العمرة وحلق ودعا له بالمغفره و تم العمرة **من رمضان** سنة __١٣ هجري شهد بذلك **ملا اسماعيل** شهد بذلك **هدايت مخدوم** شهد بذلك _____

“Bismillahir rohmanir rohiym. Allohga hamd bo‘lsin, u bizni Muqaddas Bayt, Zamzam va Ismoil maqomi bilan sharaflagan. Shundan so‘ng, quyidagilar ma’lum qilinurki: Tan’im miqotidan ehromga kirgan shaxs, marhum Mulla Muhammadning farzandi hoji Abdullatif, Mulla Nor Muhammad Do‘st Muhammad Yorning o‘g‘li nomidan umra amalini ado etdi. U doimiy ravishda ehrom holatida bo‘lib, talbiya aytib, Payg‘ambar (s.a.v.)ga salavotlar yo‘llab, duo qildi. Nihoyat, Masjid al-Haromga kirib, Ka’bani umra tavofi bilan aylanib, ikki rakat namoz o‘qidi. So‘ngra umra sa’yini bajarib, sochlarini qisqartirdi va mag‘firat tilab duo qildi. Umra hijriy 13..[6] *yilning Ramazon oyida to‘liq ado etildi. Ushbu ziyoratni Mulla Ismoil, Hidoyat Maxdum va boshqa guvohlar tasdiqlaganlar.”*

Abdulla Nosirovning “Bosma xatlar va rasmlar” deb nomlanuvchi to‘plamining keyingi 3b varag‘ida ham shunday hujjat - haj guvohnomasi berilgan. Ushbu hujjat avvalgisiga qaraganda ancha eskirgan, qog‘oz ustida dog‘lar va varaq qirralarining yirtilgani hamda ranglarning oqargani yaqqol ko‘rinib turadi (2-rasm). Ammo bu guvohnoma ham umra guvohnomasiga o‘xshab bezatilgan, o‘lcham va ranglari aynan bir xil (Har ikkala guvohnomaning bir xil o‘lchamdaligi, ularning bitta tosh bosmadan foydalanilganini ko‘rsatadi). Faqat ularda sarlavha, ramziy elementlar (daraxtlar, minoralar soni ko‘proq) orasida farq borligini ko‘rishimiz mumkin. Har ikkala guvohnomaning markazida Ka’ba surati va uning atrofida ba’zi binolar va daraxtlar tasviri berilgan.

Bundan tashqari, guvohnomaning markaziy qismidagi sarlavha avvalgi namunadagi Qur’on oyati bilan emas, balki Makka shahrining sharafini ulug‘lovchi an’anaviy duo bilan boshlangan bo‘lib, bu holat haj marosimining muqaddasligini yanada ta’kidlaydi. “هذه نقشة مكة الشريفة زادها الله شرفًا وتعظيمًا” (“Bu Makka shahrining sharafli naqshidir, Alloh unga yanada sharaf va ulug‘lik ato etsin”) kabi iboralar diniy-falsafiy jihatdan Makkani ilohiy markaz sifatida tasvirlaydi.

Haj guvohnomasining matn qismida umra guvohnomasiga nisbatan ancha batafsil va marosim bosqichlarini puxta yorituvchi yondashuv kuzatiladi. Unda haj ibodatining shartlari, ruknlari va manzillari bosqichma-bosqich tilga olinadi. Jumladan, Arofatda turish, Muzdalifada tunash, Minoda tosh otish, Makkaga qaytib “Tavof uz-Ziyora”ni ado etish kabi amallar izchil tarzda sanab o‘tilgan. Shuningdek, guvohlar sonining ortganligi ham ushbu amalni rasmiy ado etganligini yanada mustahkamlaydi (Bu turdagi hujjatlarda guvohlar soni uchtadan beshtagacha beriladi. Buni

[6] Mazkur haj guvohnomasida hijriy sana qo‘lda to‘ldirilmagan bo‘lsa-da, hujjatning bosma asosida tayyorlangani uning 1300-hijriy yilning biron bir o‘nlik sanasida (milodiy taxminan 1882–1883-yillardan keyin) chop etilganini ko‘rsatadi.

guvohnomalardagi tasdiqlovchi kishilarning nomlari uchun qoldirilgan bo‘sh joylardan bilib olishimiz mumkin). Hujjatda guvohnomaning matn shakli quyidagicha berilgan:

بسم الله الرحمان الرحيم الحمد لله الذي خصنا بالبيت الحرام والزمزم والمقام والمقام النبي صلى الله عليه و سلم. اما بعد فقد احرم بالحج الحاج ***عبد اللطيف ابن ملا محمد رسول باي مرحوم فرد الي العرفات*** *من ميقات الشرعية عن فرض* ***ملا سيد مرحومي ابن ملا محمد رسول حاجي*** *ولم يزل محرما و ملبيا و مصليا على النبي صلى الله عليه و على اله و صحبه و سلم. الي ان دخل مكة و دخل البيت الشرقية من باب السلام وطاف بالقدوم و سعى الحج صعد الى العرفات و وقف الي الغروب و نفر الي المزدلفة فالقط الحصى و بات بها الي الفجر و دفع الي منى و رمى الجمرة العقبة و حلاق و نزل الي المكة و طاف طواف الزيادة و رجع الى منى و اقام بها ايام التشريق و رمى الجمرة الثلاثة و ذهب الى العمرة و كان وقوفنا يوم ____ سنة شهد بذلك* ***ملا هدايت مخدوم*** *شهد بذلك* ***ملا عبد العزيز***... *شهد بذلك* ***ملا على حاجي*** *شهد بذلك _____ شهد بذلك _____*

“Bismillahir rohmanir rohiym. Allohga hamd bo‘lsin, u bizni Muqaddas Bayt, Zamzam va Ismoil maqomi bilan hamda Nabiy sallallohu alayhi va sallamning maqomi bilan sharaflagan. Shundan so‘ng, quyidagilar ma’lum qilinurki: hajga ehrom bog‘lagan shaxs – marhum Mulla Muhammad Rasulboyning o‘g‘li hoji Abdullatif bo‘lib, u shar’iy miqotdan[7] marhum Mulla Sayyid Mulla Muhammad Rasul Hojining o‘g‘li nomidan farz hajni ado etish niyati bilan Arofatga yo‘l oldi. U uzluksiz ravishda ehromda, talbiya aytib, Rosulullоh sallallohu alayhi va sallamga salavotlar yo‘llab, duo qilgan holda haj amallarini bajardi. Keyin u Makka shahriga kirib, sharqiy eshik – Babu-s-salamdan Masjidu-l-Haramga kirdi. Ka’bani Tavofu-l-Qudum[8] bilan tavof qildi, so‘ngra haj sa’yini[9] bajardi. Shundan so‘ng Arofat tog‘iga chiqib, quyosh botgunicha turdi, keyin Muzdalifaga yo‘l olib, u yerdan tosh (jamra) to‘pladi, sahar vaqtigacha tunab qoldi. So‘ng Minoga yo‘l olib, Jamaratu-l-Aqaba[10]ni toshbo‘ron qildi, sochini oldirdi, va yana Makkaga qaytib, ziyora tavofini ado etdi. Shundan so‘ng yana Minoga qaytdi, u yerda tashriq kunlarida turib, uchta jamarani toshbo‘ron qildi. So‘ngra u umrani ado etish uchun Makkaga qaytdi. Ushbu Arofatdagi vuquf (to‘xtash marosimi) ____ yili bo‘lib o‘tdi. Ushbu ziyoratni Mulla Hidoyat Maxdum, Mulla Abdulaziz ..., Mulla Ali Hajiy va boshqa guvohlar tasdiqlaganlar”.

Demak, mazkur ikkala guvohnomani tahlil qilar ekanmiz, ularning har ikkisida ham Haj va Umra badalini bajaruvchi shaxs — marhum Mulla Muhammad Rasulboyning o‘g‘li Hoji Abdullatif bo‘lganligi aniq ko‘zga tashlanadi. Shunga qaramay, hujjatlarda badal amalining buyurtmachilari — ya’ni badal Haj va Umra o‘rniga ibodat topshirgan shaxslar — ikki xil kishi sifatida qayd etilgan. Bu esa bizga quyidagi muhim xulosani beradi: Hoji Abdullatif badal ibodatlarini ado etish bilan bir martalik emas, balki doimiy tarzda shug‘ullanib kelgan bo‘lishi, ya’ni bu borada e’tiborli, ishonchli va obro‘li ziyoratchi sifatida tanilgan bo‘lishi ehtimolini bildiradi.

[7] Shar’iy miqot - shariat belgilagan joy.
[8] Tavof al-qudum – kelish, tavof.
[9] Haj sa’yi - Safā va Marva tepaliklari o‘rtasida yetti marta yurib o‘tish amalidir.
[10] Jamarat al-Aqaba – Shaytonni toshbo‘ron qilish amali bajariladigan joy.

Shuningdek, har ikkala guvohnomalarda shohid (guvoh)larning nomlari keltirilganiga qaramay, hujjatlarning muhr bilan tasdiqlanmagani ham e’tiborga loyiq jihatdir. Bu holat hujjatlarning shaxsiy arxiv yoki oilaviy esdalik sifatida saqlanishi uchun yozilganini, keng ko‘lamda rasmiy muomala hujjati sifatida emas, balki diniy ahamiyatga ega dalolatnoma bo‘lganini ko‘rsatishi ham mumkin[11].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqolada XX asrga oid haj va umra guvohnomalari diniy-huquqiy hujjat sifatida tahlil qilindi. Tadqiqot davomida Abdulla Nosirovning “Bosma xatlar va rasmlar” to‘plamida saqlanayotgan guvohnomalarning shakliy tuzilishi, mazmuni, grafika va yozuv uslubi o‘rganildi. Ayniqsa, umra va haj badali uchun berilgan hujjatlar hamda ularning matnli formulalari asosida diniy amallarning rasmiylashtirilishidagi tarixiy yondashuv ochib berildi. Mazkur hujjatlarning saqlanishi va o‘rganilishi haj marosimlari tarixi, islomiy san’at, matbaachilik va diniy-huquqiy tafakkur taraqqiyotini tahlil etishda muhim manba sifatida ahamiyatga ega ekani asoslab berildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Holy Quran. – Madina: King Fahd Complex for the Printing of the Holy Quran, 2024.

2. Luitgard Mols. (2015). Souvenir, testimony, and device for Instruction: late nineteenth and early twentieth-century printed Hajj certificates // Hajj. Global Interactions through Pilgrimage / Edited by Marjo Buitelaar and Luitgard Mols. Mededelingen van het Rijksmuseum voor Volkenkunde N. 43. National Museum of Ethnology. Published by Sidestone Press. – 186 p.

3. Nosirov A. Bosma xatlar va rasmlar – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Asosiy fondi qo‘lyozmasi. № 13480.

4. Tanieva G. (2021). XVI-XIX asr birinchi yarmida O‘rta Osiyo xalqlarining haj ziyorati tarixi. Monografiya. – Toshkent: “O‘zkitob savdo nashriyot matbaa ijodiy uyi”.

5. O‘zbekiston Milliy Arxivi. 323-fond, 2-ro‘yxat, 103-yig‘ma jild.

6. Хўжаева У. (2002). А. Носиров дафтарлари. Ўзбек матбуоти тарихини ўрганишда муҳим манба. // “Шарқшунослик” журнали, № 11.

7. https://exhibits.qnl.qa/en/hajj-certificates/.

8. https://www.bl.uk.

[11] Masalan, shaxsiy fondlardan sanalgan Xaliliy kolleksiyasidagi haj guvohnomalarining faqat ba’zilaridagina ziyoratchilarning ismlari yozib qo‘shilgan. Bu holat ularning nafaqat hujjat, balki esdalik yoki ko‘rgazmali vosita sifatida ham ishlatilganini ko‘rsatadi. Qarang: https://www.khalilicollections.org/?s=certificate.

9. https://www.khalilicollections.org/all-collections/hajj-and-the-arts-of-pilgrimage/.

10. https://www.bnf.fr/en.

11. https://www.baytalfann.com/post/hajj-certificates-a-beautiful-history .

REFERENCES:

1. Holy Quran. – Madina: King Fahd Complex for the Printing of the Holy Quran, 2024.

2. Luitgard Mols. (2015). Souvenir, testimony, and device for Instruction: late nineteenth and early twentieth-century printed Hajj certificates // Hajj. Global Interactions through Pilgrimage / Edited by Marjo Buitelaar and Luitgard Mols. Mededelingen van het Rijksmuseum voor Volkenkunde N. 43. National Museum of Ethnology. Published by Sidestone Press. – 186 p.

3. Nosirov A. Bosma xatlar va rasmlar – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Asosiy fondi qo‘lyozmasi. № 13480. (In Uzbek)

4. Tanieva G. (2021). XVI-XIX asr birinchi yarmida O‘rta Osiyo xalqlarining haj ziyorati tarixi. Monografiya. – Toshkent: “O‘zkitob savdo nashriyot matbaa ijodiy uyi”. (In Uzbek)

5. O‘zbekiston Milliy Arxivi. 323-fond, 2-ro‘yxat, 103-yig‘ma jild.

6. Xo‘jaeva U. (2002). A. Nosirov daftarlari. O‘zbek matbuoti tarixini o‘rganishda muhim manba. // “Sharqshunoslik” jurnali, № 11. (In Uzbek)

7. https://exhibits.qnl.qa/en/hajj-certificates/.

8. https://www.bl.uk.

9. https://www.khalilicollections.org/all-collections/hajj-and-the-arts-of-pilgrimage/.


10. https://www.bnf.fr/en.

11. https://www.baytalfann.com/post/hajj-certificates-a-beautiful-history.

ILOVALAR / APPENDIXES:



1-rasm.



2-rasm

SULTON HUSAYN MIRZO: HOKIMIYAT UCHUN KURASH VA XUROSONDA DAVLAT BOSHQARUVI

SULTAN HUSAYN MIRZA: THE STRUGGLE FOR POWER AND STATE GOVERNANCE IN KHORASAN

СУЛТАН ХУСЕЙН МИРЗА: БОРЬБА ЗА ВЛАСТЬ И ГОСУДАРСТВЕННОЕ УПРАВЛЕНИЕ В ХОРАСАНЕ

Jo‘rayev Sherzod Norovich
Oriental universiteti,
Tarix kafedrasi katta o‘qituvchisi
Tel.: +998 90 986-75-39
E-mail: norovbilol71@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola Temuriylar sulolasining so‘nggi yirik vakillaridan biri bo‘lgan Sulton Husayn Mirzoning (1438-1506) Xurosondagi siyosiy faoliyati va davlat boshqaruvi xususiyatlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda Sulton Husayn Mirzoning hokimiyat tepasiga kelishi, uning ichki va tashqi siyosati, harbiy yurishlari, davlatni idora qilishdagi o‘ziga xos yondashuvlari hamda uning hukmronligi davrida Xurosonning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida yuz bergan muhim o‘zgarishlar keng qamrovli o‘rganilgan. Maqolada Mirxond, Xondamir, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi shaxslar yozib qoldirgan tarixiy manbalar hamda zamonaviy tadqiqotlar tahliliga asoslanib, Sulton Husayn Mirzoning yoshlik yillari, hokimiyat uchun kurashlari, Xuroson taxtini egallashi va hukmronligining asosiy bosqichlari yoritilgan. Shuningdek, uning davlat boshqaruvidagi islohotlari, diniy siyosati, ilm-fan va madaniyatga homiyligi, xususan, Alisher Navoiy bilan munosabatlari hamda taxt vorisligi bilan bog‘liq muammolar ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari Sulton Husayn Mirzoning murakkab tarixiy sharoitda Xuroson davlatchiligini saqlab qolish va rivojlantirishdagi muhim rolini ko‘rsatadi, uning shaxsiyati va faoliyatiga xolisona baho berishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *Sulton Husayn Mirzo, Temuriylar, Xuroson, Xondamir, Bobur, Alisher Navoiy, Mozori Sharif.*

Annotation: This article is dedicated to the analysis of the political activities and characteristics of state administration of Sultan Husayn Mirza (1438-1506) in Khurasan, one of the last major representatives of the Temurid dynasty. The research comprehensively studies Sultan Husayn Mirza’s rise to power, his internal and external policies, military campaigns, unique approaches to governing the state, as well as significant changes that occurred in the socio-political and cultural life of Khurasan during his reign. Based on the analysis of historical sources such as written by

Mirkhond, Khondamir, Zahiriddin Muhammad Babur, and modern studies, the article illuminates Sultan Husayn Mirza's youth, his struggles for power, the periods of wandering life, his accession to the throne of Khurasan, and the main stages of his rule. Furthermore, his reforms in state administration, religious policy, patronage of science and culture, particularly his relations with Alisher Navoi, and issues related to succession to the throne are examined. The research results highlight Sultan Husayn Mirza's significant role in preserving and developing Khurasan's statehood under complex historical circumstances, and serve to provide an objective assessment of his personality and activities.

Keywords: *Sultan Husayn Mirza, Temurids, Khurasan, Khondamir, Babur, Alisher Navoi, Mazar-i-Sharif.*

Аннотация: Данная статья посвящена анализу политической деятельности и особенностей государственного управления одного из последних крупных представителей династии Темуридов, Султана Хусейна Мирзы (1438-1506) в Хорасане. В исследовании всесторонне изучены приход Султана Хусейна Мирзы к власти, его внутренняя и внешняя политика, военные походы, своеобразные подходы к управлению государством, а также важные изменения, произошедшие в социально-политической и культурной жизни Хорасана в период его правления. В статье, основываясь на анализе исторических источников авторов, таких как Мирхонд, Хондамир, Захириддин Мухаммад Бабур, а также современных исследований, освещены юношеские годы Султана Хусейна Мирзы, его борьба за власть, периоды скитаний, завоевание хорасанского престола и основные этапы его правления. Также рассмотрены его реформы в государственном управлении, религиозная политика, покровительство науке и культуре, в частности, его отношения с Алишером Навои, а также проблемы, связанные с престолонаследием. Результаты исследования показывают важную роль Султана Хусейна Мирзы в сохранении и развитии государственности Хорасана в сложных исторических условиях, служат для объективной оценки его личности и деятельности.

Ключевые слова: *Султан Хусейн Мирза, Темуриды, Хорасан, Хондамир, Бабур, Алишер Навои, Мазари-Шариф.*

KIRISH

XV asrning ikkinchi yarmi va XVI asr boshlarida Movarounnahr va Xuroson hududlarida Temuriylar sulolasining hukmronligi davom etayotgan bo‘lsa-da, markaziy hokimiyat uchun kurashlar, o‘zaro nizolar va tashqi xavflar kuchayib borayotgan bir davr edi. Aynan mana shu murakkab tarixiy sharoitda Temuriylar sulolasining so‘nggi yirik vakillaridan biri, iste’dodli sarkarda, davlat arbobi, ilm-fan va san’at homiysi sifatida tarixda qolgan Sulton Husayn Mirzo (1438-1506) Xuroson

taxtiga o‘tirdi va qariyb qirq yil davomida mamlakatni idora qildi. Uning hukmronlik davri Temuriylar Uyg‘onish davrining cho‘qqisi sifatida e’tirof etiladi, Hirot shahri esa sharqning eng yirik madaniy va ilmiy markazlaridan biriga aylandi. Sulton Husayn Mirzoning shaxsiyati, uning siyosiy faoliyati, davlat boshqaruvi usullari va madaniy homiyligi nafaqat o‘z davri uchun, balki keyingi avlodlar uchun ham katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Sulton Husayn Mirzo hukmronligi davri Temuriylar davlatchiligining so‘nggi yuksalish bosqichi bo‘lib, bu davrda Xurosonda siyosiy barqarorlik nisbatan ta’minlandi, iqtisodiyot rivojlandi, ilm-fan, adabiyot va san’at gullab-yashnadi. Uning davlat boshqaruvidagi tajribasi, harbiy san’ati, shuningdek, madaniyat va ma’rifatga bo‘lgan e’tibori diqqatga sazovordir. Sulton Husayn Mirzo shaxsiyati va faoliyatini chuqur o‘rganish Temuriylar davri tarixini, xususan, Xurosonning XV-XVI asrlardagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotini to‘laroq anglashga yordam beradi. Uning davrida yashab ijod etgan Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Kamoliddin Behzod kabi buyuk siymolarning faoliyati ham bevosita Sulton Husayn Mirzo nomi bilan bog‘liqdir. Shu bois, uning siyosiy merosini va davlat boshqaruvidagi o‘rnini ilmiy jihatdan tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Sulton Husayn Mirzo hayoti va faoliyati haqida uning zamondoshlari tomonidan yozilgan ko‘plab tarixiy manbalar mavjud. Bular qatoriga Mirxondning “Ravzatu-s-safo”, Xondamirning “Habibu-s-siyar” va “Xulosatu-l-axbor”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkiratu-sh-shuaro”, Abdurazzoq Samarqandiyning “Matla’i sa’dayn va majma’i bahrayn”, Isfizoriyning asarlari kabi bebaho manbalarni kiritish mumkin. Ushbu asarlarda Sulton Husayn Mirzoning nasabi, shaxsiy fazilatlari, harbiy yurishlari, siyosiy qarorlari va madaniy faoliyati haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Keyingi davrlarda ham mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan Sulton Husayn Mirzo davriga oid ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Shunga qaramay, uning siyosiy faoliyati va davlat boshqaruvi tizimining ayrim jihatlari, xususan, uning murakkab qarorlari va siyosiy strategiyalarining chuqur tahlili hamon o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot Sulton Husayn Mirzoning siyosiy faoliyati va Xurosondagi davlat boshqaruvini tahlil qilishda bir nechta ilmiy metodlarga tayanadi. Asosiy metodologik yondashuv tarixiy-qiyosiy metod bo‘lib, u Sulton Husayn Mirzo davridagi voqealarni boshqa Temuriy hukmdorlar faoliyati va o‘sha davrdagi boshqa davlatlar bilan qiyosiy o‘rganish imkonini beradi. Bu orqali uning siyosati va boshqaruvining o‘ziga xos jihatlari, yutuqlari va kamchiliklari aniqlanadi. Shuningdek, tizimli tahlil metodi qo‘llanilib, Sulton Husayn Mirzo davlatining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy tizimlari bir butunlikda, o‘zaro aloqadorlikda ko‘rib chiqiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Manbashunoslik tahlili tadqiqotning muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Tadqiqot asosan Sulton Husayn Mirzo davriga oid birlamchi yozma manbalarga asoslanadi. Bular qatoriga uning zamondoshlari tomonidan yozilgan tarixiy yilnomalar, tazkiralar va memuar asarlar kiradi. Jumladan, Mirxondning “Ravzatu-s-safo fi siyar al-anbiyo va-l-muluk va-l-xulafo” (Payg‘ambarlar, podshohlar va xalifalar tarjimai holiga oid jannat bog‘i), uning nabirasi Xondamirning “Habibu-s-siyar fi axbori afrodu-l-bashar” (Insoniyatning tanlangan shaxslari haqidagi xabarlar dostoni), “Xulosatu-l-axbor fi bayoni ahvoli-l-axyor” (Xayrli kishilar ahvolini bayon etishga oid xabarlar xulosasi) va “Maosiru-l-muluk” (Podshohlarning yodgorliklari) kabi asarlari Sulton Husayn Mirzoning hayoti, shajarasi, harbiy yurishlari, ichki va tashqi siyosati, madaniy faoliyati haqida bebaho ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari ham Sulton Husayn Mirzo va uning davri haqida, xususan, uning shaxsiyati, saroy hayoti, o‘g‘illari bilan munosabatlari va Shayboniyxonga qarshi kurashlari to‘g‘risida qimmatli kuzatuvlarni taqdim etadi. Shuningdek, Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkiratu-sh-shuaro” (Shoirlar tazkirasi), Abdurazzoq Samarqandiyning “Matla’i sa’dayn va majma’i bahrayn” (Ikki saodatli yulduzning chiqish joyi va ikki dengizning qo‘shilish joyi), Mu’iniddin Muhammad Isfizoriyning “Ravzatu-l-jinon fi avsofi madinati Hirot” (Hirot shahrining tavsifiga oid jannat bog‘lari) kabi asarlar hamda “Mu’izzu-l-ansob” (Nasabnoma) kabi geneologik manbalar Sulton Husayn Mirzo davri tarixini yoritishda muhim ahamiyatga ega.

Sulton Husayn Mirzoning siyosiy faoliyati va Xurosondagi davlat boshqaruvi tahlili shuni ko‘rsatadiki, uning hayoti va hukmronligi murakkab va ziddiyatli voqealarga boy bo‘lgan. Quyida uning faoliyatining asosiy bosqichlari va natijalari keltiriladi.

Sulton Husayn Mirzoning kelib chiqishi va yoshlik yillari

Sulton Husayn Mirzo 1438-yil iyul oyida Hirot yaqinidagi Davlatxona saroyida tug‘ilgan. Uning nasabi ham ota (G‘iyosiddin Mansur, Amir Temurning o‘g‘li Umarshayx avlodidan), ham ona (Feruzabegim, Tayjut qabilasidan, nasabi Chingizxongacha borib taqalishi da’vo qilingan) tomonidan yuksak bo‘lgan. Bundan tashqari, u o‘zini Xoja Abdulloh Ansoriyning avlodi deb ham hisoblagan, ammo bu da’vo faqat Mirxond va Xondamir asarlarida uchraydi. “Abulbaqo” laqabi faqat bir manbada tilga olingan. Keyinchalik, raqiblari ustidan qozongan g‘alabalari uchun “G‘oziy” yoki “Abulg‘oziy” unvonlariga sazovor bo‘lgan. Uning Og‘abegim va Budoqbegim ismli ikki opasi bo‘lgan. Sulton Husayn Mirzo 7 yoki 8 yoshida otasidan ayrilgan va Mavlono Abdurahmon uning tarbiyasi bilan shug‘ullangan bo‘lishi mumkin. U siyosiy maydonga 14 yoshida (1452-yil) onasining maslahati bilan Abulqosim Bobur xizmatiga kirish orqali qadam qo‘ygan.

Hokimiyat uchun kurash davri

Sulton Husayn Mirzoning hokimiyat uchun kurashi uzoq va mashaqqatli kechgan. U dastlab ikki yil Abulqosim Bobur xizmatida bo‘lgan, biroq Boburning amirlarga ko‘p in’omlar berishi va Ulug‘bek xazinasi taqsimotidagi noroziliklar tufayli undan yuz o‘girgan. Keyinchalik Abu Said saroyiga borgan, ammo Abu Said undan shubhalanib, Samarqand qal’asida hibsga olgan. Onasi Feruzabegimning aralashuvi bilan ozod etilgan. Samarqanddan qaytgach, yana Abulqosim Bobur xizmatiga qaytgan va Bobur unga katta hurmat ko‘rsatib, yiliga 100 ming dinor maosh tayinlagan.

Abulqosim Bobur vafotidan so‘ng (1457-yil) yuzaga kelgan notinchliklar davrida Sulton Husayn Mirzo Sanjar Mirzo (Ahmad ibn Umar Shayxning o‘g‘li) huzuriga borib, uni qo‘llab-quvvatlagan va uning qizi Big‘a Sultonbegimga uylangan. Bu uning birinchi rasmiy nikohi bo‘lib, to‘ng‘ich o‘g‘li Badiuzzamon shu ayoldan tug‘ilgan. Sanjar Mirzo Mashhadga ketganida, Husayn Mirzoni Marvda o‘z o‘rniga noib etib tayinlagan. Biroq, Husayn Mirzo fursatdan foydalanib, Marvda qisqa muddat hokimiyatni qo‘lga kiritgan, ammo tez orada Sanjar tarafdorlarining fitnasi tufayli Marvni tark etishga majbur bo‘lgan. Bu uning “qazoqlik” (sargardonlik) davrlarining boshlanishi edi.

Bu davrda unga Hasan Charkas 200 kishilik qo‘shin bilan qo‘shilgan va bu uning asosiy harbiy kuchini tashkil etgan. U Hasan Charkasning qizi Ofoqbegimga ham uylangan. U bir muddat Marv yaqinidagi Moxon qishlog‘ida, so‘ngra Xorazmda yashagan. Manbalarda uning qishni Marv bilan Xiva orasidagi sahroda o‘tkazgani qayd etilgan. 1458-yil boshida atigi 22 nafar piyoda askar bilan Tojan (Tojin) tomon yo‘l olgan, keyinchalik unga boshqalar ham qo‘shilib, askar soni 300 kishiga yetgan. 1458-yil iyul oyida Alauddavla Mirzoning amaldori Bobo Hasanni mag‘lub etib, Nisoni zabt etgan. Bu uning birinchi yirik harbiy g‘alabasi edi. Shundan so‘ng unga ko‘plab amirlar va lashkarlar qo‘shilib, Gurgon va butun Astrobodni Qoraquyunli turkmanlaridan tortib olgan. 20 yoshida Astrobodda taxtga o‘tirgan.

Dastlab Abu Said nomiga xutba o‘qib, tanga zarb qilgan va elchi yuborgan. Bunga javoban Abu Said uning o‘g‘li Badiuzzamonni onasi bilan birga Hirotdagi qamoqdan ozod etgan. Abu Said uni turkmanlarga qarshi kurashga undab, “qaysi hududni tortib olsang, o‘zingniki bo‘ladi,” - deb va’da bergan. Biroq, Abu Said Jahonshoh Qoraquyunli bilan kelishuvga erishgach, Husayn Mirzo bilan muzokaralarni to‘xtatgan va uning Astrobodga hujum qilish niyati fosh bo‘lgan. Natijada, Husayn Mirzo Xuroson sari yurish boshlagan, ammo Abu Saidga qarshi tura olmasligini bilib, Astroboddan chiqib ketgan va 500 kishi bilan Xorazmga qochgan. Bu uning ikkinchi “qazoqlik” davri edi.

Keyinchalik u O‘zbek Ulusi hukmdori Abulxayrxonga yuzlangan hamda Vazir shahri hukmdori Mustafoxon O‘zbek bilan yaxshi munosabatlar o‘rnatib, uning singlisi Boji Jamolbegimga uylangan. Biroq bu ittifoqdan foyda ko‘rmay, yana Xorazmga

qaytgan. 1461-yilda Abu Said Movarounnahrga yo‘l olganidan foydalanib, Astrobodga hujum qilib, Sulton Mahmud Mirzoni mag‘lub etgan va shaharni egallab, bu safar o‘z nomidan xutba o‘qitgan. So‘ngra Xurosonni zabt etish uchun yo‘l olib, Hirotni qamal qilgan, ammo amirlar orasidagi nizolar va Abu Saidning qaytib kelishi sababli qamalni to‘xtatib, Astrobodga qaytgan. U yerdan ham Abu Said qo‘shinlari yetib kelishi sababli chiqib ketib, Xorazmdagi “Odoq” nomli joyga o‘rnashgan. Bu uning uchinchi “qazoqlik” davri bo‘lib, taxminan 3 yil davom etgan.

1463-yilda Vazir shahri aholisining Mustafoxon O‘zbekdan noroziligidan foydalanib, shu shaharni, Urganch va Xivani egallagan. So‘ngra Marvga yurish qilgan, lekin Abu Said qo‘shinlarining kelgani sababli qamalni to‘xtatib, yana Xorazmga qaytgan. O‘sha yili yana Xurosonga hujum qilib, Torshiz viloyatida Abu Said qo‘shinlaridan mag‘lub bo‘lgan va Xorazmni ham yo‘qotgan. Shu sababli, Abulxayrxon O‘zbekdan boshpana so‘ragan, ammo Abulxayrxon vafot etib, uning yordam olish umidlari puchga chiqqan.

Xuroson taxtiga o‘tirish va hukmronlikning dastlabki yillari

Kam sonli qo‘shinga tayanib, Sulton Husayn Mirzo yana Xuroson sari yurish boshlagan. Bu vaqtda Abu Said Oqquyunli turkmanlarga qarshi urush uchun Ozarbayjonga ketgan edi. Abu Saidning turkmanlar tomonidan o‘ldirilgani haqida xabar tarqalgach, Husayn Mirzo Hirotdagi tarafdorlari yordamida hijriy 873-yil ramazon oyining 10-kuni (1469-yil 24-mart) shaharga kirib borgan va “Bog‘i Zog‘on”da o‘z nomidan xutba o‘qitgan. Uning hayoti bu jihatdan Zahiriddin Boburga o‘xshab ketadi, chunki u ham yoshligida ko‘plab qiyinchiliklarga duch kelib, oxir-oqibat hokimiyatga erishgan.

Taxtga chiqqach, dastlab shia mazhabidagi qarashlarini namoyon etib, 12 imom nomidan xutba o‘qishga ruxsat bergan. Biroq, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning ta’siri ostida bu qaroridan voz kechib, sunniylik yo‘nalishiga qaytgan. Shunga qaramay, u diniy mutaassiblik ko‘rsatmagan, balki diniy bag‘rikenglik siyosatini olib borgan. Hijriy 886-yilda (1481) Balx atrofida hazrat Aliga nisbat berilgan maqbara topilgach (keyinchalik “Mozori Sharif” deb nom olgan), shia tarafdorlariga yana yon bosishni boshlagan. Uning shialikka moyilligi “qazoqlik” davrlarida shialar tomonidan qo‘llab-quvvatlangani bilan izohlanishi mumkin.

Siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan nikohni ham amalga oshirgan – u Abu Saidning qizi Shahribonu Begimga uylanib, o‘z hukmronligiga huquqiy asos bergan. Keyinchalik undan ajrashib, singlisi Poyanda Begimga uylangan. Davlat ishlarini yuritish uchun Hirotda yangi “Murod bog‘i”ni (keyinchalik “Bog‘i Jahonoro”) barpo etgan. Uning hukmronligi davrida duch kelgan birinchi jiddiy muammo Yodgor Muhammad Mirzoning (Shohrux Mirzoning nabirasi) isyoni bo‘lgan. Yodgor Muhammad Uzun Hasan Oqquyunli yordamida Xuroson taxtiga da’vogarlik qilgan. 1469-yil 15-sentyabrda Mashhad yaqinidagi Chonoron jangida Sulton Husayn Mirzo

uni mag‘lub etgan. Biroq, Yodgor Muhammad yana qo‘shin to‘plab, Sulton Husayn Mirzoning ba’zi amirlarining xiyonati va Sulton Ahmad Mirzoning hujumi tufayli Hirotni tark etishga majbur bo‘lgan paytda, 1470-yil 5-iyulda Hirotga kirib, hokimiyatni qo‘lga olgan. Ammo ko‘p o‘tmay, Sulton Husayn Mirzo Abu Saidning o‘g‘illari ittifoqini tor-mor keltirib, Hirot aholisining Yodgor Muhammadning turkman lashkaridan noroziligidan va uning tajribasizligidan foydalanib, Alisher Navoiy yordami bilan shaharga yashirincha kirib kelgan va Yodgor Muhammadni qo‘lga olib, qatl ettirgan (1470-yil avgust).

Davlat boshqaruvi va siyosiy faoliyatning asosiy yo‘nalishlari

Manbalarda Sulton Husayn Mirzoning davlat boshqaruvining aniq mexanizmlari, ma’muriy islohotlari yoki iqtisodiy siyosati haqida ma’lumotlar batafsil bayon qilinmagan. Biroq, uning uzoq muddatli hukmronligi (qariyb 40 yil) davomida Xurosonda nisbiy barqarorlikni ta’minlagani, Hirotni yirik madaniy va ilmiy markazga aylantirgani uning davlat boshqaruvida muayyan tizim va samaradorlik bo‘lganidan dalolat beradi. Alisher Navoiy kabi nufuzli shaxslarning davlat ishlarida faol ishtirok etgani, uning boshqaruviga katta yordam bergan. Uning diniy bag‘rikenglik siyosati ham jamiyatda turli guruhlar o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga xizmat qilgan bo‘lishi mumkin. Harbiy sohada u doimiy ravishda ichki va tashqi dushmanlarga qarshi kurash olib borgan, bu esa kuchli va jangovar armiyaga ega bo‘lishni taqozo etgan.

Hukmronligining keyingi davrlari va Xurosonning siyosiy ahvoli

Sulton Husayn Mirzo hukmronligining keyingi yillarida o‘g‘illari, xususan, Badiuzzamon Mirzo bilan munosabatlari murakkablashgan va taxt vorisligi masalasi dolzarb bo‘lib qolgan. Bu ichki nizolar davlatning zaiflashishiga olib kelgan. Shu bilan birga, shimoldan Shayboniyxon boshchiligidagi ko‘chmanchi o‘zbeklarning hujumlari kuchayib, Xuroson uchun jiddiy xavf tug‘dirgan. Sulton Husayn Mirzo umrining so‘nggi yillarini ushbu xavfga qarshi kurashish bilan o‘tkazgan. U 1506-yilda Shayboniyxonga qarshi yurish paytida vafot etgan. Uning vafotidan so‘ng Xurosondagi Temuriylar hukmronligi tezda barham topgan.

Sulton Husayn Mirzoning siyosiy faoliyati va davlat boshqaruvi natijalarini tahlil qilish uning murakkab va ko‘p qirrali shaxs bo‘lganini ko‘rsatadi. Uning hukmronlik davri Temuriylar sulolasining Xurosondagi so‘nggi yuksalish davri bo‘lib, bu davrda siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotda muhim yutuqlarga erishildi, biroq ayni paytda jiddiy muammolar va ziddiyatlar ham mavjud edi.

Sulton Husayn Mirzoning siyosiy strategiyalari va taktikalarini baholar ekanmiz, uning uzoq yillar davomida hokimiyat uchun kurash olib borgani va bir necha bor “qazoqlik”da yurgani uning irodali, chidamli va maqsad sari intiluvchan shaxs bo‘lganidan dalolat beradi. U o‘z raqiblariga qarshi kurashda ham harbiy kuchga, ham diplomatik hiylalarga tayangan. Masalan, Abu Said bilan munosabatlarida u goh ittifoqchi, goh dushman sifatida namoyon bo‘lgan, bu esa uning vaziyatga qarab

moslashuvchan siyosat yuritganini ko‘rsatadi. Astrobodni bir necha bor egallashi va yo‘qotishi, so‘ngra yana qaytarib olishi uning harbiy salohiyati va strategik fikrlash qobiliyatidan darak beradi. Yodgor Muhammad Mirzoga qarshi kurashda u nafaqat harbiy g‘alabaga erishdi, balki raqibining ichki zaifliklaridan va Hirot aholisining noroziligidan mohirlik bilan foydalandi. Alisher Navoiy kabi sodiq va dono maslahatchilarning yordami uning muvaffaqiyatlarida muhim rol o‘ynagan.

Biroq, uning siyosatida kamchiliklar ham yo‘q emas edi. Xususan, o‘g‘illari bilan munosabatlarining murakkablashuvi va taxt vorisligi masalasining o‘z vaqtida hal etilmagani davlatning ichki birligiga putur yetkazdi. Bu holat, ayniqsa, Shayboniyxon kabi kuchli tashqi dushman paydo bo‘lgan bir paytda Xurosonning mudofaa qobiliyatini zaiflashtirdi. Boburning “Boburnoma”da keltirishicha, Sulton Husayn Mirzoning o‘g‘illari ko‘pincha o‘zaro nizolashib, otasiga qarshi bosh ko‘targanlar, bu esa markaziy hokimiyatni obro‘sizlantirgan.

Uning davlat boshqaruv tizimining o‘ziga xos xususiyatlariga kelsak, Sulton Husayn Mirzo markazlashgan davlatni saqlab qolishga harakat qilgan bo‘lsa-da, amalda viloyatlardagi hokimlarning mustaqilligi kuchli bo‘lgan. Uning davrida Hirot yirik ma’muriy markaz sifatida faoliyat yuritgan, davlat devoni va boshqa idoralar mavjud bo‘lgan. Alisher Navoiyning muhrdorlik va boshqa yuqori lavozimlarda ishlagani uning davlat boshqaruvida faol ishtirok etganidan dalolat beradi. Sulton Husayn Mirzoning diniy siyosati ham muhokamaga loyiq. U dastlab shialikka moyillik ko‘rsatgan bo‘lsa-da, keyinchalik sunniylik yo‘liga qaytgan. Bu uning siyosiy vaziyatga qarab o‘z pozitsiyasini o‘zgartirishi mumkinligini yoki Jomiy va Navoiy kabi sunniy ulamolar va amirlarning ta’siri kuchli bo‘lganini ko‘rsatadi. Mozori Sharifning topilishi va unga e’tibor qaratilishi uning shia an’analariga ham hurmat bilan qaraganini anglatishi mumkin. Umuman olganda, u diniy bag‘rikenglik siyosatini olib borgan, bu esa turli mazhab vakillarining birgalikda yashashiga imkon bergan.

Sulton Husayn Mirzo hukmronligining Xurosondagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotga ta’siri beqiyosdir. Uning davrida Hirot sharqning eng yirik madaniy markazlaridan biriga aylandi. Adabiyot, san’at, me’morchilik, xattotlik va kitobat san’ati yuksak darajada rivojlandi. Sulton Husayn Mirzoning o‘zi ham shoir bo‘lgan va “Husayniy” taxallusi bilan she’rlar yozgan. U Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Kamoliddin Behzod kabi buyuk iste’dod sohiblariga homiylik qilgan. Bu davrda ko‘plab madrasalar, xonaqohlar, kutubxonalar va boshqa jamoat binolari qurilgan. Iqtisodiy jihatdan, nisbiy barqarorlik tufayli savdo-sotiq va hunarmandchilik rivojlangan, biroq doimiy harbiy yurishlar va ichki nizolar iqtisodiyotga salbiy ta’sir ko‘rsatmay qolmagan.

Uning shaxsiyatining tarixiy bahosiga kelsak, Sulton Husayn Mirzo Temuriylar sulolasining so‘nggi qudratli hukmdori sifatida tarixda qoldi. Uning “G‘oziy” unvoni islom dinini himoya qilish va kengaytirish yo‘lidagi sa’y-harakatlarini aks ettiradi.

Uning homiylik faoliyati esa Temuriylar Uyg‘onish davrining yorqin namoyandasi bo‘lishiga imkon berdi. Biroq, uning hukmronligining so‘nggi yillaridagi zaifliklar va ichki parokandalik Xurosonning Shayboniylar tomonidan osonlikcha bosib olinishiga zamin yaratdi. Keltirilgan manbalarning ishonchliligi masalasida shuni aytish mumkinki, Mirxond, Xondamir, Bobur kabi tarixchilar voqealarga bevosita guvoh bo‘lgan yoki ishonchli shaxslardan ma’lumot olganlar. Shu bilan birga, ularning asarlarida muayyan hukmdorlarga yoki guruhlarga yon bosish holatlari uchrashi mumkin. Masalan, Sulton Husayn Mirzoning nasabi haqidagi ayrim da’volar (Xoja Abdulloh Ansoriyga bog‘lanishi) faqat ayrim manbalarda uchraydi va boshqa tarixchilar tomonidan tasdiqlanmagan. Shuningdek, Torshizdagi mag‘lubiyat kabi noxush voqealar ba’zi tarixchilar tomonidan yumshatib ko‘rsatilgan yoki hatto g‘alaba sifatida talqin qilingan. Bu esa tarixiy manbalarni tanqidiy tahlil qilish zaruratini yana bir bor ta’kidlaydi. Sulton Husayn Mirzo davri Temuriylar tarixidagi muhim bir bosqich bo‘lib, uning merosi keyingi davrlarga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Uning madaniy yutuqlari O‘rta Osiyo va qo‘shni mamlakatlar madaniyatining rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Uning siyosiy faoliyati esa keyingi hukmdorlar uchun ham saboq bo‘lib xizmat qildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sulton Husayn Mirzo Temuriylar sulolasining Xurosondagi so‘nggi yirik hukmdori sifatida tarixda chuqur iz qoldirgan. Uning qariyb qirq yillik, ziddiyatli voqealarga boy hukmronligi davri Xuroson uchun nisbiy barqarorlik, iqtisodiy yuksalish va yuksak madaniy taraqqiyot davri bo‘ldi.

Sulton Husayn Mirzo uzoq va mashaqqatli kurashlar, jumladan, “qazoqlik”da yurish orqali hokimiyatga kelib, bu jarayonda qat’iyatlilik va siyosiy moslashuvchanlik kabi fazilatlarni namoyon etdi. Davlat boshqaruvida markazlashgan hokimiyatni saqlashga intilgan bo‘lsa-da, suyurg‘ol tizimi va mahalliy amirlarning nufuzi yuqoriligicha qoldi, biroq Alisher Navoiy kabi sadoqatli arboblar yordamida ma’muriy tartib va adolatni ta’minlashga harakat qildi.

Sulton Husayn Mirzoning murakkab sharoitlarda davlatchilikni saqlab qolish, tinchlikni ta’minlash hamda ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishga qo‘shgan hissasi uning siyosiy va madaniy merosining O‘rta Osiyo tarixi va madaniyatida o’chmas iz qoldirganini belgilaydi. Uning faoliyatini o‘rganish Temuriylar davri tarixini chuqurroq anglash va milliy madaniy merosni qadrlash uchun muhim ahamiyatga ega. Husayn Boyqaro davrining hali yana yetarlicha tadqiq etilmagan jihatlari mavjud bo‘lib, madaniy meros namunalari, xalq xo‘jaligi, xalqaro aloqalar singari ko‘plab mavzularda ilmiy izlanishlar davom ettirilishi tariximizni yosh avlodlarga tanishtirishga va tasavvurlarini boyitishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Aka İ. (1995). Timurlular. – Ankara.
2. Davlatshoh Samarqandi. (1385/2006). Tadhkirat al-Shu’ara (F. Alaqa, Tahrir.). – Tehron.
3. Farahani Mofrad M. (1383/2004). Peyvand-i Siyasat va Farhang dar Asr-i Zaval-i Timuriyan va Zohur-i Safaviyan. – Tehron.
4. Fazlallah bin Rouzbehan. (1382/2003). Alam Aray-i Amini (M. A. Ashiq, Tahrir.). – Tehron.
5. Mirkhond M. (1380/2001). Ravdat al-Safa (J. Kianfar, Tahrir.). – Tehron.
6. Navoiy, A. (1341/1962). Asnad va Maktubat-i Tarikhi (Az Timur ta Shah Ismail). – Tehron.
7. Qazvini, Y. (1363/1984). Lab al-Tavarik. – Tehron.
8. Sam Mirzo Safavi. (1384 sh./2005). Tuhfat-i Sami (R. al-D. H. Farakh, Tahrir.). – Tehron.
9. Самарқандий, А. (2008). Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. – Тошкент: Ўзбекистон.
10. Хондамир, Ғ. (2013). Ҳабиб ус-сияр фи ахбори афроди башар. – Тошкент: Ўзбекистон.

REFERENCES:

1. Aka İ. (1995). Timurlular. – Ankara. (In Turkish)
2. Davlatshoh Samarqandi. (1385/2006). Tadhkirat al-Shu’ara (F. Alaqa, Tahrir.). – Tehron. (In Iranian)
3. Farahani Mofrad, M. (1383/2004). Peyvand-i Siyasat va Farhang dar Asr-i Zaval-i Timuriyan va Zohur-i Safaviyan. – Tehron. (In Iranian)
4. Fazlallah bin Rouzbehan. (1382/2003). Alam Aray-i Amini (M. A. Ashiq, Tahrir.). – Tehron. (In Iranian)
5. Mirkhond M. (1380/2001). Ravdat al-Safa (J. Kianfar, Tahrir.). – Tehron. (In Iranian)
6. Navoiy, A. (1341/1962). Asnad va Maktubat-i Tarikhi (Az Timur ta Shah Ismail). – Tehron. (In Iranian)
7. Qazvini, Y. (1363/1984). Lab al-Tavarik. – Tehron. (In Iranian)
8. Sam Mirzo Safavi. (1384 sh./2005). Tuhfat-i Sami (R. al-D. H. Farakh, Tahrir.). – Tehron.
9. Samarqandiy, A. (2008). Matlai sa’dayn va majmai bahrayn. – Toshkent: O‘zbekiston. (In Uzbek)
10. Xondamir, G’. (2013). Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar. – Toshkent: O‘zbekiston. (In Uzbek)

AMIR TEMUR MEROSI VA UCHINCHI RENESSANS: TARIXIY TAJRIBANING BUGUNGI AHAMIYATI

AMIR TEMUR'S LEGACY AND THE THIRD RENAISSANCE: THE CONTEMPORARY SIGNIFICANCE OF HISTORICAL EXPERIENCE

НАСЛЕДИЕ АМИРА ТЕМУРА И ТРЕТИЙ РЕНЕССАНС: СОВРЕМЕННОЕ ЗНАЧЕНИЕ ИСТОРИЧЕСКОГО ОПЫТА

Asqarov Akbar Asadovich
Xoja Buxoriy o'rta maxsus islom ta'lim muassasasi o'qituvchisi,
Oriental universiteti magistranti
Tel.: +998 91 963-45-00
E-mail: asqarov.a@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk davlat arbobi Amir Temur merosining zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ma'naviy taraqqiyotidagi muhim o'rni tahlil qilinadi. Xususan, "Temur tuzuklari" asarida aks etgan adolat, ilm-fan, samarali rahbarlik madaniyati, ijtimoiy intizom va davlat boshqaruvining asosiy tamoyillari chuqur o'rganiladi hamda ularning O'zbekistonning "Uchinchi Renessans" g'oyasi bilan uzviy bog'liqligi ilmiy asoslanadi. Maqolada Temuriylar davridagi madaniy-ma'rifiy muhit va kutubxona, madrasa an'analarining bugungi ta'lim-tarbiya va islohotlar jarayoniga ko'rsatadigan ijobiy ta'siri ochib beriladi. Shuningdek, Amir Temur merosining global miqyosda davlat boshqaruvi va madaniyat sohasidagi dolzarbligi, shu jumladan, uning xalqlar o'rtasidagi hamkorlik va tinchlikni ta'minlashdagi strategiyalarining bugungi kunda qo'llanilishi mumkin bo'lgan jihatlari ko'rib chiqiladi. Maqola tarixiy tajribani zamonaviy sharoitda qo'llash imkoniyatlarini ochib berishga qaratilgan bo'lib, O'zbekistonning global miqyosda intellektual va madaniy rivojlanishdagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *Amir Temur, Temur tuzuklari, Uchinchi Renessans, tarixiy meros, davlat boshqaruvi, ilm-fan, madaniyat, ta'lim.*

Annotation: In the article the significant role of the legacy of the great statesman Amir Temur in the socio-political, cultural, and educational development of modern Uzbekistan is analyzed. Specifically, it thoroughly examines the core principles outlined in "Temur's Code" ("Tuzuklari"), such as justice, science, effective leadership culture, social discipline, and state governance, and provides a scholarly basis for their intrinsic connection to the concept of the "Third Renaissance" in Uzbekistan. The article elucidates the cultural and educational environment of the Temurid era, particularly the traditions of libraries and madrasas, and highlights their positive impact on contemporary education and reform processes. Furthermore, it explores the global relevance of Amir Temur's legacy in the fields of state governance and culture,

including the applicability of his strategies for fostering cooperation and peace among nations in today's context. The study aims to reveal the potential for applying historical experience to modern conditions, contributing to the strengthening of Uzbekistan's intellectual and cultural position on a global scale.

Keywords: *Amir Temur, Temur's Code, Third Renaissance, historical legacy, state governance, science, culture, education.*

Аннотация: В статье анализируется значительная роль наследия великого государственного деятеля Амира Темура в социально-политическом, культурном и духовном развитии современного Узбекистана. В частности, глубоко исследуются основные принципы, изложенные в «Уложение Темура», такие как справедливость, наука, культура эффективного управления, социальная дисциплина и государственное управление, а также научно обосновывается их неразрывная связь с концепцией «Третьего Ренессанса» в Узбекистане. В статье раскрывается культурно-просветительская среда эпохи Темуридов, в частности традиции библиотек и медресе, и подчеркивается их положительное влияние на современные процессы образования и реформ. Кроме того, рассматривается глобальная актуальность наследия Амира Темура в сфере государственного управления и культуры, включая применимость его стратегий для укрепления сотрудничества и мира между народами в современных условиях. Статья направлена на раскрытие возможностей применения исторического опыта в современных реалиях, способствуя укреплению интеллектуального и культурного статуса Узбекистана на глобальной арене.

Ключевые слова: *Амир Темур, Уложение Темура, Третий Ренессанс, историческое наследие, государственное управление, наука, культура, образование.*

KIRISH

Bugungi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ayniqsa “Uchinchi Renessans” g‘oyasining ilgari surilishi milliy tarix, ma’naviyat va davlatchilik merosiga yangicha qarashni talab qilmoqda. Uchinchi Renessansga eltuvchi yo‘l bu o‘z tariximizni, ajdodlarimiz qoldirgan bebaho merosni chuqur anglash, uni zamon ruhiga mos holda rivojlantirish yo‘lidir. Shu nuqtai nazardan qaralganda, Amir Temur va uning merosi, xususan “Temur tuzuklari” asari, nafaqat tarixiy xotiraning bir bo‘lagi, balki milliy taraqqiyotning bugungi bosqichida g‘oyaviy-ma’naviy manba sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

Amir Temur o‘rta asr sharq siyosiy tafakkurida o‘ziga xos maktab yaratgan buyuk sarkarda va davlat arbobi sifatida tanilgan. Uning siyosiy qarashlari, davlatni markazlashtirishga qaratilgan islohotlari, ijtimoiy adolat va harbiy intizom tamoyillariga asoslangan boshqaruv tizimi “Temur tuzuklari” asarida mujassam

ifodalangan. Ushbu asarda adolat, ilm-fan, diniy bag‘rikenglik, malakali kadrlar tayyorlash, xalq farovonligini ta’minlash kabi g‘oyalar asosiy o‘rinni egallaydi. Bu qarashlar nafaqat o‘z davrida samarali bo‘lgan, balki bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan universal qadriyatlar sirasiga kiradi.

Uchinchi Renessans g‘oyasi bugungi O‘zbekiston taraqqiyotining g‘oyaviy va strategik asosidir. Uning negizida tarixiy tajribani zamonaviy taraqqiyot bilan uyg‘unlashtirish yotadi. Temuriylar davridagi Renessans – ilm-fan, san’at, me’morchilik va davlat boshqaruvi sohalarida yuzaga chiqqan yuksalish bugungi islohotlar uchun kuchli tarixiy tayanch vazifasini o‘tamoqda. Amir Temur tomonidan yaratilgan ilg‘or boshqaruv tizimi, yoshlarni tarbiyalashdagi yondashuvlar, bilim va malakaga e’tibor, ijtimoiy barqarorlik va adolatga asoslangan siyosat – bularning barchasi zamonaviy O‘zbekiston siyosiy-iqtisodiy modelida o‘z aksini topmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

“Temur tuzuklari” asari Amir Temurning davlat boshqaruvi, adolat, ijtimoiy intizom va markazlashgan davlat tuzilishi tamoyillari bo‘yicha muhim manba sifatida o‘rganilgan. Ushbu asarni tahlil qilgan olimlarning tadqiqotlari asarning tarixiy, huquqiy va zamonaviy ahamiyatini yoritadi. Quyida ushbu mavzu bo‘yicha bir qator muhim tadqiqotlarning tahlili keltiriladi.

T. Murodullayevning “Amir Temurning “Temur tuzuklari” asari: dolzarbligi va bugungi kundagi ahamiyati” nomli ishida asarning zamonaviy O‘zbekiston davlatchiligi kontekstidagi ahamiyatiga e’tibor qaratadi. Shuningdek, u Amir Temurning davlat boshqaruvi tajribasining bugungi kunda islohotlar va milliy o‘zlikni mustahkamlash jarayonlariga ta’sirini tahlil qiladi.

M. Abdujabbarova, O. Davlatov, K. Sultanovning “The History of the Development of the Foundations of Public Administrations of Amir Temur: “Temur Tuzuklari” as the Basis of Statehood” nomli maqolasi “Tuzuklar”ning davlat boshqaruvi asoslarini shakllantirishdagi rolini xorijiy nuqtai nazardan o‘rganadi.

Mazkur maqolalardan farqli ravishda, ayni Uchinchi Renessans davrini boshlash arafasida “Temur Tuzuklari” asarining ahamiyati yanada ortgani sabablari quyida tahlil qilinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda “Temur tuzuklari” asarining tarixiy-tahliliy va qiyosiy metodlar orqali o‘rganilishi ko‘zda tutiladi. Manbalar tahlili, tarixiy hujjatlar va ilmiy adabiyotlarni sintez qilish yo‘li bilan Amir Temur merosining “Uchinchi Renessans” g‘oyasiga ta’siri aniqlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Amir Temur merosining bugungi kundagi ahamiyati, avvalo, tarixiy xotira va g‘ururni tiklash, o‘zlikni anglash, davlat idoralarida mas’uliyat va samimiy xizmat

tamoyillarini targ‘ib etish orqali namoyon bo‘lmoqda. “Temur tuzuklari”dagi har bir band rahbarlar uchun mas’uliyat darsidir. Bu asar nafaqat tarixchilar, balki siyosatchilar, pedagoglar, davlat xizmatchilari va yoshlar tarbiyachilari uchun ham muhim manbadir. Shu bilan birga, uning ta’lim va tarbiya sohasida, g‘oyaviy-ma’naviy targ‘ibotda qo‘llanilishi Uchinchi Renessans g‘oyalarini hayotga tatbiq etishda muhim o‘rin tutadi.

Amir Temur tomonidan asos solingan buyuk saltanat va undagi boshqaruv tizimining nazariy asoslarini bayon etuvchi eng muhim manbalardan biri bu “Temur tuzuklari” asaridir. Ushbu asar Temuriylar davridagi siyosiy-huquqiy tafakkur, davlat qurilishi, harbiy boshqaruv, intizom, axloqiy qadriyatlar va ilm-fanga bo‘lgan munosabatning o‘ziga xos ifodasidir. Asar tarkibidagi har bir tamoyil, har bir band zamonaviy davlatchilik poydevoriga asos bo‘la oladigan darajada chuqur fikr va tajribaga tayanadi.

Ammo asarning yaratilish va tarqalish tarixi, xususan uning fors tilidagi tarjimasi bilan bog‘liq muammolar, bugungi kunda ham ilmiy muhokamalar mavzusi bo‘lib qolmoqda. Aksar tadqiqotchilar “Temur tuzuklari”ning Hindistonda Shoh Jahon farmoni bilan tarjima qilinganini ilgari surishadi. Biroq bu fikr tarixiy va manbashunoslik jihatidan shubhali sanaladi. Tadqiqotchi B. Ahmedovning fikricha, agar asarning asl nusxasi Hindistonda mavjud bo‘lganida edi, Shoh Jahon uni o‘z tarixchilari orqali tarjima qildirgan bo‘lardi. Shuningdek, Shoh Jahon o‘z davrining yirik olimi va tarix bilimdoni Shayxulislom Muhammad Afzal Buxoriyga tarjimani ko‘rib chiqish vazifasini berganida, mavjud nusxa bilan solishtirishni ham buyurgan bo‘lardi (Ахмедов Б., 1996: 4). Bunday topshiriqning yo‘qligi esa, asarning Hindistonga allaqachon tarjima qilingan holda kelganligini ko‘rsatadi.

“Temur tuzuklari”ning fors tiliga tarjimasi Mir Abu Tolib al-Husayniy at-Turbatiy nomi bilan bog‘liq. U o‘zining “Qissayi Temur” nomli qo‘lyozma asari muqaddimasida bu haqda shunday yozadi: “...ikkita sharafli zot – Haram sohibi va Yaman hokimi Ja’far Bostoniyning kutubxonasida bir kitobga ko‘zim tushdi. Uni o‘qib chiqqach, angladimki, bu to‘liq holda Sohibqiron Amir Temur Ko‘ragonning o‘z so‘zlaridan iborat kitob bo‘lib, u unda yetti yoshidan to qirq yoshigacha kechirgan hayotini, qanday qilib sultonlik maqomiga yetgani, qanday xosiyatlar bilan yetti iqlim mamlakatlariga farmonravolik qilgani haqida yozgan... Uni fors tiliga tarjima qilib, kitob holiga keltirdim, toki podshohlarga qo‘llanma bo‘lsin”[12].

Mazkur so‘zlardan shuni anglash mumkinki, Turbatiy tarjimani Hindistonda emas, balki Shoh Jahonga taqdim etishdan avval bajargan va uni yangi asar sifatida taqdim qilgan. Bu holat asarning dastlabki nusxasi Markaziy Osiyoda yozilganligini va keyinchalik fors tiliga tarjima qilinib Hindistonga olib kelinganini isbotlaydi.

[12] Saltikov-Shedrin nomidagi Rossiya milliy kutubxonasi. Qo‘lyozmalar bo‘limi. Inventar № THC 107.

Bu tarixiy faktlar shuni ko‘rsatadiki, “Temur tuzuklari” o‘z davrida siyosiy va ma’naviy qo‘llanma sifatida tuzilgan bo‘lib, uning yozilishida Amir Temurning bevosita ishtiroki va o‘z hayotiy tajribasiga tayanilgan. Asar bugungi kunda nafaqat tarixiy manba, balki rahbarlik madaniyati, yoshlar tarbiyasi, davlat boshqaruvi va strategik fikrlashda foydalaniladigan g‘oyaviy-ma’naviy meros sifatida baholanmoqda.

“Temur tuzuklari” asarining keyingi davrlarda o‘zbek tiliga qilingan tarjimalari haqida 1996-yilda Toshkentda chop etilgan “Temur tuzuklari” kitobi muqaddimasida quyidagicha ma’lumot berilgan: “Tuzuki Temuriy” to‘liq holda Xorazm (Xiva)da Muhammad Yusuf ar-Roziy tomonidan hijriy 1273-yilda (milodiy 1856–1857) va Pahlavoniy Niyoz Devon tomonidan 1858-yilda eski o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Shuningdek, asarning eski o‘zbek tiliga qilingan yana bir nusxasi mavjud bo‘lib, u to‘liq emas. Unda faqat Sohibqiron hazratlarining 39 yoshigacha bo‘lgan hayoti va tarixiy voqealari bayon etilgan, xolos. Ushbu tarjima Qo‘qon xoni Muhammad Alixon (1821/22–1858/59)ning topshirig‘i bilan Xo‘jand qozikalonlaridan biri bo‘lgan Nabijon Maxdum tomonidan amalga oshirilgan.

Yuqorida tilga olingan tarjimalar “Temur tuzuklari” asarining o‘zbek madaniy muhitida keng tarqalganligini va uning keyingi tarixiy bosqichlarda ham dolzarb ahamiyatga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, XIX asr o‘rtalarida asarning bir necha bor eski o‘zbek tiliga tarjima qilinishi uning xalq ongidagi mavqeini saqlab qolganidan dalolat beradi. So‘nggi yillarda esa “Temur tuzuklari”ning zamonaviy o‘zbek tiliga ham bir necha tarjimalari chop etilgan bo‘lib, bu tarjimalar asarning ilmiy-tarixiy qiymatini keng auditoriyaga yetkazishga xizmat qilmoqda.

“Temur tuzuklari”dagi o‘n ikki toifa – bu Amir Temur tomonidan saltanatni har tomonlama mustahkamlashga qaratilgan tizimli yondashuvning ifodasidir. Har bir toifa davlat va jamiyatning muhim ijtimoiy-siyosiy, diniy, harbiy, ilmiy va iqtisodiy qatlamlarini qamrab oladi. Ulardan har biriga tegishli vazifalar, tartib va munosabatlar tizimi aniq belgilangan. Bu tizim quyidagilar orqali jamiyatni uyg‘unlashtirish, davlat boshqaruvida har bir qatlamning o‘rnini belgilash va bu orqali ichki barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan.

- din va axloq asoslari (sayyidlar, ulamo, sufiylar),
- siyosiy va harbiy boshqaruv (amirlari, vazirlar, maslahatchilar, sipohiylar),
- ilm-fan va texnik taraqqiyot (tabiblar, muhandislar, muvaqqitlar, muhaddislar),
- madaniyat va tarixiy xotira (qissaxonlar, rivoyatchilar),
- xalq bilan bevosita aloqada bo‘lish (hunarmandlar, sayohatchilar, karvonsaroy vakillari)

Amir Temur o‘z davlati tuzilmasini astronomik tizimga (o‘n ikki burj) va tabiiy vaqt aylanishi (o‘n ikki oy) bilan qiyoslagani esa davlatni muvozanatli va fazoviy uyg‘unlikda tasavvur qilishga asoslangan chuqur falsafiy yondashuvni ifodalaydi.

Bu tizim hozirgi O‘zbekistonda shakllanayotgan Uchinchi Renessans uchun muhim g‘oyaviy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi:

1. Ilm, din va siyosat uyg‘unligi – zamonaviy O‘zbekiston taraqqiyotida ilm-u ma’rifat, diniy bag‘rikenglik va davlat boshqaruvi uyg‘unligini shakllantirishda bevosita namunadir.
2. Kadrlar siyosatining tarixiy ildizlari – davlat xizmatida mas’uliyat, sadoqat va shijoat asosida tanlov qilish tamoyillari temuriylar tajribalariga tayangan holda mukammallashmoqda.
3. Ilm-fan, hunarmandchilik va iqtisodiy faoliyatga e’tibor – innovatsiya, texnologik taraqqiyot va xalqaro savdo aloqalari temuriylar davridagi keng dunyoqarash bilan uyg‘unlashmoqda.
4. Yoshlar tarbiyasi va tarixiy xotira – “Temur tuzuklari”dagi axloqiy mezonlar va namunaviy rahbarlik tamoyillari bugungi yoshlarda milliy g‘urur, mas’uliyat va vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda foydali manbadir.

“Temur tuzuklari”ning ushbu qismida Amir Temur davlat boshqaruvida adolat, mas’uliyat, intizom va axloqiy poklik tamoyillarini qat’iy tatbiq etganini ko‘rish mumkin. U o‘g‘il va qarindoshlarining taxt uchun da’vogarligiga qarshi, ichki urushlarning oldini olish maqsadida siyosiy ehtiyotkorlikni ustuvor qo‘ygan. Amirlardan tortib, sipohiylar, moliya vazirlari, dorug‘a va hokimlargacha bo‘lgan barcha tabaqadagi amaldorlarning faoliyati qat’iy nazorat ostida bo‘lgan.

Temur shaxsiy adovat, hasad va tuhmat asosida chiqarilgan qarorlarning davlatga yetkazadigan zararini anglab, adolatli tekshiruvsiz jazolashni qoralaydi, ayniqsa maslahatchilar va vazirlar haqida yolg‘on xabarlar asosida chora ko‘rishdan ogohlantiradi. Shuningdek, iqtisodiy javobgarlik, harbiy tartib, sud-huquq tizimining shariat va urfga asoslangan holda ishlashini ta’minlash kabi tamoyillar bayon etiladi.

Temur va temuriylar davrida madrasalar oliy ta’lim muassasasi vazifasini bajargan bo‘lib, ular nafaqat diniy, balki dunyoviy bilimlar beruvchi yuksak ilm maskanlari sifatida faoliyat yuritgan. Movarounnahr va Xuroson viloyatlarida davlat arboblari va badavlat shaxslar homiyligida barpo etilgan ko‘plab madrasalar faoliyat ko‘rsatgan. Islom olamida ilk madrasa X asrda Buxoroda tashkil etilgan bo‘lib, bu an’ana keyingi asrlarda temuriylar davrida yuksak taraqqiyot cho‘qqisiga chiqqan.

Madrasalarda ilohiyot fanlari bilan bir qatorda fiqh, mantiq, matematika, geometriya, falakiyot, tibbiyot, tarix, jug‘rofiya, adabiyot, aruz ilmi, arab tili kabi dunyoviy fanlar ham o‘qitilgan. Bu muassasalarda o‘z davrining eng yetuk olim va mutaxassislari dars bergan, ularga belgilangan maosh to‘langan. 1404-yilda Amir Temurning rafiqasi Saroymulk xonim Samarqandda o‘z otasi – Qozonxon merosiga tayangan holda hashamatli madrasa qurdirdi. Bu madrasa ilmiy salohiyati va me’moriy go‘zalligi bilan alohida ajralib turgan.

Temuriylar hukmronligining ikkinchi markazi bo‘lgan Hirot shahrida ham yirik madrasa va xonaqohlar mavjud bo‘lib, Xondamirning ma’lumotlariga ko‘ra, bu yerda 36 ta madrasa faoliyat yuritgan. Hirotga turli mamlakatlardan talabalar tahsil olish uchun kelgan. Bilim dargohlaridan, ayniqsa, amir Feruzshoh madrasasi va xonaqohi, shuningdek, Injil kanali bo‘yidagi Doru-sh-shifo shifoxonasiga qarama-qarshi joylashgan Ixlosiya madrasasi va Xalosiya xonaqohi katta shuhrat qozongan. Bu muassasalar Husayn Boyqaro davrida barpo etilgan bo‘lib, u yerda mashhur olimlar dars bergan.

Temuriylar davridagi mashhur mudarrislar orasida Burhoniddin Atoulloh Nishopuriy, qozikalon Ixtiyoriddin Hasan Jurobiy, amir Murjoz va Fasihiddin Muhammad Nizomiylar bor edi. Madrasalardagi tahsil tanlov asosida olib borilgan: har oylik imtihonlarda sust o‘quvchilar o‘qishdan chetlatilgan, faqat iqtidorli talabalar o‘qishni davom ettirgan.

Ulug‘bek tomonidan Buxoro va G‘ijduvonda bittadan, Samarqandda esa ikkita madrasa barpo ettirilgan. Bundan tashqari, o‘sha davrda Samarqandda Xonim, Qutbiddin Sadr va Muhammad Sulton madrasalari ham faoliyat ko‘rsatgan.

Madrasalar, xonaqohlar va kutubxonalar ilm-ma’rifatning amaliy asosiga aylangan. Talabalar fanning turli sohalariga doir ko‘plab asarlarni o‘rganar edilar. Temur va uning avlodlari saroylarida esa qadimgi dunyo va o‘rta asrga oid noyob qo‘lyozmalar saqlanadigan boy kutubxonalar mavjud bo‘lgan. Samarqandda Amir Temur va Ulug‘bek, Hirotda esa Shohrux, Boysung‘ur, Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy kutubxonalari ilm-ma’rifat markazlari sifatida mashhur bo‘lgan.

Amir Temur tomonidan yaratilgan “Temur tuzuklari” asari nafaqat siyosiy va harbiy boshqaruv mezonlarini belgilab bergan, balki ilm-fan, ta’lim va ma’rifat sohalarini rivojlantirishda ham mustahkam nazariy asos bo‘lib xizmat qilgan. Asarda ilmga, donishmandlarga, ulamolarga va mutafakkirlarga e’tibor berish, ularni himoya qilish, ulardan maslahat olish va doimo muloqotda bo‘lish zarurligi qat’iy ifodalangan. Temur “o‘n ikki tarmoq” tamoyiliga asoslangan saltanat tuzilmasida sayyidlar, ulamo, fozillar, oqil kishilar, mudarrislar, tabiblar, muhandislar, munajjimlar, qissaxonlar, so‘fiy mashoyixlarni davlat barqarorligi va taraqqiyoti uchun alohida ijtimoiy qatlam sifatida ajratib ko‘rsatgan.

Aynan shu yondashuv Temuriylar davrida madrasalar, xonaqohlar va kutubxonalar faoliyatining yuksak darajada tashkil etilishiga zamin yaratdi. Ularning asosiy vazifasi nafaqat diniy bilim berish, balki zamonaviy dunyoviy fanlarni – matematika, mantiq, tibbiyot, falakiyot, tarix, jug‘rofiya, adabiyot kabi sohalarni o‘qitish bo‘ldi. Bu esa “Temur tuzuklari”da ko‘zda tutilgan ilmiy tafakkurni davlat boshqaruvi bilan uzviy bog‘lash g‘oyasining amaliy natijasi edi.

Madrasalarning rivoji, u yerda faqat iqtidorli talabalar tahsil olishi, o‘qituvchilarga maosh belgilanishi, imtihon tizimining joriy etilishi – bularning

barchasi Temuriylar tomonidan “Temur tuzuklari”da ko‘rsatilgan ilm-fanga asoslangan boshqaruv modelining davomiyligidir. Ayniqsa, Temuriylar hukmronligi davrida barpo etilgan kutubxonalar, jumladan, Ulug‘bek, Shohrux, Boysung‘ur, Husayn Boyqaro, Alisher Navoiy kutubxonalari nafaqat ilmiy markaz, balki davlat siyosatining ma’rifiy tayanchi sifatida faoliyat yuritgan.

Temur o‘z tuzuklarida donishmandlarning maslahatini eshitishni, tarixiy tajribadan o‘rganishni, ishonchli kishilarga ilmiy mas’uliyat yuklashni buyurgan. Bu tamoyillar Alisher Navoiy kutubxonasini Xondamirga, Husayn Boyqaro kutubxonasini Behzodga ishonib topshirishda ham yaqqol namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, “Temur tuzuklari”da keltirilgan davlatni bilim va odob bilan boshqarish g‘oyasi Uchinchi Renessans g‘oyasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ilm-ma’rifat, tarixiy tafakkur, tafsir, falsafa, tibbiyot va boshqa fanlarni tiklash va yangilash yo‘lida tarixiy asos sifatida xizmat qilmoqda. Temuriylar yaratgan madaniy-ma’rifiy muhit, aynan “Temur tuzuklari”da ifoda etilgan g‘oyalarning real hayotda amaliyotga joriy etilgan shaklidir.

Yuqoridagi ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Amir Temur tomonidan yaratilgan “Temur tuzuklari” asari faqat o‘z davri uchun emas, balki zamonaviy jamiyat taraqqiyoti uchun ham chuqur g‘oyaviy-ma’naviy va boshqaruvga oid manba bo‘lib xizmat qiladi. Unda ilgari surilgan har bir g‘oya – davlatni bilim, adolat, tartib va tafakkur asosida boshqarish, har bir qatlamning o‘z o‘rnini belgilash, ilm va ma’rifatni ustuvor qadriyatga aylantirish – bularning barchasi bugungi “Uchinchi Renessans” poydevorini barpo etishda tarixiy dars bo‘la oladi.

Bugun O‘zbekistonda shakllanayotgan yangi uyg‘onish davrida, ayniqsa, quyidagi jihatlarda “Temur tuzuklari”dan o‘rnak olish muhim:

Davlat boshqaruvida ilmga asoslanish – Amir Temur boshqaruvining intizomi, amaldorlar faoliyatini sinchkov baholashi, o‘ziga sodiq va bilimli kadrlarni tanlashi bugungi kunda ham davlat xizmatiga qabul, mas’uliyat va halollik mezonlarini shakllantirishda tarixiy namuna bo‘la oladi.

Ilm-fan va ma’rifatning ustuvorligi – Temuriylar davridagi madrasalar va kutubxonalar faoliyati asosida bugungi ta’lim tizimini yangilash, ayniqsa yuksak bilim va kasbga ega avlodni shakllantirish yo‘lida “Temur tuzuklari”da ifoda etilgan yondashuvlar qo‘llanishi zarur.

Milliy g‘urur va tarixiy xotira – “Temur tuzuklari”da aks etgan milliy yuksalish, o‘zlikni anglash, xalqning birligi va farovonligini ta’minlash g‘oyalari yosh avlodga tarixiy xotira asosida yondashishni, Vatanga sadoqatni shakllantirishda g‘oyaviy vosita bo‘lishi mumkin.

Huquq va adolatni ustuvor qilish – Amir Temurning siyosiy-tashkiliy amaliyoti va jazolashdagi ehtiyotkorligi, adolatli tekshiruvsizlikka qarshi qat’iy pozitsiyasi hozirgi sud-huquq tizimida inson huquqlarini ta’minlash borasida beqiyos tarixiy

tajribadir. Global fikrlash va tashqi dunyo bilan aloqa – Temur o‘z saltanatini geografik, siyosiy va iqtisodiy jihatdan keng fikrlash asosida boshqargan. Bugungi globallashuv davrida ham xalqaro hamkorlik, madaniy diplomatiya va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda bu yondashuv dolzarbdir.

Shunday qilib, “Temur tuzuklari” asari bugungi Uchinchi Renessans g‘oyasining ilmiy, siyosiy va ma’naviy negizlaridan biri sifatida qaralishi zarur. Bu asardan olingan tarixiy saboqlar zamonaviy O‘zbekistonning taraqqiyot yo‘lida yo‘l ko‘rsatkich bo‘lib xizmat qila oladi. Har bir mutasaddi, har bir rahbar, har bir o‘qituvchi va har bir yosh bu asarni o‘rganib, o‘z faoliyatida undan ilhom olishi – Uchinchi Renessans poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Amir Temur merosi, xususan “Temur tuzuklari” asari, nafaqat o‘z davrining siyosiy-huquqiy va ma’naviy tafakkuri mahsuli, balki bugungi zamonaviy O‘zbekiston taraqqiyotida ham g‘oyaviy, strategik va axloqiy poydevor sifatida muhim o‘rin tutadi. Asarda ilgari surilgan adolat, tartib, bilim, fidoyilik, halollik, vatanparvarlik, ilm-fan va ma’rifatni ustuvor qadriyat sifatida e’tirof etish g‘oyalari “Uchinchi Renessans” g‘oyasining asosiy tarkibiy qismlariga to‘la uyg‘un keladi.

Bugun biz “Temur tuzuklari”ni nafaqat tarixiy manba, balki bugungi va kelajak taraqqiyotimizga yo‘naltiruvchi g‘oyaviy-ma’naviy dastur sifatida qabul qilishimiz lozim. Ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalashda, rahbarlik madaniyatini shakllantirishda, davlat xizmatini samarali tashkil etishda bu asar o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. “Uchinchi Renessans” g‘oyasini amalga oshirishda Amir Temur tajribasiga tayangan holda, tarixiy xotirani tiklash, milliy o‘zlikni anglash va taraqqiyotga intilishga yo‘naltirilgan harakatlar strategik ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Амир Темур жаҳон тарихида / Масъул муҳаррир: Ҳ. Кароматов. – Тошкент: «Шарқ». 2001. – 304 б.

2. Амир Темур ва унинг дунё тарихидаги ўрни. Халқаро конференция маърузалари тезислари. – Самарқанд, 1996, 22-23 май.

3. Амир Темур Кўрагон. Қиссаи Темур (“Малфузоти Темурий”). Араб алифбосидан кирилл алифбосига ўгириш, сўз боши, луғат ва изоҳ муаллифлари: Ҳ. Бобобеков, Ҳ. Бобоев, А. Қуронбеков. – Тошкент, 2000.

4. Atazhanov F. (2022). Administrative and military structure of the state of Amir Temur: State management // Oriental Journal of Social Sciences. № 2. – P. 1-8. DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojss-02-02-01

5. Бартольд В. (1964). Улугбек и его время. Соч., Т. II., Ч. I. – Москва.

6. Зиёдулла Муқимов. (2008). Амир Темур тузуклари (тарихий-ҳуқуқий тадқиқот). Иккинчи тўлдирилган нашри. – Самарқанд: СамДУ. – 131 б.

7. Квинт К. (2021). Стратегическое лидерство Амира Тимура: комментарии к «Уложению».

8. M. Abdujabbarova, O. Davlatov, K. Sultanov (2021) The History of the Development of the Foundations of Public Administrations of Amir Temur: “Temur Tuzuklari” as the Basis of Statehood // International Journal on Integrated Education. № 4. – P. 15-22.

9. Murodullayev T. (2025). Amir Temurning “Temur tuzuklari” asari: dolzarbligi va bugungi kundagi ahamiyati // Models and methods for increasing the efficiency of innovative research, №. 43.

10. Темур тузуклари / Форсчадан А. Соғуний ва Ҳ. Кароматов таржимаси. – Тошкент, 1994.

REFERENCES:

1. Amir Temur jahon tarixida / Mas’ul muharrir: H. Karomatov. – Toshkent: «Sharq». 2001. – 304 b. (In Uzbek)

2. Amir Temur va uning dunyo tarixidagi o‘rni. Xalqaro konferensiya ma’ruzalari tezislari. – Samarqand, 1996, 22-23 may. (In Uzbek)

3. Amir Temur Ko‘ragon. Qissai Temur (“Malfuzoti Temuriy”). Arab alifbosidan kirill alifbosiga o‘girish, so‘z boshi, lug‘at va izoh mualliflari: H. Bobobekov, H. Boboyev, A. Quronbekov. – Toshkent, 2000. (In Uzbek)

4. Atazhanov F. (2022). Administrative and military structure of the state of Amir Temur: State management // Oriental Journal of Social Sciences. DOI: № 2. – P. 1-8. https://doi.org/10.37547/supsci-ojss-02-02-01

5. Bartold V. (1964). Ulugbek i ego vremya. Soch., T. II., Ch. I. – Moskva. (In Russian)

6. Ziyodulla Muqimov. (2008). Amir Temur tuzuklari (tarixiy-huquqiy tadqiqot). Ikkinchi to‘ldirilgan nashri. – Samarqand: SamDU. – 131 b. (In Uzbek)

7. Kvint K. (2021). Strategicheskoe liderstvo Amira Timura: kommentarii k «Ulojeniyu». (In Russian)

8. M. Abdujabbarova, O. Davlatov, K. Sultanov (2021) The History of the Development of the Foundations of Public Administrations of Amir Temur: “Temur Tuzuklari” as the Basis of Statehood // International Journal on Integrated Education. № 4. – P. 15-22.

9. Murodullayev T. (2025). Amir Temurning “Temur tuzuklari” asari: dolzarbligi va bugungi kundagi ahamiyati // Models and methods for increasing the efficiency of innovative research, №. 43. (In Uzbek)

10. Temur tuzuklari / Forschadan A. Sog‘uniy va H. Karomatov tarjimasi. – Toshkent, 1994. (In Uzbek)

TALABALAR IJODIDAN

Mahmudov Dilshod Qilichboyevich
Oriental universiteti, Filologiya fakulteti
ikkinchi kurs arab tili yo‘nalishi AF-307-guruh talabasi.
Tel.: +998 97 820-20-98
E-mail: Md_hon087@mail.ru

Ushbu ruknda Oriental universitetining iqtidorli talabalaridan biri bo‘lmish Dilshod Mahmudov tomonidan Alisher Navoiy hamda Zahiriddin Muhammad Bobur ruboiylarining arabcha tarjimalari havola qilinadi:

G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish,
El anga shafiq-u mehribon bo‘lmas emish.
Oltin qafas ichra gar qizil gul bitsa,
Bulbulg‘a tikondek oshiyon bo‘lmas emish.

(Alisher Navoiy)

لَا يَسْعَدُ الْغَرِيبُ فِي الْغُرْبَةِ أَبَدًا،
وَلَا يَجِدُ فِيهَا وُدًّا وَلَا سَنَدًا.
وَإِنْ نَبَتِ الْوَرْدُ فِي قَفَصِ الذَّهَبِ،
فَمَا لِلْبُلْبُلِ فِيهِ عُشًّا كَالشَّوْكَةِ أَبَدًا.

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur!
Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidur!
Yaxshi kishi ko‘rmagay yomonlik hargiz,
Har kimki yomon bo‘lsa, jazo topqusidur!

(Zahiriddin Muhammad Bobur)

كُلُّ مَنْ وَفَى، يَجِدُ الْوَفَاءَ،
كُلُّ مَنْ جَفَى، يَجِدُ الْجَفَاءَ.
لَا يُصِيبُ الرَّجُلَ الصَّالِحَ السُّوءُ أَبَدًا،
وَكُلُّ مَنْ كَانَ فَاسِدًا، يَجِدُ الْجَزَاءَ.

Oriental universitetining “Al-Buxoriy” nomli jurnali

Jurnal Oliy o‘quv yurtlari hamda ilmiy-tadqiqot muassasalarining professor-o‘qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchilari, magistrantlari, talabalari va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.
Maqola muallifining fikri tahririyat fikrini ifodalamaydi.

AL-BUXORIY
AL-BUKHARI

Bosh muharrir: **Farhod Maksudov**
Bosh muharrir o‘rinbosari: **Malika Nasirova**
Mas’ul muharrir: **Govhar Raxmatova**
Musahhih: **Komiljon Yunusov**

Manzil: Toshkent shahri, Olmazor tumani, Norzatepa ko‘chasi, 52.
Telefon: +998 93 004-57-77. E-mail: al-buxoriy@orientaluniversity.uz

“Al-BUXORIY” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining
№ 111741 raqamli guvohnomasi bilan
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Oriental universiteti Kengashining 2025-yil 28-may 7-sonli yig‘ilish bayonnomasiga asosan nashrga ruxsat etildi.